

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSC.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  
**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

---

**qo‘lyozma huquqida  
UDK: 336.2:6P2.15.7:338(575.1)**

**ISMATOV XOLBUTA BEGMATOVICH**

**SOLIQ SIYOSATI STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH VA AMALGA  
OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan**

**DISSYERTASIYA**

**Ilmiy rahbar:  
i.f.d. (DSc),professori. S.K.Xudoyqulov**

**Toshkent – 2023-yil**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB.</b>	
<b>SOLIQ SIYOSATI VA UNING STRATEGIYASINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....</b>	<b>13</b>
1.1-§. Soliq siyosati va strategiyasining ilmiy-nazariy mazmuni va yuzaga kelish iqtisodiy shart-sharoitlari.....	13
1.2-§. Soliq siyosati va uning strategiyasiga oid ilmiy tadqiqotlar tahliliy sharhi.....	28
Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....	43
<b>O‘ZBEKISTON SOLIQ SIYOSATI STRATEGIYASI VA II BOB. TAKTIK YO‘NALISHLARINI ISHLAB CHIQISH, AMALGA OSHIRILISH HOLATI TAHLILLI.....</b>	<b>46</b>
2.1-§. O‘zbekiston soliq tizimida soliq siyosati strategik maqsadlarning rivojlanish tahlili va joriy vaziyatning holati.....	46
2.2-§. O‘zbekistonda soliq strategiyasi va taktikalarini ishlab chiqish hamda mexanizmlarining tahlili.....	70
2.3-§. Soliq siyosati strategiyasi va uning taktik yo‘nalishlarining samaradorligini baholash.....	89
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.....	103
<b>SOLIQ SIYOSATI STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH III BOB. VA AMALGA OSHIRISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....</b>	<b>108</b>
3.1-§. Soliq siyosatini takomillashtirishning asosiy muammolari va nomutanosibliklari.....	108
3.2-§. Yangi O‘zbekiston sharoitida o‘rta muddatli soliq siyosati strategiyasining konseptual yo‘nalishlari.....	127
Uchinchchi bob bo‘yicha xulosa.....	146
<b>XULOSA.....</b>	<b>149</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>155</b>
<b>ILOVALAR.....</b>	<b>158</b>

## **KIRISH (falsaфа doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)**

### **Dissertatsiya mavzusining dolzarbliги va zarurati.**

Jahon amaliyotida davlat budgeti va soliq to‘lovchilarning manfaatlari nuqtayi nazaridan to‘g‘ri va samarali soliq siyosati strategiyasi ishlab chiqish davlatning fiskal-budget siyosatining samarasini ta’minlashning muhim omillaridan biri sifatida alohida ahamiyat berib kelinmoqda. “Xalqaro valyuta jamg‘armasining hisob-kitoblariga ko‘ra, rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotida soliplardan tushumlar YAIMning 15-25 foizini, iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda ushbu ko‘rsatkich 40 foizni tashkil etadi. Ushbu tashkilotning tavsiyalariga ko‘ra, ayrim daromadi past hamda bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan davlatlarda oxirgi yigirma yillar oralig‘ida soliq siyosatida islohotlar amalga oshirilishi natijasida soliq tushumlarining keskin o‘sishi kuzatilganligi ham samarali soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish muhimligini ko‘rsatmoqda”<sup>1</sup>. Shunga ko‘ra, jahon miqyosida soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga e’tibor qaratilmoqda.

Hozirda jahonda soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Soliq siyosati strategiyasi orqali inklyuziv o‘sish sur’atlariga erishish, soliq tizimida daromadlarni oshirish qobiliyatini oshirish hamda davlat xarajatlarining barqarorligini ta’minlash, rivojlanayotgan davlatlarning fiskal siyosatini kuchaytirish, adolatli va inklyuziv soliq tizimini joriy etish, soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishda raqamli platformalardan samarali foydalanish kabilar bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichida yangi mazmundagi strategik maqsadlarni belgilab beruvchi soliq siyosatini shakllantirish va amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Soliq to‘lovchilar faoliyatini rag‘batlantirish, soliq yukini kamaytirib borish, adolatli soliq tamoyillariga asoslangan soliq tizimini yanada rivojlantirib borish yo‘nalishida sezilarli

---

<sup>1</sup> <https://www.imf.org/en/Publications/fandd/issues/2018/03/akitoby>

islohotlar amalga oshirish bu boradagi muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu bilan birga bunday soliq siyosatining samaradorligini ta'minlashda, hali o‘z yechimini kutayotgan ilmiy-amaliy muammolar ham mavjud. Jumladan, o‘rtta va uzoq yillarga mo‘ljallangan budget daromadlari, soliq siyosati strategiyasini tasdiqlab borish orqali transparent va barqaror soliq tizimini shakllantirish, soliq tavakkalchiliklarini baholash va ishonchlilik indekslari mezonlari asosida segmentlash tizimini joriy qilish, soliq bazasini bozor narxidan kelib chiqqan holda hisoblashga bosqichma-bosqich o‘tishga asoslangan soliq ma’muriyatçiligini takomillashtirish, quyi darajadagi vakolatlarni kengaytirish asosida mahalliy budgetlar mustaqilligini yanada oshirish, iqtisodiy faoliyat sohasida xufiyona aylanma hamda nazorat qilinmaydigan daromadlar ko‘lamini qisqartirish kabi masalalarning yechimlariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarini yanada kuchaytirish taqozo etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldaggi PF-5116-son “Soliq ma’muriyatçiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarining yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to‘g‘risida”gi, 2020-yil 30-oktyabrdagi PF-6098-son “Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 15-sentyabrdagi PF-6314-son “Tadbirkorlik subyektlari uchun ma’muriy va soliq yukini yanada kamaytirish, biznesning qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2011-yil 4-apreldagi PF-4296-son “Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, farmonlari, 2019-yil 10-iyuldaggi PQ-4389-son “Soliq ma’muriyatçiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2022-yil 13-sentyabrdagi PQ-374-son “Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshiruvlar o‘tkazishni muvofiqlashtirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa

me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'r ganilganlik darajasi.** Soliq siyosati va uning strategiyasini aniqlash hamda samarali amalga oshirishning nazariy-uslubiy masalalari bo'yicha juda ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, Kuznets S., Anikin A.V., Aronov A. V., Kashin V. A., Barulin S.V., Valinurov R., Denisov E., Yedronova V.N., M.Keyns Dj., Kuklina T.V., Kene F., Mill Dj.S., Makkonell K.R., Lukyanova N.G., Smit A., Rikardo D., Perov A., Tolkushkin A., Pezenti A., Petrunin Yu.Yu., Panov M.I., Samuelson P., Rayzberg B. A., Chernik D.G. va shu kabi olimlar tomonidan davlat soliq siyosatining umumiyligi va o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan talqin qilingan<sup>2</sup>.

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan E.F.Gadoev, T.S.Malikov, N.H.Xaydarov, B.A.Normatov, S.S.Azimov, S.Elmirzayev, N.B.Ashurova,

---

<sup>2</sup> Kuznets S. Economic Growth of Nations. Total Output and Production Structure. Cambridge, 1971., А.В. Аникин Юность науки. М., Политиздат. 1971 г. История экономической мысли. М., 1998., Аронов А. В., Кашин В. А. Налоги и налогообложение: учеб. пособие. — М.: Магистр, 2007. — С. 99—100., Барулин С.В., Макрушин А.В., Тимошенко В.А. Налоговая политика России. – Саратов: Сателлит, 2004. – с.24-25., Т.Р. Валинуров. Сущность налоговой политики государства и содержание налогового механизма. Приложение к журналу «Современные научноемкие технологии» №1 2010, Денисов Э. Исследования различий в темпах экономического роста. М., 1971, Едронова В.Н., Мамыкина Н.Н. Сущность и элементы налоговой политики // Финансы и кредит. – 2005. – №5. – с. 38, Дж.М.Кейнс Общая теория занятости, процента и денег. – М.: 1993., Т.В. Куклина. Государственная налоговая политика и ее роль в социально-экономическом развитии России. Вестник Томского государственного университета. Экономика. 2016. №2 (34)., Ф.Кенэ Избранные экономические произведения. -М.Соцэкгз. 1960., Дж.С.Милл Основы политической экономии. Пер. с анг. Т.1. – М.: Мысль, 1980., Макконелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика. В 2т. пер. с анг. 11-го изд. Т.1. – М: Республика. 1992., Лукьянова Н.Г. Управление налоговой системой государства: систематизация понятийного аппарата // Финансовый мир. 2002. Вып. 1., А.Смит. Исследование о природе и причинах богатства народов.-М.: 1962., Д.Рикардо. Начала политической экономии и налогового обложения / Соч. Т.1. М.: Госполиздат, 1956., Перов А., Толкушкин А. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. – М.: “Юрайт”, 2012. С. 118., Пезенти А. Очерки политической экономии капитализма. пер. с итал. В 2т. Т.2. – М.: Прогресс, 1976. с. др., Налоговая политика // Экономика. Словарь по обществознанию. — М.: КДУ. Ю. Ю. Петрунин, М. И. Панов, Л. Б. Логунова. 1995.,

Самуэльсон П. Экономика Т.1. пер. с анг.- М. Республика, 1993; Курс экономической теории: учебник – 4-с доп. И прераб. Изд.-Киров «АСА», 1999, стр. 557-584., Райзберг Б. А., Лозовский Л. Ш., Стародубцева Е. Б. Налоговая политика // Современный экономический словарь. — 2-е изд., испр. М.: ИНФРА-М. 479 с. 1999., Черник Д.Г. Налоги и налогообложение. М.: ИНФРА-М, 2001. 574 с.

J.J.Urmonov, I.M.Niyazmetov, S.K.Xudoykulov, F.I.Isayev, Z.A.Abdullayev,  
U.X.Normurzayev, O.Abduraxmonov, Sh.Toshmatov, N.Ashurova,  
M.Almardonov, A.Jo'rayev, T.Malikov, B.Toshmurodova, Q.Yahyoyev,  
N.Xaydarov, A.Islamkulov, F.Mirzayev, B.Azimov, N.Qo'ziyeva, A.Toshqulov,  
M.Xaydarov, J.Zaynalov, Yu.Yusupov<sup>3</sup>larning ilmiy tadqiqotlarida Respublikamiz

---

<sup>3</sup> Э.Ф.Гадоев ва б. Билвосита солиқлар: қўшилган қиймат солиғи, акциз солиғи. Тошкент: «NORMA», 2011. 327 б.; Ш.А.Тошматов Қўшилган қиймат солиғи. Монография. Тошкент.: «Иқтисодиёт ва хуқуқ дунёси», 2004. -160 б.; Т.С.Маликов, Н.Х.Хайдаров Молия: умумдавлат молияси. Ўкув кўлланма. Т.: «Iqtisod-moliya», 2009. -556 б.; С.С.Азимов, “Камерал солиқ текширувани ташкил этишда ташқи манба маълумотларидан самарали фойдаланиш” мавзусидаги PhD илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертацияси, 2022 йил., Б.А.Норматов, “Ўзбекистон Республикасида солиқ текширувларини хуқуқий тартибга солишини такомиллаштириш” мавзусидаги (PhD) диссертацияси автореферати, Тошкент-2020; И.А.Эргашев, “Солиқ маъмуриятчилиги ташкилий-хуқуқий асосларини такомиллаштириш” мавзусидаги PhD илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертацияси, Корпоратив солиқ менежментида ички солиқ назорати ва таҳлили, “Молия” илмий журнали.-2010.-№3; Ж.Ж.Урмонов, (2018), Тадбиркорлик субъектлари фаолиятини солиқ механизми воситасида тартибга солишини такомиллаштириш масалалари. Иқтисодиёт фанлари доктори (DcS) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. 27-38 б. / Urmonov J.J. (2018) Issues of improving the regulation of business entities through the tax mechanism. Dissertation for the degree of Doctor of Economics (DcS), Н.Б.Ашуррова Барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашда солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш. и.ф.д. (DS) Диссертацияси. Т: 2018 йил. 247 б.; Ж.Ж.Урмонов Тадбиркорлик субъектларини солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш масалалари: Монография/ Т.: “Iqtisod-Moliya”, 2018 й. 240 б.; И.М.Ниязметов “Солиқ юкини оптималлаштириш: назария, услугбият ва амалиёт” Монография.-Тошкент: “Молия”, 2016. 192 б.; Худойкулов С.К. Солиқ тушумларини прогноз қилиш методологиясини такомиллаштириш. и.ф.д. дисс. автореферати. Т., 2019. 77 б.; Ф.И.Исаев Солиқ таҳлили методологиясини такомиллаштириш. И.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. 2022. 242 б; У.Х.Нормурзаев Солиқ имтиёзларининг самарадорлиги: назария, методология ва амалиёт. Иқтисодиёт фанлари доктори (Doctor of Science) диссертацияси. 2022. 247 бет., Абдурахманов О.К. Налоговые системы стран с переходной экономикой. Монография. – М.: «Палеотип», 2006. – 375 с.; Тошматов Ш.А. Корхоналарни ривожлантиришда солиқлар роли: Монография – Т.: «Fan va texnologiya», 2008. – 204 б.; Гадоев Э.Ф. Солиққа тортиш тартиб-таомилларини соддлаштириш тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришнинг муҳим омили // «Иқтисод ва молия» журнали, 2015, 1-сон. – Б.30-34.; Ашуррова Н.Б. Барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашда солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш // и.ф.д. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. –Тошкент, 2018. – 76 б.; Альмардонов М.И. Тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришга солиқ тизимининг таъсири: Монография. – Т.2003. – 233 б.; Жўраев А.С. Давлат бюджети даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари: Монография. – Т.: «Фан», 2004. – 243 б.; Маликов Т.С. Солиқлар ва солиққа тортишнинг долзарб масалалари. – Т.: «Академия», 2000. – 276 б.; Тошмуродова Б.Э. Солиқлар воситасида иқтисодиётни бошқариш механизми: Монография. – Т.: «Янги аср авлоди», 2002. – 127 б.; Яхёев К.А. Солиққа тортиш назарияси ва амалиёти. – Т.: «Фан ва технологиялар маркази», 2003. – 247 б.; Хайдаров Н.Х. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида корхоналар инвестицион фаолиятидаги молия-солиқ муносабатларини такомиллаштириш масалалари // и.ф.д. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т. 2003. – 34 б.; Исламкулов А.Х. Бюджетлараро мутаносибликни таъминлашда солиқлар тизимини такомиллаштириш // и.ф.д. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т. 2020. – 71 б.; Мирзазев Ф.И. Ўзбекистонда солиқ йигилувчанлиги даражасини ошириш йўллари // и.ф.н. илмий даражаси олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т.: БМА, 2012. – 24 б.; Пардаев А.Х., Азимов Б.Ф. Корхоналар фаолиятини солиқлар воситасида бошқариш. – Т.: «Zar qalam», 2005. – 68 б.; Кузиева Н.Р. Хорижий инвестициялар иштирокидаги корхоналар фаолиятини рағбатлантиришнинг молия-кредит механизмини такомиллаштириш йўналишлари // и.ф.д. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент, 2008. – 293 б.; Тошқулов А. Қишлоқ хўжалиги корхоналари иқтисодий фаолиятини солиқлар воситасида рағбатлантириш масалалари (Сурхондарё вилояти мисолида) // и.ф.д. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Т. 2021. – 80 б.; Раджапов У.А. Ўзбекистон иқтисодиётини эркинлаштириш шароитида солиқ механизмини такомиллаштириш // и.ф.н. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т. 2006. – 24 б.

soliq siyosatining u yoki bu qirralari tegishli mavzu doirasida tadqiq qilingan, ilmiy xulosalar berilgan va ayrim ilmiy tavsiyalar keltirilgan.

Jumladan, rus olimlaridan klassik iqtisodiyot nazariyasi vakillaridan A.Smit, D. Rikardo, U.Petti, Dj.S.Mill, F.Kenelar davlat soliq siyosatida davlat g‘aznasining daromad manbalari va ularni taqsimlash bilan bog‘liq nazariyalarni ilgari surgan bo‘lsa, keyingi davrning soliq nazariyachilar hisoblangan, M.Keyns Dj., P.Samuelson, B.A.Rayzberg, D.G.Chernik., A.Perov, A.Tolkushkin, A.Pezenti, Yu.Yu.Petrunin, M.I.Panovlar esa soliq siyosatining mazmuni va uning strategik muammolari bilan bog‘liq ilmiy tavsiyalar ishlab chiqqan. Mahalliy olimlardan, professorlar A.Jo‘rayev, J.Zaynalov, N.Haydarov, Q.Yahyoyevlar va shu kabi ko‘plab olimlar tomonidan soliq siyosati, strategiyasi, taktikasi va konsepsiyalari haqida ilmiy yondashuvlar keltirilgan.

Biroq, davlatning soliq siyosati va uning strategik va taktik maqsadlarini ishlab chiqish va uni amalga oshirishga yo‘naltirilgan yaxlit ilmiy tadqiqot ishlari juda kam oshirilganki, bugungi Yangi O‘zbekiston sharoitida soliq siyosatini amalga oshirish bilan islohotlar samarasini ta’minalash bilan ilmiy tadqiqotlarga ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj saqlanib qolinmoqda.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta’minalashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta’minalashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** O‘zbekistonda soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog‘liq ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

davlat soliq siyosatining ilmiy-nazariy asoslarini ko‘rsatib berish;

davlat soliq siyosati va uning strategiyasiga ta’sir etuvchi omillarni yoritib berish;

soliq siyosati, strategiyasi, taktikasi va konsepsiyasiga oid ilmiy tadqiqotlarni ilmiy tahlil etgan holda ushbu kategoriyalarga mualliflik yondashuvlarni ishlab chiqish;

O‘zbekistonda soliq siyosati va uning taktik yo‘nalishlarining oxirgi o‘ttiz yillik holatini tanqidiy-obyektiv ilmiy jihatdan tahlil qilish;

O‘zbekiston soliq tizimida soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda davlat vakolatli organlarining ishtiroki mexanizmlarini yoritish;

soliq siyosati va strategik maqsadlarini belgilash va amalga oshirishning xorijiy davlatlar tajribalarini qiyosiy tahlil qilish asosida ulardagi ijobiy tajribalarni milliy soliq siyosatini amalga oshirishda qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar berish;

Yangi O‘zbekiston sharoitida milliy soliq siyosatining strategik va taktik maqsadlarini aniqlash hamda amalga oshirish amaliyotidagi mavjud muammolarni aniqlash va ularning sabablarini guruhlash;

Yangi O‘zbekiston sharoitida milliy soliq siyosatining strategik va taktik maqsadlarini amalga oshirish jarayonidagi muammolarning yechimlariga qaratilgan hamda mavjud tizimni takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob’ekti** sifatida O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimi va unda soliq siyosatini ishlab chiqishga oid faoliyat olingan.

**Tadqiqot predmeti** bo‘lib O‘zbekistonda milliy soliq siyosatini ishlab chiqish va uning strategik va taktik maqsadlarini amalga oshirish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda dialektik yondashuv, tahlil va sintez, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, reyting baholash, statistik guruhlash va boshqa usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

yillik budget parametrlarini tasdiqlash orqali har yili ma'murchilikka joriy o'zgarishlar kiritib borish amaliyotini o'rta va uzoq yillarga mo'ljallangan budget daromadlari, soliq siyosati strategiyasini tasdiqlab borish orqali transparent va barqaror soliq tizimini shakllantirish taklifi asoslangan;

soliq tavakkalchiliklarini baholash va ishonchlilik indekslari mezonlari asosida segmentlash tizimini joriy qilish, soliq bazasini bozor narxidan kelib chiqqan holda hisoblashga bosqichma-bosqich o'tishga asoslangan soliq ma'muriyatshilagini takomillashtirish strategiyasini amalga oshirish orqali ma'muriy tartib-taomillarni soddallashtirish taklifi ishlab chiqilgan;

soliq turlari va mahalliy budgetlarga ajratmalarni yuqorida pastga belgilab berishdan bosqichma-bosqich voz kechgan holda quyi darajadagi vakolatlarni kengaytirish asosida mahalliy budgetlar mustaqilligini yanada oshirish taklif etilgan;

iqtisodiy faoliyat sohasida xufiyona aylanma hamda nazorat qilinmaydigan daromadlar ko'lmini qisqartirish, soliq qonunchiligi sohasidan tashqarida faoliyatni amalga oshiradigan shaxslarni norasmiy sektordan chiqishiga (qonuniylashishiga) ko'maklashish asosida soliq siyosati strategiyasi takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

soliq siyosati, strategiyasi, taktikasi tushunchalariga oid mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan;

milliy iqtisodiyot doirasida davlatning soliq siyosati va uning strategiyasiga ta'sir etuvchi omillar ko'rsatib berilgan;

O'zbekiston soliq siyosatida soliq ma'murchiligi strategiyasini amalga oshirishda – soliq organlari strukturasini raqamlashtirish natijalari bilan bosqichma-bosqich optimallashtirish (qisqartirish) zarurligi ilmiy asoslab berilgan;

davlat soliq siyosati va uning strategiyasining amalga oshirilishi samaradorligini baholashning yo'llari va uning mezonlari ishlab chiqilgan;

soliq siyosatining samaradorligini ta'minlashda “tadbirkorlik subyektlarining “omon qolish darajasi” –“yashovchanlik” ko'rsatkichlaridan foydalanish zarurligi ko'rsatib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi hamda tegishli xulosa va takliflarning O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy va soliq tizimiga oid maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan O'zbekiston soliq tizimida soliq ma'murchiligini yanada soddallashtirish, soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishning samarali usullarini qo'llash orqali samaradorlikka erishishi, shuningdek, bu boradagi davlat siyosatini ishlab chiqishda hamda o'quv adabiyotlarini tayyorlashda, shuningdek, mavzuga oid ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Soliq siyosati va uning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog'liq ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida:

yillik budget parametrlarini tasdiqlash va u orqali har yili ma'murchilikka kiritiladigan tez-tez o'zgarishlar o'rniga, o'rta va uzoq yillarga mo'ljallangan budget daromadlari, soliq siyosati strategiyasini tasdiqlab borish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldaggi PQ-4389-son “Soliq ma'muriyatçiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar

to‘g‘risida”gi qarorida o‘z aksini topdi. (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2023-yil 4-yanvardagi 06/04-32-58-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi budget-soliq siyosatining o‘zaro uyg‘unligini ta’minalashga xizmat qilish bilan birgalikda o‘rta muddatli budgetni to‘g‘ri rejalashtirish hamda soliq siyosatining uzoq muddatli strategik yo‘nalishlarini ishlab chiqish imkoniyatini yaratdi;

soliq tavakkalchiliklarini baholash va ishonchlilik indekslari mezonlari asosida segmentlash tizimini joriy qilish, soliq bazasini bozor narxidan kelib chiqqan holda hisoblashga bosqichma-bosqich o‘tishga asoslangan soliq ma’muriyatçiliginin takomillashtirish strategiyasini amalga oshirish orqali ma’muriy tartib-taomillarni soddallashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagagi PQ-4389-son “Soliq ma’muriyatçiliginin takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida o‘z aksini topdi. (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2023-yil 4-yanvardagi 06/04-32-58-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi soliq to‘lovchilarining faoliyatini rag‘batlantirish, soliqqa tortish tizimini soddallashtirish hamda soliq siyosatining adolatlilik tamoyillari asosida ishlab chiqilishini ta’minalashga xizmat qildi;

soliq turlari va mahalliy budgetlarga ajratmalarni yuqoridan pastga belgilab berishdan bosqichma-bosqich voz kechgan holda quyi darajadagi vakolatlarni kengaytirish asosida mahalliy budgetlar mustaqilligini yanada oshirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to‘g‘risida”gi farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagagi PQ-4389-son “Soliq ma’muriyatçiliginin takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida o‘z aksini topdi. (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2023-yil 4-yanvardagi 06/04-32-58-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi davlatning mahalliy va respublika budgetlarini soliq tushumlarini barqarorlashgan holda

ta'minlashga qaratilgan soliq siyosatining samaradorligini ta'minlab, mahalliy budjetlarning qo'shimcha daromad bazalariga ega bo'lishiga olib keldi;

iqtisodiy faoliyat sohasida xufiyona aylanma hamda nazorat qilinmaydigan daromadlar ko'lmini qisqartirish, soliq qonunchiligi sohasidan tashqarida faoliyatni amalga oshiradigan shaxslarni norasmiy sektordan chiqishiga (qonuniylashishiga) ko'maklashish asosida soliq siyosati strategiyasi takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldaggi PQ-4389-son "Soliq ma'muriyatçiliginin takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida o'z aksini topdi. (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2023-yil 4-yanvardagi 06/04-32-58-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy asoslangan takliflarning amaliyotga joriy qilinishi natijasida milliy soliq siyosatining strategik va taktik yo'nalishlarini milliy manfaatlар va insofli soliq to'lovchilar manfaatlari nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda shakllantirish va amalga oshirish ta'minlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan va ijobjiy xulosalar olingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, shundan, nufuzli xorijiy jurnallarda 1 ta ilmiy maqola chop etilgan.

**Dissertatsyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsyaning hajmi 148 betni tashkil etadi.

## **I-BOB. SOLIQ SIYOSATI VA UNING STRATEGIYASINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

### **1.1. Soliq siyosati va strategiyasining ilmiy-nazariy mazmuni va yuzaga kelish iqtisodiy shart-sharoitlari**

Bugungi kunda har qanday iqtisodiy tizimda davlatning asosiy vazifasi jamiyatning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlarida muvozanat va tenglikni ta'minlashdan iborat. Ushbu muvozanatni mohirona boshqarish, shubhasiz, iqtisodiy o'sishni katalizlash va boshqarishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Aynan mana shu murakkab jarayon doirasida moliyaviy va soliq munosabatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni boshqarish vositasi sifatida shakllanadi.

Milliy daromadni ishlab chiqarish doirasida qayta taqsimlashda davlatning rolini o'z ichiga oladi. Bu ishlab chiqaruvchilar va davlat o'rtasida markazlashtirilgan pul mexanizmlari orqali daromadlarni taqsimlashni nazarda tutadi. Ushbu qayta taqsimlashning asosiy maqsadi davlatning muhim funksiyalarini moliyalashtirish va jamiyatni hayotiy ijtimoiy xizmatlar bilan ta'minlashdir. Ushbu harakat turli sohalar o'rtasida muvozanatga erishishga qaratilgan. Bunda soliqlar vositachilikning asosiy vositasi sifatida markaziy o'rinni egallaydi.

Bu jarayonlarni tartibga solish, moslashtirish va aniq chegaralash turli davrlarni qamrab oluvchi rejalarini shakllantirishda yangi imperativlarni keltirib chiqaradi. Davlat tomonidan yuqorida ko'rsatilgan funksiyalarning samarali bajarilishida ijtimoiy hamda iqtisodiy rejalarini tartibga solish bilan shug'ullanadi. Mazkur vazifa davlatning ijtimoiy dinamikaga javob beradigan iqtisodiy "barometr" rolidan kelib chiqadi. Jamiyatda ijtimoiy va ijtimoiy-iqtisodiy rejalarini amalga oshirish orqali real sharoit va voqeliklarga nisbatan qiyosiy tahlil qilinadi. Xususan baholash davlat harakatlarining samaradorligini baholash, uning funksiyalari hamda mas'uliyatidagi tendensiyalarni aniqlashni pirovardida esa uning asosiy maqsadlari bo'yicha muvozanat darajasini baholash uchun mezon bo'lib xizmat qiladi albatta.


Ushbu maqsadlarga erishish uchun davlat turli sohalarda o‘z sa’y-harakatlarini strategik jihatdan muvofiqlashtirib, turli sohalardagi siyosatining asosini tashkil etadi. Davlatning ko‘p qirrali siyosat landshafti asosan ikki o‘q bo‘ylab tuzilgan: ichki va xalqaro.

Shuni ta’kidlash kerakki, markazlashtirilgan pul resurslarini yaratish hamda keyinchalik davlatning ichki siyosatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur markazlashtirish davlatning umumiy iqtisodiyning asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan soliq siyosati bilan murakkab o‘zaro bog‘liqlikni namoyish etadi. Davlatning har qanday sohadagi faoliyati o‘z mohiyatiga ko‘ra maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu oldindan belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun bir qator chora-tadbirlar va harakatlarni birlashtirishni taqozo etadi. Bunday chora-tadbirlar va harakatlarning uyg‘unligi davlat siyosatini tashkil etadi.

Shunday qilib, siyosat zamirida ko‘pchilikning manfaatlariga asoslangan davlat faoliyati turadi. Davlatning bunday faoliyatining soliqlarga oid qismi esa o‘z navbatida soliq siyosatining o‘zagini tashkil etadi. Soliq siyosatining o‘zagi esa ta’kidlanganidek, taqsimot munosabatlarga borib taqaladi. Milliy daromadni taqsimlash, uning uchun majburiy to‘lovlar vositalarini(soliqlarni) joriy etish, uni undirish va bu jarayonning borishini tartibga solib turish hamda uni doim takomillashtirib borish kabi munosabatlarni taqozo qiladi. Ushbu munosabatlar o‘rtasidagi aloqani o‘rnatish davlat tomonidan soliq siyosati deb ataladigan maqsadli harakat yo‘nalishini talab qiladi. Hamma iqtisodiy, ijtimoiy hamda siyosiy jarayonlar, aniq hodisa sifatida amalga oshirsin yoki nazariy konstruksiya bo‘lib qolsin, doimo ijtimoiy-iqtisodiy asoslarda o‘z asosini topadi. Xuddi shunday, bizning tadqiqotimizda ham asosiy mavzusi soliq siyosati 1.1-rasmda ko‘rsatilganidek, iqtisodiy hamda ijtimoiy tamoyillar o‘z ichiga olgan holda mustahkam darajada asoslantiriladi.

Soliq siyosatining iqtisodiy hamda ijtimoiy asoslarini ishlab chiqarish yoki noishlab chiqarish tarmoqlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lishidan qat’i nazar, jamiyat tarmoqlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning murakkab tarmog‘i doirasida izchillikni o‘rnatish zaruratidan kelib chiqadi. Bu hamjihatlikni saqlab qolishning

yana bir asosiy sharti - bu davlat daromadlarini adolatli taqsimlashdir. Bu esa, o‘z navbatida, markazlashgan pul mexanizmlarining ko‘p qirrali asoslarini yaratishni taqozo etadi. Muayyan davlatning siyosiy va iqtisodiy tuzilishiga qarab turli xil pul fondlari tashkil etilishi mumkin. Xalqaro amaliyatga nazar tashlaydigan bo‘lsak, deyarli barcha mamlakatlarda davlat budgeti bunday pul mablag‘larining asosiy shakli bo‘lib xizmat qilayotganini ko‘rish mumkin.




**1.1-rasm. Davlatning soliq siyosatining iqtisodiy-ijtimoiy asoslari<sup>4</sup>**

<sup>4</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Qo'shimcha pul mablag'larini tashkil etadi hamda ularni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash davlatning soliq siyosatini to'ldiruvchi fiskal siyosatni amalga oshiradi.

Markazlashtirilgan fondlar uchun moliyaviy resurslarni xarid qilish zarurati soliqlar va boshqa majburiy yig'imlarni joriy etish zarurligini ta'kidlaydi, chunki davlatda buning uchun qulay iqtisodiy alternativalar mavjud emas. Bugungi kunda jamiyat a'zolaridan soliq to'lovchilardan ushbu majburiy badalni undirish uchun tegishli tartib hamda kerakli mexanizmlarning yaratilishi kerak. Bu esa o'z-o'zidan murakkab hamda keng qamrovli iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishni, soliq siyosati sohasini samarali belgilash vazifasini nazarda tutadi.



**1.2-rasm. Davlat iqtisodiy maqsadi va soliq siyosati o'rtaqidagi uzviylik<sup>5</sup>.**

<sup>5</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.


Davlatning asosiy iqtisodiy maqsadi jamiyatning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashdir. Shubhasiz, ushbu asosiy maqsadga erishish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ba’zan siyosiy jihatlarni ham qamrab oluvchi boshqaruvning keng spektrini o‘z ichiga oladi. Ushbu siyosat asosi milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash va iqtisodiy muvozanatni ta’minlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu doirada fiskal va soliq siyosati asosiy, o‘ziga xos va imperativ komponent sifatida namoyon bo‘ladi.

Siyosatning barcha shakllari, xususan soliq siyosati muqarrar ravishda o‘z chegaralariga ega hisoblanadi. Biroq, soliq siyosati ijtimoiy, psixologik, madaniy va xalqaro sohalar kabi kengroq o‘lchovlarni o‘z ichiga olgan iqtisodiy o‘zaro ta’sirlardan ustun turadi. Soliq siyosati bilan ichki va tashqi siyosatning boshqa sohalari o‘rtasidagi bu ichki o‘zaro bog‘liqlik yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Soliq siyosati va ijtimoiy siyosat o‘rtasidagi bog‘liqlik alohida ahamiyatga ega bo‘lib, sinchkovlik bilan tekshirishni talab qiladi. Masalan, soliq siyosati jamiyatning qashshoq va marginal qatlamlariga qaratilgan ijtimoiy ta’milot tashabbuslariga katta hissa qo‘sadi. Soliq imtiyozlari ushbu demografik guruhlarga beriladi, shu bilan birga soliq stavkalari aholi foydalanishi mumkin bo‘lgan xizmatlar narxiga bevosita ta’sir qiladi, misol tariqasida qo‘silgan qiymat solig‘i uchun nol stavkani qo‘llash kiradi.

Soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish davlat moliya organlarining vakolatiga kiradi. Ular Iqtisodiyot va Moliya vazirligi hamda boshqa tuzilmalarning soliq siyosatini rivojlantirishga qaratilgan sa’y-harakatlarini muvofiqlashtiruvchi markaziy organ bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tartibga solish soliq siyosatining bir vaqtning o‘zida iqtisodiy va moliyaviy strategiyalarga mos kelishini sinchkovlik bilan ta’minlab, metodik ravishda olib boriladi. Davlat soliq siyosatini shakllantirishda erishilgan muhim bosqichlarni, soliq munosabatlaridagi cheklowlarni o‘rganish bilan birga diqqat bilan kuzatib boriladi. Soliqlarni hisoblash, to‘lovlar va amaldagi soliqlarning turli tarkibiy qismlarini baholash uchun analitik yondashuv qo‘llaniladi.

Shuningdek, soliq organlari va soliq to‘lovchilar o‘rtasidagi manfaatlarning uyg‘unligini turli sohalardagi mutaxassislardan ma’lumot olish orqali tekshirish va baholash zarur. Soliq siyosatini shakllantiruvchi va uning samarali amalgamoshirilishda tashkilotchi va nazoratchi sifatida ikki tomonlama rollarni beqiyosdir. Davlatning soliq siyosatida faol ishtirok etishda bozor iqtisodiyoti munosabatlarining har tomonlama yetukligini ta’kidlaydi.



**1.3-rasm. Moliya va soliq siyosatining tarkibiy tuzilishi<sup>6</sup>.**

Taqdim etilgan rasmida soliq siyosati, budget siyosati hamda budget-soliq siyosati iqtisodiy siyosatning ajralmas tarkibiy qismlari sifatida fiskal siyosatning to‘liq tasviri berilgan. Mazkur alohida siyosat sohalari murakkab o‘zaro bog‘liqliklarni namoyish etadi hamda global miqyosda soliqlar vaqtiga bilan davlatlar o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarda diplomatik vosita sifatida roli o‘ynaydi. Soliq siyosati turli sohalardagi davlat siyosati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lsada, soliq siyosatining mohiyatini ochib berishda ularning farqlarini ajratib ko‘rsatish hamda iqtisodiy siyosatning turli sohalari bilan chuqur bog‘liqligini

<sup>6</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.


e'tirof etish zarur. Soliq siyosati fiskal siyosatning asosiy qismini tashkil etishini tan olish juda muhim va u umumiy siyosat asosining tashkil qiladi.

Soliq siyosati budget siyosatining boshqa bir yo'naliishlari bilan uzviy bog'liqligi tufayli aksariyat hollarda budget-soliq siyosati nomenklaturasi ostida budget siyosati bilan o'zaro bog'liqdir. Jumladan, soliq siyosati fiskal siyosatning keng spektri bilan yonma-yon kelganda o'zining o'ziga xos xususiyatlarini saqlab qoladi. Bundan tashqari, soliq siyosati pul-kredit siyosati bilan bevosita bog'liqdir. Soliq siyosatining konturlari doimo inflyatsiyaning hukmron bo'lgan sur'atlari, pul agregatlari dinamikasiga soliq solishning oqibatlari va korxonalarining investitsiya siyosatini kuchaytirish uchun kredit resurslaridan oqilona foydalanish kabi funksiyalarni o'z ichiga oladi. Bu mulohazalar soliq siyosatini ishlab chiqishni boshqaradigan hisob-kitoblarining ajralmas tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

Jamiyatda iqtisodiy ichki mexanizmlari, boshqaruva tuzilmalari hamda ijtimoiy-siyosiy muhitni o'z ichiga olgan ko'plab determinantlarga bog'liq. Aslida u strukturaviy mulohazalar bilan chambarchas bog'langan bo'ladi. Ijtimoiy siyosat bu tenglamada hal qiluvchi rol o'ynaydi va ichki va xorijiy madaniy-ma'rifiy, siyosiy va iqtisodiy siyosatlarni qamrab oluvchi turli o'lchovlarda namoyon bo'ladi. Ulardan iqtisodiy siyosat fiskal, pul-kredit, budget va soliq siyosatlarining sinergiyasi natijasida shakllanadigan murakkab natija sifatida yuzaga keladi. Ushbu siyosat vektorlarining uzluksiz uyg'unligi makroiqtisodiyot sohasida qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyatlari tomonidan amalga oshirilishi muhim ahamiyatga egadir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiyotdagi tartibga solish roli yaqqol namoyon bo'ladi. Soliq siyosati davlatning o'zi oldindan belgilab qo'ygan maqsad va maqsadlarini amalga oshirishga intiladigan asosiy positani o'z ichiga oladi. Amaliy ma'noda esa soliq siyosati davlat boshqaruvining hamma jahhalari, jumladan, pul-kredit siyosati va narx siyosati bilan uyg'unlikda harakat qiladi va mamlakat chegaralaridagi ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning butun spektriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy va moliyaviy siyosatning boshqa sohalari bilan

chambarchas bog‘liq bo‘lgan soliq siyosatida davlat hokimiyati vakolatlarining kengayishi uning murakkabdir.




**1.4-rasm. Soliq siyosatining shakllari<sup>7</sup>.**

Agar davlat milliy daromadning davlat g‘aznasiga tushadigan ulushini ko‘paytirishni tanlasa, uning oqibatlari butun mamlakat iqtisodiy jarayonlarida aks etadi. Bu ishlab chiqarish sektoridagi takror ishlab chiqarish jarayoni dinamikasiga, undagi investitsiya shakllariga, har doim pul-kredit, budget va budget siyosatining konturlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Soliq siyosati predmetini o‘rganar ekanmiz, u juda ko‘p qirrali va murakkab ko‘rib chiqish sohasini tashkil etishini alohida ta’kidlashimiz kerak. Bugungi kunga qadar soliq siyosati tushunchasi borasida yagona bir fikr mavjud emas albatta. Misol uchun g‘arb iqtisodchilari “S.Fisher, R.Dornbush va R.Shmalenziarning fikricha, soliq siyosati mustaqil tushuncha hisoblanmaydi. Ular soliq siyosati tushunchasiga fiskal siyosat

<sup>7</sup> Ilmiy adabiyotlar tahliliga ko‘ra muallif tomonidan tuzilgan.

tushunchasi orqali yondoshadilar. Fiskal siyosat esa davlatning o‘z daromadlari va xarajatlari bo‘yicha qaror qabul qilishi bo‘lib hisoblanadi”<sup>8</sup> - deb ta’kidlashadi.

Soliq siyosati haqida fikr yuritganimizda, uning turlariga alohida to‘xtalib o‘tishimiz lozim bo‘ladi. Hozirgi kunda soliq siyosati turlarini quyidagicha guruhash mumkin:



### 1.5-rasm. Soliq siyosati turlari<sup>9</sup>.

Yuqorida 1.5-rasmida ko‘rsatilganidek soliq siyosati tasniflari bir qancha asosiy vazifalarini o‘z ichiga oladi, xususan, milliy daromadni ko‘paytirish, aholi o‘rtasida bandlik darajasini oshirish, davlat xarajatlarini boshqarishni nazorat qilish, soliqqa tortish obyektivi orqali iqtisodiyotni tartibga solish va soliq sohasida muvozanatni saqlash. budget tizimi. Soliq siyosatining asosiy maqsadi davlatni ishonchli daromad manbalari bilan ta’minlashdan iborat bo‘lib, ular birinchi navbatda davlat budgetiga yo‘naltiriladi.

Amalga oshirish nuqtayi nazaridan, soliq siyosatini ikkita asosiy turga bo‘lish mumkin: ixtiyoriy va diskretsion bo‘limgan, ikkinchisi ko‘pincha o‘zini o‘zi ta’minlaydigan soliq siyosati deb ataladi. Diskretsiya soliq siyosati soliq choralari orqali davlatning iqtisodiyotga ta’sirini kuchaytiradi. Soliq siyosatining ushbu shakliga ko‘ra, davlat idoralari iqtisodiyotdagи ishsizlik va inflyatsiyaga ta’sir qilish va potensial ravishda yumshatish vositasi sifatida davlat xarajatlaridagi tuzatishlardan foydalanadilar. Soliq siyosatiga bunday yondashuv ko‘plab mamlakatlarning soliq tizimlarida keng tarqagan. Bundan tashqari, ixtiyoriy soliq siyosati turli metodologiyalar orqali amalga oshirilishi mumkin.

<sup>8</sup> Жўраев А., Сафаров Ф. Солик назарияси. Ўкув кўлланма. –Т.: “Iqtisod-moliya”, 2005. 48-бет.

<sup>9</sup> Перов А., Толкушкин А. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: “Юрайт”, 2012. С. 118

Birinchisi, bu fiskal ekspansiyaga ("expansio"-lotincha so‘z bo‘lib, kengayish, tarqalish degan ma’noni beradi) asoslangan soliq siyosati shaklida bo‘lib, bunda yalpi talab va davlat xarajatlarini oshirish va soliqlarni kamaytirishga urg‘u berilib, unda soliqlarning rag‘batlantiruvchilik roli oshirilib, iqtisodiyotda iqtisodiy o‘sish sikllarida yuqori tebranishlarning oldi olinadi. Ammo, bunday soliq siyosatini amalga oshirish oqibatida davlat budgeti taqchilligi va inflyatsiya darajasi oshadi. Ikkinchisi esa fiskal restriksiyali (“restnctio” lotincha so‘z bo‘lib – “cheklash” degan ma’noni beradi) soliq siyosati bo‘lib, bunda davlat xarajatlarini qisqartirish va soliqlarni oshirish orqali ishlab chiqarish sur’atini pasaytirish orali inflyatsiyani kamaytirishga qaratilgan bo‘ladi. Biroq, bunday soliq siyosati ishsizlikni keltirib chiqaradi va uning oshishiga olib keladi. Ushbu strategiya va taktikalarni shakllantirish, birinchi navbatda, amalga oshirilayotgan faoliyat yoki jarayonning tabiatiga, shuningdek, davlatning tashkiliy asosiga asoslangan boshqaruv mexanizmlarining xususiyatlariga bog‘liq. Muayyan tuzilma qabul qilingan hollarda, uni amalga oshirish va daromadlarni yig‘ish bilan bog‘liq soliq siyosatiga mos keladi.

Aksincha, unitar davlatlarda budget va soliq tizimi bir xil bo‘lib qoladi. Soliq siyosati soliq xususiyatlariga ham bog‘liq. Soliqlarning o‘zgaruvchanlik va moslashuvchanlik bilan ishlashi ularning strategiyasi va taktikalarining moslashishiga yanada ta’sir qiladi. Bundan tashqari, soliq strategiyasining ichki tuzilishi va mohiyatidan kelib chiqib, u doimiy va rivojlanuvchi shakllarni olishi mumkin. Xo‘sh, soliq strategiyasi nima?

Strategiya atamasi “grekcha so‘z bo‘lib, “στρατηγία — qo‘mondonlik, boshqarish, harbiy san’ati” degan ma’noni berib, u dastlab, harbiy sohaga qo‘llanilib, keyinchalik davlat boshqaruvida va uning siyosatida qo‘llanila boshlagan<sup>10</sup>. Siyosatda qo‘llanilishi esa ko‘pincha unga davriylik jihatdan yondoshiladi. Shu jihatdan olganda strategiya davlatning ma’lum bir soha(yo‘nalish)dagi faoliyatini tizimli boshqarishning uzoq muddatli davrga

<sup>10</sup> Солик сиёсати тактикасини изоҳлашда ушбу терминнни доим кўплик маъносида ишлатиш мақсадга мувофик, сиёсатда битта тактика бўлиши унинг мазмунини йўқотади.

tegishli jarayonlarini aniqlash va uning yo‘nalishlarini belgilab olinishidir. Bu holat soliqlarga oid siyosatda ham mavjud bo‘ladi.


Soliq siyosati strategiyasi davlatning majburiy to‘lov larga doimiy jihatlarini qamrab oladi. U davlatning soliqlar va fuqarolardan olinadigan boshqa majburiy badallar bilan uzoq muddatli hamkorlik qilishning umumiy yo‘nalishi va xususiyatlarini aks ettiruvchi loyiha bo‘lib xizmat qiladi.

Davlat tomonidan oqilona soliq siyosatining samarali ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi, ayniqsa, turli manfaatlar har doim ham bir-biriga to‘g‘ri kelmasligi mumkin bo‘lgan sharoitda soliq to‘lovchilar o‘rtasida soliq madaniyatini yuksaltirishni taqozo etadi. Soliq siyosati doirasida soliq imtiyozlari va imtiyozlari keng tarqalgan bo‘lsa ham, ularning muvaffaqiyati soliq to‘lovchilarning ushbu imtiyozlardan oqilona foydalanishiga bog‘liq; aks holda ular budget manfaatlariga putur yetkazishi mumkin. Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq to‘lovchilar ko‘pincha shaxsiy manfaatlarni saqlab qolish, soliq qarzlar va hatto soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash bilan kurashadilar - bularning barchasi budget manfaatlariga zarar yetkazadi.

Demak, soliq to‘lovchilar tashvishini budget bilan uyg‘unlashtirish soliq qarzdorligini deyarli bartaraf etish, soliq to‘lovchilar o‘rtasida soliqqa rioya qilish madaniyatini oshirish va budgetdan subsidiyalar samaradorligini optimallashtirishni nazarda tutadi. Bu o‘zgarish tabiatan uzoq muddatli urinish sifatida namoyon bo‘ladi. Binobarin, soliq siyosati strategiyalari ushbu dinamik o‘zgarishlarga mos ravishda rivojlanishi kerak. Yuqorida aytib o‘tilganidek, soliq siyosati strategiyasi doimiy asosiy elementlarni va davlatning iqtisodiy siyosati maqsadlariga bog‘liq bo‘lgan moslashuvchan tomonlarini o‘z ichiga oladi.

Soliq siyosati strategiyasining evolyutsiyasi, shubhasiz, 1.6-rasmda ko‘rsatilganidek, davlatning iqtisodiy siyosati bilan birgalikda turli omillar ta’sirida shakllanadi.

Shubhasiz, har qanday davlatning soliq siyosati strategiyasi nafaqat umumiy omillar bilan, balki uning ichki iqtisodiyotiga xos bo‘lgan noyob elementlar majmuasi bilan ham muqarrar ravishda shakllanadi.



### **1.6-rasm. Soliq siyosati strategiyasiga ta'sir etuvchi omillar<sup>11</sup>.**

Davlatning soliq siyosati strategiyasi o‘z mohiyatiga ko‘ra dinamik bo‘lib, ko‘plab rivojlanayotgan omillarga moslashadi. Ushbu dinamik evolyutsiya xalqaro siyosiy-iqtisodiy siljishlar, milliy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning kengroq strategiyasi, iqtisodiy islohotlarning aniq belgilangan yo‘nalishi va mazmuni, ichki iqtisodiyot doirasida ixtisoslashtirilgan iqtisodiy dasturlarni samarali amalga oshirish bilan chambarchas bog‘liq. Shuni tan olish kerakki, siyosiy mulohazalar soliq siyosati strategiyalaridagi o‘zgarishlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, hukumat yoki parlamentda ko‘pchilik tomonidan qo’llab-quvvatlanadigan hukmron siyosiy partiya tomonidan qabul qilingan iqtisodiy paradigmalar ko‘pincha soliq siyosati strategiyasini shakllantirish uchun asos bo‘ladi.

Soliq siyosatining tuzilishi va yo‘nalishi jihatdan muhim tarkibini soliq taktikalari tashkil etadi. “Taktika ham kategoriya sifatida xuddi strategiya kabi grek tilidan olingan bo‘lib, “тактиқ-о‘shinning tuzilishi, таъси-тузлиш ва joylashish”<sup>12</sup> degan ma’nolarni berib, harbiy sohaga tegishli termin sifatida, keyinchalik esa davlatning har qanday siyosatining tuzilishi va yo‘nalishini


<sup>11</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>12</sup> Грант Р. М. Современный стратегический анализ. 7-е издание. — Санкт-Петербург: Питер, 2016. — 544 с.

Soliq ma’murchiligi va soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatishni raqamlashtirish bo‘yicha so‘nggi ikki yil ichida “katta sakrash” amalga oshirilib, Ma’lumotlarni qayta ishslash markazining quvvati 8 baravarga oshirildi, xotira hajmi esa 4 petabaytga yetkazildi. Bu, o‘z navbatida, *birinchidan*, soliq to‘lovchilarga ro‘yxatdan o‘tish, *ikkinchidan*, soliq rejimini tanlash, *uchinchidan*, budjet bilan munosabatlarini onlayn kuzatib borish, hisobotlarni shakllantirish va topshirish, *to‘rtinchidan*, soliqlarni to‘lash, o‘zining shaxsiy kabineti orqali dunyoning istalgan nuqtasidan elektron tarzda maslahat olish va soliq majburiyatlarini bajarish imkonini berdi. Bu biznes jarayonlarini to‘liq

avtomatlashtirishga, soliq to'siqlarini bartaraf etishga, yashirin iqtisodiyotni kamaytirishga va kadrlar salohiyatini mustahkamlashga yordam beradi.

Yashirin aylanma darajasini pasaytirish, shuningdek zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish maqsadida elektron hisobvaraq-fakturalar, onlayn NKM va virtual cassalar, tovarlarni markalash, shuningdek, soliq organlarini soliq to'lashdan bo'yin tovslash va soya faoliyatini olib borish faktlari to'g'risida xabardor qiluvchi shaxslarni moddiy rag'batlantirish tizimining to'liq ishlashi bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. To'liq bo'lмаган 3 yil ichida elektron hisobvaraq-fakturalar tizimining qamrov darajasi 100% gacha oshdi, bu 2019-yilga nisbatan 2022-yilda hajmi 6 baravar oshgan soliqqa tortiladigan tovar aylanmasining to'liq qamroviga erishishga imkon berdi.

Jamoatchilik nazoratining yangi vositalarini joriy etish "Cashback" xaridning 1 foizi miqdorida ("Cashback" va fuqarolarning murojaatlari bo'yicha qo'llaniladigan jarima summasining 20 foizi miqdorida mukofot) 2021-yilga nisbatan onlayn cassalarda aylanmani 1,6 baravar oshirishga imkon berdi, bu esa soliq tushumlarining 1,5 baravar ko'payishiga olib keldi. Davlat tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash sifatida kelgusi soliqlar soliqlar hisobiga onlayn NKM va 2D skanerni sotib olish va o'rnatish xarajatlarini o'z zimmasiga oldi. Natijada 224 mingdan ortiq savdo shoxobchalari (98%) onlayn kassa-nazorat texnikasi bilan qamrab olindi. Shu sababli, aylanmadan olinadigan soliq hisoboti avtomatik ravishda EHF ma'lumotlari va onlayn KKT cheklari asosida shakllantiriladi, bu esa tadbirkorni ushbu hisobotni to'ldirish tartibidan ozod qildi. 2022-yil boshidan QQS zanjiridagi soliq uzilish koeffitsiyentining o'rtacha ko'rsatkichini ("tax.gap") 0,37 dan 0,15 gacha qisqartirishga erishildi. Natijada, tushumlar 132% ga oshdi.

Mazkur yo'naliishlarda taqdim etilgan soliq imtiyozlari, soliq ma'murchiligi vositasidan budjet yo'qotishlarining ahamiyati hamda mavjud xavfini anglagan holda, imtiyozlardan foydalanishning to'g'riligini baholashga imkon beradigan "Ye-imtiyoz" axborot tizimi joriy etildi.

Bugungi kunda berilayotgan soliq imtiyozlarni suiste'mol qilishning oldini olish uchun har bir amaldagi imtiyoz raqamlangan bo'lib, EHF va onlayn-KKT

tizimlariga kiritilgan bo‘lib, ushbu chora vijdonsiz subyektlar tomonidan noo‘rin imtiyozlardan foydalanishni yo‘l qo‘ymaydi.

O‘zbekiston mustaqillik yillarda rejali iqtisodiyotdan bozorga yo‘naltirilgan iqtisodiyotga o‘tish chog‘ida o‘zining moliyaviy-iqtisodiy landshaftini tubdan qayta ko‘rib chiqdi. Ushbu o‘zgarish mamlakat soliq tizimini har tomonlama qayta ko‘rib chiqishga olib keldi. Ushbu qayta tuzilgan soliq tizimi ikki tomonlama funksiyani o‘z zimmasiga oladi. Birinchidan, u davlat tomonidan boshqariladigan ijtimoiy-iqtisodiy tashabbuslarni moliyalashtirish uchun zarur bo‘lgan muhim resurslarni olishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu budget taqchilligini kamaytirish va budget mablag‘lari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ushbu keng qamrovli islohot makroiqtisodiy barqarorlashtirish chora-tadbirlarini ma’qullash, yangi moliya bozorlarining o‘sishini rag‘batlantirish va mamlakat iqtisodiy infratuzilmasining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lgan moliya institutlarini barpo etishda muhim rol o‘ynadi. Mustaqillik yillarda amalga oshirilayotgan soliq islohotining eng muhim natijasi iqtisodiyotga soliq yukining sezilarli darajada pasayishi bo‘ldi, bu biznes va investitsiya faoliyatini faollashtirish va shu bilan barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning muhim omillaridan biri bo‘ldi.

## **2.2. O‘zbekistonda soliq strategiyasi va taktikalarini ishlab chiqish hamda mexanizmlarining tahlili**

O‘zbekistonda soliq strategiyasi va taktikalarini ishlab chiqishning amaliy holatini tahlil qilish asosida umumiy va alohida olingan ilmiy xulosalar chiqarish bu boradagi ayrim mavjud muammolarni aniqlashga xizmat qilish bilan bir qatorda, ularning yechimlari bilan bog‘liq ilmiy tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi. Shuni ta’kidlash kerakki, "soliq siyosati strategiyasi" atamasining zamонавиyl talqini o‘rta va uzoq muddatli prognozlarga asoslangan murakkab, keng ko‘lamli jarayonlarni boshqarish qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lib, ular muayyan davlat tuzilmasi doirasida jamiyat hayotining turli jahbalarini qamrab oladi.

Soliq siyosatining strategik asosi ichki va xalqaro miqqosda kuchayib borayotgan noaniqliklar sharoitida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi potensial xavflarni tasvirlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu strategik asos davlat va xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun o‘zlarining ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy maqsadlariga erishishning yangi va o‘zaro manfaatli yo‘llarini belgilashda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu dinamik tashqi va ichki muhitdagi doimiy tebranishlarni hisobga olgan holda ayniqsa zarur bo‘ladi.



**2.11-rasm. Strategiya rejasini ishlab chiqishning asosiy bosqichlari<sup>71</sup>.**


Strategiyani ishlab chiqish vazifalarni amalga oshirish va belgilangan maqsadlarga erishish uchun ishlataladigan bir qator tashkiliy harakatlar va boshqaruv yondashuvlarini o‘z ichiga oladi. Qo‘llash sohasini aniqlash, maqsadlarni belgilash, qisqa va uzoq muddatli vazifalarni aniqlash, maqsadga erishish usullarini aniqlash strategik rejani shakllantiradi<sup>72</sup>. Missiya va ustuvorliklarni aniqlagandan, shuningdek, maqsad va vazifalarni shakllantirgandan so‘ng, soliq strategiyasini ishlab chiqish metodologiyasi amalga oshirishning asosiy bosqichlari majmuini o‘z ichiga oladi.

Tashqi va ichki omillarni sinchkovlik bilan va har tomonlama tahlil qilib, kelishishdan o‘tib va rivojlanish strategiyasining eng maqbul variantini

<sup>71</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<sup>72</sup> Борисовская И.В. Методология и методы научного исследования: Электронный ресурс: Учебно-методический комплекс / И.В. Борисовская. – Белгород, 2016.


tanlagandan so‘ng, turli xil parametrlar va ko‘rsatkichlar yordamida yuqori sifatli monitoring va samarali ijro nazoratini ta’minlash kerak. Belgilangan maqsadlarga erishish monitoringi natijalarini baholash natijalariga ko‘ra, taktik xarakterga, shuningdek parametrlar va ko‘rsatkichlarga tegishli tuzatishlar kiritilishi mumkin.



**2.12-rasm. Soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish ketma-ketligi algoritmi<sup>73</sup>**

O‘zbekiston Respublikasi soliq sohasidagi qonunchilik jarayonini boshqa davlatlar bilan solishtirilgan holda, o‘rganilgan davlatlarga nisbatdan mamlakatimizdagi soliq sohasidagi qonunchilik jarayoni inklyuziv xarakterga ega bo‘lib, keng ko‘lamli tashabbuslarga va tashabbuskorlarga imkoniyat yaratib bermoqda. O‘zbekiston Respublikasida qonun ijodkorligi jarayoni O‘zbekiston Respublikasining 2006-yil 11-oktyabrdagi “Qonunlar loyihibalarini tayyorlash va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi O‘RQ-60-son va 2021-yil 20-apreldagi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-682-son qonunlari bilan belgilanadi.

<sup>73</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



## 2.13-rasm.O'zbekiston Respublikasida soliq siyosati strategiyasi ijodkorligi va iyerarxiyasi jarayoni<sup>74</sup>

O'zbekistonda soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish bilan Moliya vazirligi, Soliq qo'mitasi, Bojxona qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi (*endilikda yagona jamlangan tarkibda Iqtisodiyot va moliya vazirligi shug'ullanadi*) va zarurat bo'yicha boshqa bir qator idoralarni jalb qilgan holda, ularning ko'rيلayotgan masalalar sohalari hamda kiritilayotgan taklif va tashabbuslar asosida ijro etuvchi hokimiyatning iqtisodiy bloki shug'ullanadi. Soliq siyosati strategiyasini qonun hujjati loyihasi shaklida qonuniylashtirish tartibi O'zbekiston

<sup>74</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

Respublikasi Adliya vazirining 2012-yil 9-apreldagi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2352) bilan belgilangan uslubiyotga muvofiq amalga oshiriladi.

#### **2.4-jadval**

#### **2017-2022-yillarda O‘zbekiston qonunchiliginin takomillashtirish ko‘rsatkichlari<sup>75</sup>**


Yillar	O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari	Prezident Farmonlari	Prezident qarorlari	Vazirlar Mahkamasi qarorlari	Jami
<b>JAMI</b>	<b>115</b>	<b>240</b>	<b>519</b>	<b>845</b>	<b>1719</b>
<b>2017</b>	6	38	107	83	234
<b>2018</b>	10	40	97	125	272
<b>2019</b>	24	43	76	140	283
<b>2020</b>	21	39	59	164	283
<b>2021</b>	33	42	95	166	336
<b>2022</b>	21	38	85	167	311

Soliq islohotlari doirasida soliq me’yorlarining huquqiy asosini yaratish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo‘llab-quvvatlash, yashirin iqtisodiyotni jilovlash orqali ularga teng raqobat sharoitini yaratish, investitsiya jozibadorligini oshirish va soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatishni yangi bosqichga chiqarishga qaratilgan soliqqa oid temalar bog‘liq 2017-2022-yilning 1-dekabr holatiga 121 ta Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 240 ta Farmon va 519 ta qarorlari va Vazirlar Mahkamasining 845 ta qarorlar qabul qilindi.

Agar 1991-yildan 2022-yilgacha mustaqillik davrida soliq sohasida jami 2604 ta qonun, qaror, farmon va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan 2017-2022-yillarda keng ko‘lamli islohotlar boshlanganidan buyon 1 719 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilingan bo‘lsa, bu esa O‘zbekiston yangi tarixi butun davrining 66%ni tashkil etadi. (2.2-ilovaga qarang).

<sup>75</sup> O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy bazasi asosida muallif tomonidan tuzilgan.

### 2017-2022-yillarda soliq sohasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar soni



**2.14-rasm. 2017-2022-yillarda soliq sohasiga oid qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar soni<sup>76</sup>**

Ayni paytda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-soni Farmoni bilan 2023-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekistonda hukumatga hisobot beradigan mustaqil ijro etuvchi hokimiyat organlari soni 61 tadan 28 tagacha qisqartirildi. Shu bilan birga, vazirliklar soni 25 dan 21 gacha kamaydi va 12 ta idora butunlay tugatildi. Natijada, rivojlanayotgan landshaft ijro etuvchi hokimiyat organlarining o'zaro ta'sirida o'zaro nazorat va muvozanatning yangi tizimini vujudga keltirmoqda. Bu soliq siyosati strategiyasini amalga oshirish samaradorligini oshirishi mumkin bo'lsada, u muayyan muammolarni ham keltirib chiqaradi. Biroq, bu qiyinchiliklarning natijalari yuqori darajadagi shaffoflik va inklyuzivlikni o'rnatish bilan yakunlanishi kutilmoqda. Bunga erishish ushbu jarayonlarga barcha manfaatdor tomonlarni jalg qiladigan mustahkam qayta aloqa mexanizmini yaratishga bog'liq bo'ladi. Shuni ta'kidlash

<sup>76</sup> O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy bazasi asosida muallif tomonidan tuzilgan.

kerakki, kelajakda soliq sohasidagi huquqiy hujjatlar sonining ko‘payishi dinamikasini saqlab qolish soliq tizimining barqarorligini ta’minlashda ma’lum to‘siq bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Shunday qilib, hozirgi kunga qadar soliq sohasida qabul qilingan ko‘plab NHH (normativ huquqiy hujjatlar) soliq sohalarini sezilarli darajada rivojlantirishga imkon berdi va shu bilan uning samaradorligini oshirish uchun asos bo‘ldi. Boshqa tomondan, qonun hujjatlari sonining sezilarli darajada o‘sishi munosabati bilan soliq sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni to‘liq inventarizatsiya qilish asosida birlashtirish amaliyotini joriy etishning obyektiv zarurati paydo bo‘ldi.

Biroq, “Mannheim universiteti tomonidan o‘tkazilgan German Internet Panel so‘rovi natijalariga ko‘ra, oddiy soliq to‘lovchilar, asosan, mavjud soliq tizimini soddalashtirishni qo‘llab-quvvatlaydilar, murakkab soliq tizimining ijobiy tomonlarini bilib, bunday soddalashtirishni qo‘llab-quvvatlash darajasini pasaytiradilar. Bu shuni ko‘rsatadiki, bilvosita odamlar soliq tizimining ma’lum bir murakkabligiga, agar u tabaqlashtirilgan yondashuvni nazarda tutsa va fuqarolarning turli xil hayotiy sharoitlarini hisobga olsa, qarshi emaslar”<sup>77</sup>.

Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, soliq tizimini soddalashtirish uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi ko‘pincha bunday soddalashtirishning mumkin bo‘lgan oqibatlarini tushunmaslikdan kelib chiqadi. Soliq to‘lovchilarning bunday xabardorligi yo‘qligi ba’zan hukumatlarni populistik va natijada samarasiz soliq islohotlarini amalga oshirishga olib kelishi mumkin. Shu bois, ushbu masalalar bo‘yicha chuqur munozaralar olib borish, siyosiy, ijtimoiy va akademik muloqotlar orqali soliq savodxonligini oshirish juda muhimdir. Ushbu proaktiv yondashuv soliq qonunchiligi bilan bog‘liq muammolarni kamaytirishga yordam beradi.

---

<sup>77</sup> Рябова И. Непростая справедливость. Электронный ресурс. <https://econs.online/articles/coffee-break/neprostaya-spravedlivost/> (дата обращения 13.04.2023).

## O‘zbekiston Respublikasi soliq sohasidagi malga oshirilgan islohotlarining erishilgan real natijalarining asosiy yo‘nalishlari

- I. Soliq yuki pasaytirilishi
- II. Soliq organlarini xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotga aylantirish
- III. Soliq ma’murchiligi isloh qilinishi
- IV. Sohaga IT texnologiyalar joriy etilishi
- V. O‘zini-o‘zi band qilish institutini joriy qilinishi
- VI. Soliq sohasida “Jamoatchilik nazorati” instituti

### **2.15-rasm. Soliq sohasini tubdan isloh qilish yo‘nalishlari<sup>78</sup>**

O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatining strategiyasini amalga oshirilishi natijasida bir qator ijobjiy natijalarga erishilishiga asos bo‘ldi. Respublikada adolatli, shaffof, uzoqqa mo‘ljallangan va xalqaro andozalarga javob bera oladigan soliq tizimini yaratishga qaratilgan soliq islohotlari iqtisodiy, huquqiy jihatdan har tomonlama asoslangan hamda soliq to‘lovchilar uchun qulay va manfaatli ekanligini ko‘rsatmoqda. Birinchi navbatda, tadbirkorlik subyektlari va investorlar faoliyatini soliq sohasida kafolatlashning huquqiy asosi yaratilib, yangi Soliq konsepsiysi, Soliq kodeksi va 150 dan ortiq qonun, Farmon, qaror va boshqa me’yoriy hujjatlar qabul qilindi. Teng raqobat sharoitini yaratish maqsadida 80 dan ortiq turli soliq imtiyozlari bekor qilindi. Individual imtiyozlar berish amaliyotidan voz kechildi. Soliq yukini keskin pasaytirish maqsadida Soliq turlari 13 tadan 9 taga kamaytirildi.

<sup>78</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

Tovar aylanmasidan 3,2 foiz miqdorda olinadigan ajratmalar, Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i (8 foiz) bekor qilindi, mulk solig‘i stavkasi 5 foizdan 1,5 foizga pasaytirildi, QQS stavkasi 20 foizdan 12 foizga tushirildi.

Yagona ijtimoiy to‘lov stavkalari 25 foizdan 12 foizga tushirilishi, fuqarolarning Pensiya jamg‘armasiga majburiy sug‘urta badallari (8 foiz) bekor qilinishi hamda daromad solig‘ini hisoblashning oshib boruvchi shkalasidan (*eng yuqori stavkasi - 22,5 foiz*) voz kechilib, qat’iy 12 foizga tushirilishi natijasida ish haqiga soliq yuki qariyb 2 baravar pasaydi. (Misol uchun: Yevropa davlatlari Shvetsiyada daromad solig‘i stavkasi – 56,9%, Angliyada 20-45%, Daniyada – 55,6%, Ispaniyada 45%, QQS stavkasi Daniya, Norvegiya, Shvetsiyada – 25 %, Finlyandiyada – 24%, Vengriyada – 27 %, Rossiya, Belarus va Ukrainada – 20 %). 2022-yilda ham soliq yukini pasaytirish izchil davom ettirilib, amortizatsiya foizlari va investitsiyaviy chegirmalari miqdori 2 baravarga oshirildi, uyali aloqa kompaniyalariga aksiz solig‘i stavkasi 15 foizdan 10 foizgacha, polietilen granulalari aksiz solig‘i 20 foizdan 10 foizgacha pasaytirildi, ayrim hududlarga maxsus soliq rejimi joriy etilib, xususan aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 1 foiz qilib belgilandi. Natijada, 2022-yildan ayrim stavkalarning pasaytirilishi natijasida tadbirkorlik subyektlari ixtiyoroda dastlabki tahlillar natijasi bilan 4,5 trln so‘m mablag‘ qoldi.

Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan soliq idoralari oldiga qo‘yan yangi vazifa – “Soliq idorasi – tadbirkorga ko‘makchi” tizimini qo‘llash tadbirkorlarga amaliy yordam ko‘rsatishdagi eng muhim ishlardan bo‘ldi. Shuningdek soliq organlarini xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotga aylantirildi. “Soliqchi – tadbirkorga ko‘makchi” tamoyili asosida ishlarning tashkil etilishi natijasida birgina 2022-yilda: soliq hisobotlarini avtomatlashtirish orqali soliq hisobotlarini ixtiyoriy taqdim etish ko‘rsatkichi 99 foizga yetdi, kadastr agentligi ma’lumotlari jamlanganligi hamda “Ye-imtiyoz” dasturi orqali respublika bo‘yicha 66,5 mingta noqishloq yer solig‘i to‘lovchilari hamda 61,9 mingta mol-mulk solig‘i to‘lovchilarining, aylanmadan olinadigan soliq hisoboti respublika bo‘yicha

359,4 mingta to‘lovchiga 100 foiz to‘liq avtomatlashtirilgan bo‘lsa, elektron hisobvaraq-faktura, onlayn nazorat kassa texnikasi, “marketpleys” tizimi ma’lumotlari hamda Bojxona qo‘mitasi bilan real vaqt rejimida ma’lumot almashishni joriy etish orqali QQS hisoboti 173,9 mingta to‘lovchiga (86 foiz) avtomatlashtirildi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha vujudga kelgan manfiy farq summalarining belgilangan tartibda qaytarib berilishi natijasida, 2022-yilda soliq to‘lovchilarga 20,1 trln so‘m qoplab berildi yoki 2021-yilga nisbatan qariyb 7,6 trln.so‘mga ko‘p mablag‘ qaytarildi. Bo‘s sh turgan binolar, foydalanimayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo‘ljallanmagan inshootlar, shuningdek, tugallanmagan qurilish obyektlariga hamda ushbu obyektlar bilan band bo‘lgan yer uchastkalariga nisbatan mol-mulk va yer soliqlarining oshirilgan stavkalarini qo‘llash bekor qilinib, 18,5 mingta obyekt mulkdorlariga 1,7 trln so‘m soliqlarni hisoblanishi to‘xtatildi hamda 20,5 mingta obyekt mulkdorlarga nisbatan ta’sirchan soliq mexanizmi qo‘llanilishi natijasidan hosil bo‘lgan 1,8 trln so‘mlik soliq qarzi hisobdan chiqarildi.

Xorijiy valyutadagi tushumni kechiktirish holati uchun qo‘llaniladigan moliyaviy jarima miqdori 2 baravarga kamaytirildi. 2022-yil davomida 2 507 ta xo‘jalik subyektlariga moliyaviy jarima miqdori 2 baravarga kamaytirilishi natijasida 752,9 mlrd so‘m miqdoridagi summa xo‘jalik subyektlari ixtiyorida qoldi. Debitor va kreditor qarzdorliklar muddatini o‘tkazib yuborganlik uchun ma’muriy jarima qo‘llash bekor qilindi. Buxgalteriya hisobi subyektlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni soliq va statistika organlariga har chorakda taqdim etish talabi bekor qilindi. Eksport qilishdan olingan daromadlar hajmining ulushidan qat’iy nazar, eksport qilingan tovarlar (xizmatlar) qismiga nisbatan foya solig‘i va aylanmadan olinadigan soliq solinmasligi belgilandi.

Kichik va o‘rta biznes toifasiga kiruvchi tadbirdorlar uchun soliq to‘lovlarini 6 oyga foizsiz bo‘lib-bo‘lib to‘lash huquqi berildi.

Bundan tashqari,“Soliq” mobil ilovasi bilan soliq to‘lovlarini to‘lashda jismoniy shaxslarga oson va qulay to‘lash tizimi ishlab chiqildi. Bugungi kunda

takomillashtirish ishlari davom ettirilmoqda. 2022-yilda (*1-avgustidan 31-dekabr kuniga qadar*) 59 995 ta soliq to‘lovchilar tomonidan 10,8 mlrd so‘m soliq to‘lovlari “Soliq” mobil ilovasi orqali amalga oshirildi. Natijada soliq to‘lovchilarga majburiyatlari bo‘yicha ya’ni ortiqcha to‘lovga yo‘l qo‘ymasdan, xato to‘lanishini oldini olish hamda bir vaqtning o‘zida bitta jarayon (*operatsiya*) orqali barcha obyektlari bo‘yicha majburiyatlarini bajarish imkoniyati hamda ularning shaxsiy hisobvarag‘iga bir daqiqa ichida hisobga olish tizimi yaratildi.

Televideniye va radio orqali 9,5 mingta, ijtimoiy tarmoqlar orqali berilgan axborotlar 35,7 mingtani tashkil etdi. Call markazi tomonidan 878,7 mingta qo‘ng‘iroqlar orqali tadbirkorlarga majburiyatlarini bajarishga ko‘maklashildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 26-iyundagi PQ-3802-son qaroriga muvofiq soliq xizmati organlarida 2019-yildan boshlab Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasini tashkil etilib, xizmat ko‘rsatishning markazlashgan tizimi sohalar bo‘yicha belgilandi va bugungi kunda 962 ta soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatmoqda. Inspeksiyaning tashkil etilishi bilan soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish, soliq ma’murchiligining sifati oshishi natijasida budgetga tushadigan mablag‘lar miqdori 2022-yil yakuni bilan 88,3 trln so‘mni tashkil etib, 2019-yilga nisbatan qarib 2,5 barobarga ko‘p tushum ta’minlandi. Shuningdek, qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilarga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish maqsadida soliq ma’murchilagini markazlashgan holda hududiy soliq boshqarmalari tomonidan amalga oshirilishi joriy etildi (5 yil davomida QQS to‘lovchilar soni 6,7 mingtadan 173,9 mingtaga yoki 26 barobarga, tushum 13,8 trln so‘mdan 32,8 trln. so‘mga yoki 2,4 barobarga oshgan).

Soliq to‘lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarishda ko‘maklashish maqsadida “Soliq-servis” davlat unitar korxonasi tashkil etildi. Soliq to‘lovchilar faoliyati yuzasidan tashkil etiladigan tekshirishlar soni 13 tadan 3 taga qisqartirildi hamda xalqaro amaliyotning muvaffaqiyatli tamoyillarini nazarda tutuvchi soliq tekshiruvini o‘tkazish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma tasdiqlandi. Soliq xavflarini

inson omilisiz tahlil qilish tizimi ishlab chiqildi va joriy etildi, bu soliq tavakkalchilagini baholash va ularni keyinchalik xavf segmentlariga taqsimlashning vijdonli mezonlari va xizmat ko'rsatish siyosatini tanlash asosida soliq to'lovchilarni aniqlash imkonini beradi.

Tekshiruvdan oldingi tahlil - 400 ta mezon asosida "Avtokameral" tizimi joriy qilinib, soliq to'lovchilarga mezonlar oshkora ko'rinishining yo'lga qo'yilishi, soliq to'lovchilarga xato-kamchiliklarini mustaqil bartaraf qilish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi va ularda soliq tekshiruvlarini o'tkazilishining oldi olindi. Bu imkoniyatdan 49 723 ta soliq to'lovchilar samarali foydalanib, jami 2,3 trln so'm qo'shimcha hisoblab tuzatilgan qayta hisobotlarini taqdim qildilar. Natijada ushbu tadbirkorlik subyektlarida hech qanday soliq tekshiruvlari o'tkazilmadi hamda ularga nisbatan 1,1 trln so'm moliyaviy jarima qo'llanilishi oldi olindi.

Soliq islohotlarini amalga oshirilishi pirovardida: faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik subyektlari soni 541,5 mingtaga yetib, 2018-yilga nisbatan 105,4 mingtaga (24%) ko'paydi, qo'shilgan qiymat solig'ining jami tushumdag'i ulushi 2020-yilda 19,8 foizni, 2021-yilda 20 foizni va 2022-yilda 22,1 foizni tashkil etdi, shuningdek, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha tushumlar 2018-yilga nisbatan 11,0 trln so'mga yoki 1,8 barobarga, o'tgan yilga nisbatan 5,4 trln so'mga ko'payib, 24,3 trln so'mni tashkil etdi. Ma'lumot uchun qayd etish joizki, 2022-yil yakunlariga ko'ra, aholini rasmiy ravishda ro'yxatdan o'tib qonuniy ishlaydigan qismi 5,1 mln kishini tashkil etib, 2018-yilga nisbatan 1,2 ming kishiga (*31 foizga*) oshdi.

Soliq organlarida axborot-texnologiyalari sohasida ham sezilarli darajada ijobjiy o'zgarishlarga erishildi. Oxirgi yillarda 41 ta avtomatlashirilgan axborot tizimlari joriy etilib, interaktiv soliq xizmatlari soni 30 tadan 50 taga yetdi.

Yashirin iqtisodiyotni jilovlash hisobiga soliq bazasini kengaytirish maqsadida, zamonaviy soliq ma'murchilining yangi instrumentlari - Elektron hisobvaraq-fakturalari, onlayn nazorat kassa mashinalaridan foydalanish, tovarlarni markirovkalash, elektron shartnama tizimlari joriy etildi. EHF va

elektron shartnomalar yo‘nalishida 2022-yilda rasmiylashtirilgan elektron hisobvaraq-fakturalar soni 38,1 mln tani tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 4,4 mln ta ko‘paydi. Ularda aks ettirilgan tovar aylanmasi 1 402,7 trln so‘m bo‘lib, o‘tgan yilga nisbatan 252,6 trln so‘mga (22 %) ortgan bo‘lsa, QQS summasi 134,2 trln so‘mni yoki o‘tgan yilga nisbatan 21,0 trln so‘mga (19 %) oshgan. Rasmiylashtirilgan elektron ishonchnomalar soni 2022-yilda 4,5 mln tani tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 805 376 taga (22 %) oshdi. Elektron shartnomalar o‘tgan yilga nisbatan 1,1 mln taga yoki 5 baravarga oshib, 1,4 mln taga yetdi.

Onlayn-NKT yo‘nalishda onlayn nazorat kassa mashinalaridan foydalanuvchilar soni 145 332 taga yetib, o‘tgan yilga nisbatan 24 983 taga (21%) ortdi. Ular foydalanayotgan ONKT soni 246 267 tani tashkil etib, o‘tgan davrga nisbatan 19 974 taga (9%) ko‘paygan bo‘lsa, ularda aks ettirilgan cheklar soni 720,8 mln taga yetib, o‘tgan yilga nisbatan 336,8 mln taga (88%) oshdi. E-Imtiyoz yunalishida 2022-yil davomida 130,6 mingta xo‘jalik subyektlari 72,9 trln so‘mlik soliq imtiyozlaridan foydalanib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 60 foizga o‘sgan.E-ijara yo‘nalishida 2022-yilda “E-ijara” interaktiv xizmatida ijaraga beruvchilar soni 186 219 tani, ro‘yxatga olingan shartnomalar soni 325 513 tani tashkil etdi. Ushbu shartnomalarning umumiyligi summasi 8,5 trln so‘mni, shartnomalar nisbatan hisoblangan soliq summasi 486,1 mlrd so‘mni, shu jumladan daromad solig‘i 240 mlrd so‘mni tashkil etdi. Turar joy egalari bilan talabalar o‘rtasida 44 268 ta ijara shartnomasi tuzilib, ijaraga beruvchilarga 12,7 mlrd so‘mlik soliq imtiyozlari berildi.

Mahsulotlarni raqamli markirovkalash tizimidan foydalanuvchilar soni 2022-yilda 51 377 tani tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 40 264 taga yoki 4,6 baravarga ortdi. Ular tomonidan markirovkalangan tovarlar miqdori 2,0 mln tani tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 1,1 mln ta ko‘p yoki 2,2 baravarga ortdi. 2022-yil yakuni bilan mahsulot va xizmatlarning yagona milliy elektron

katalogiga kiritilgan tovar va xizmatlar soni 255 683 taga yetib, o‘tgan yilga nisbatan 185 519 taga yoki 3,6 baravarga ortdi.

my.soliq.uz saytidagi interaktiv xizmatlar bo‘yicha 2022-yilda foydalanuvchilar soni 1,4 mln tani tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 267 584 taga (23%) ko‘paydi. “SOLIQ” mobil ilovasidan foydalanuvchilar soni 1,8 mln taga yetib, shundan shaxsi verifikatsiyadan o‘tgan foydalanuvchilar soni 835 300 tani tashkil etdi.


O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4742-son qaroriga muvofiq 67 turdagি faoliyat bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarga o‘zini-o‘zi band qilgan fuqaro sifatida ro‘yxatdan o‘tib, faoliyat yuritish imkoniyati yaratildi (bugungi kunda o‘zini-o‘zi band qilish faoliyat turlari 102 tani tashkil etadi). Bunda, o‘zini-o‘zi band qilgan shaxs o‘z faoliyati bo‘yicha olgan daromadlari soliqqa tortilmasligi belgilanib, ixtiyoriy ravishda BHM 0,5 baravarini to‘lagan holda mehnat staji hisobi yuritilishi joriy etildi. Mamlakatda keng ko‘lamli islohotlar boshlanishi va yangi O‘zbekiston qurilishi bilan o‘sha paytda amalda bo‘lgan Soliq kodeksi yangi talablarga javob bermasligi va yangilanishi kerakligi aniq bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-599-son qonuni bilan qabul qilingan Soliq kodeksining yangi tahriri respublika hududida amalda bo‘lgan soliqqa tortish masalalarini tartibga soluvchi barcha amaldagi norma va qoidalarni takomillashtirish va tizimlashtirish orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi hujjat sifatida ishlab chiqilgan bo‘lib, soliq munosabatlari tizimida yagona qonunchilik bazasini yaratishga imkon berdi. Ushbu chora soliq qonunchiligi sohasidagi qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar sonini sezilarli darajada kamaytirdi.

Yangi tahrirdagi Soliq kodeksining asosiy maqsadi makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, davlat budgeti mustahkamligini ta’minlash va budget daromadlarini shakllantirishga ko‘maklashishdan iborat. Bunga soliq

qonunchiligini tartibga solish, soliqqa tortishni tartibga soluvchi qonunchilik doirasidagi nomuvofiqlik va nizolarni bartaraf etish, qonunga bo‘ysunuvchi soliq to‘lovchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish orqali erishiladi. Soliq kodeksini qayta ko‘rib chiqish jarayonida soliqlarni, xususan, bir xil soliq solish bazalariga ega bo‘lgan soliqlarni birlashtirish, soliq hisobotlarini taqdim etish tartiblarini soddalashtirish va soddalashtirish, operatsion xarajatlarni cheklashni nazarda tutuvchi sezilarli optimallashtirish amalga oshirildi. Umuman olganda, Soliq kodeksining yangi tahriri amalda tasdiqlangan soliqlarni yig‘ish tamoyillari va yondashuvlariga, boshqa mamlakatlarning ilg‘or tajribalariga asoslangan. Xususan, XVF va JB kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar ko‘magida MDH mamlakatlari va Yevropa Ittifoqi tajribasidan foydalanilgan. Soliq kodeksining yangi tahrirda qabul qilinishi O‘zbekiston soliq tizimini xalqaro standartlarga yanada yaqinlashtirishga, qonunga bo‘ysunuvchi soliq to‘lovchilar huquqlarini yuqori darajada himoya qilishni ta’minlab, uni milliy va xorijiy investorlar uchun osonroq va tushunarli qilishga imkon berdi.

Aksariyat mamlakatlarda soliq tizimlarini shakllantirish jarayoni uzoq vaqt davomida iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sharoitlar ta’siri ostida yuzaga kelgan bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga bog‘liq. (xorijiy mamlakatlarda soliq qonunchiligini shakllantirish jarayoni to‘g‘risidagi ma’lumot -3-ilovaga qarang). Shuning uchun turli mamlakatlarda amalga oshirish mexanizmlari bir-biridan sezilarli darajada farq qilishi tabiiydir. Shu bilan birga, A.Smit “o‘zining “Xalqlar boyligining tabiatini va sabablari to‘g‘risidagi tadqiqot” asarida shakllantirgan umumiyl tamoyillar, jumladan ular orasida soliq tizimining betarafligi, adolat, tizimning soddaligi tamoyillari barcha mamlakatlar uchun xosdir. Soliq tizimiga ta’sir ko‘rsatadigan soliq siyosati mamlakat qonunchiligiga ilgari surilgan norma va qoidalarni amalga oshirishning tartibga solinadigan tartib-taomillaridan o‘tadi. Biroq, mamlakatlarda qonunchilik tashabbuslarini ilgari surishning yondashuvlari va shakllari o‘rtasidagi farqqa qaramay, ularning barchasi ma’lum darajada

umumbelgilangan tartib-taomillarni amalga oshirish bosqichlari ketma-ketligi mavjudligi bilan uyg‘undir”<sup>79</sup> (2.12-rasmga qarang).




Xorijiy amaliyotda qonun ijodkorligi jarayonlarini ko'rib chiqish ularni amalga oshirish yondashuvlari va usullarida bir qator o'ziga xos xususiyatlarni aniqlashga imkon berdi. AQSHda soliq sohasida qonun ijodkorligi jarayoni yetarlicha murakkab va yopiq. Unda Prezident, g'aznachilik kotibi, Kongress komissiyasi a'zolari, Senatning moliya qo'mitasi a'zolari ishtirok etadilar, ular mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy guruhlari bilan o'zaro

<sup>79</sup> Законодательный процесс в зарубежных странах: учеб. пособие / Ю.И. Лейбо [и др.]; под ред. Ю.И. Лейбо. Моск. гос. Ин-т междунар. отношений (ун-т) МИД России, каф. конст.права. — М.: МГИМО-Университет, 2012. Стр. 3-16.

<sup>80</sup> Muallif ishlanmasi.

munosabatlarning turli shakllarini (nafaqat rasmiy) amalga oshiradilar (2.13-rasmga qarang).




**2.17-rasm. AQS HD soliq sohasida qonun ijodkorligi jarayoni<sup>81</sup>**

Xitoy soliq sohasida qonun ijodkorligini shakllantirish mexanizmining xususiyatlari davlat tizimining shakli va kommunistik partiyaning mamlakat hayotidagi o'rni bilan belgilanadi. Germaniya soliq tizimi butun dunyoda eng chalkash va murakkab deb tan olingan. Maxsus "ziravorlar" unga juda ko'p miqdordagi qo'shimcha shartlar, tuzatishlar, istisnolar va maxsus ko'rsatmalar beradi<sup>82</sup>.

<sup>81</sup> Muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar asosida tuzilgan.

<sup>82</sup> Орлова А.А. Принципиальные особенности налоговой системы Федеративной республики Германия. НАЛОГИ и ФИНАНСЫ № 4/2012. С. 32 – 37.




2.18-rasm. Germaniyada qonunchilik jarayoni bosqichlari<sup>83</sup>.

Germaniya soliq solish tizimi amaldagi Konstitutsiyaga asoslanadi. Soliqlarning aksariyati alohida yerlar va federal hukumat o'rtaсидаги kelishuvlar asosida undiriladi. Ayrim soliqlar federal darajada (bojxona soliqlari), boshqalari (aksiz solig'i) kichikroq ma'muriy birliklar tomonidan undiriladi. Asosiy qonun bilan tartibga solinadigan qonunchilik jarayoni, shu jumladan soliq sohasi masalalari 5- bosqichdan iborat.

Rossiya Federatsiyasida qonunchilikni qabul qilish jarayoni odatda vakolatli davlat organi tomonidan parlamentga kiritiladigan qonunchilik taklifi bilan boshlanadi. Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasiga ko'ra, qonun tashabbuskorligi imtiyozi turli subyektlarga, shu jumladan Prezident, Federatsiya Kengashi, deputatlar, hukumat, mamlakatdagi hududiy subyektlarning qonun chiqaruvchi

<sup>83</sup> Muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar asosida tuzilgan.

organlari, shuningdek, Konstitutsiyaviy sud kabi muassasalarga beriladi. Oliy sud va Oliy arbitraj sudi va boshqalar.



**2.19-rasm. Rossiya Federatsiyasida qonun ijodkorligi jarayoni<sup>84</sup>.**

Qozog'iston Respublikasida qonunchilik jarayoni besh bosqichdan iborat: (I) qonunchilik tashabbusi - qonun loyihasini parlamentga kiritish, (II) parlamentda muhokama qilish, (III) qonun loyihasini parlamentda qabul qilish hamda Senatga yuborish, (IV) qonun loyihasini Senatda ko'rib chiqish va qabul qilish, (V) Prezident tomonidan imzolash hamda e'lon qilish.

O'rganilgan xorijiy tajribalarni umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, soliq qonunchiligini qabul qilishda yuqoridagi har bir davlatning o'zining mustaqil shakllangan instituti mavjud holda, ahamiyatli bitta tomoni - kiritilayotgan yangilik hukumat va soliq to'lovchilar manfaati o'rtasidagi balansni saqlashi shart, ungacha qonun loyihasi uzoq va mashaqqatli yo'lni bosib o'tadi.

O'zbekistonda soliq strategiyasi va taktikalarini ishlab chiqish hamda mexanizmlarining tahlili bo'yicha amalga oshirgan ilmiy-nazariy hamda amaliy-

<sup>84</sup> Muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar asosida tuzilgan.

tahlillarga asoslanib shunday xulosa qilish mumkinki, respublikamizda bu boradagi oxirgi besh yilda belgilab olingen strategik maqsadlar ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan hamda xorijiy ekspertlarning ijobiy xulosalarini tanqidiy ko‘rib chiqqan holda amalga oshirilmoqdaki, bu o‘z navbatida soliq ma’murchiligi nuqtayi nazaridan ham davlat budgetining fiskal maqsadlari nuqtayi nazaridan ham ijobiy natijalarga erishishga imkon bermoqda. Shu bilan bir qatorda hali bu borada bir qator o‘z yechimini ilmiy jihatdan kutayotgan muammolar ham borki, ularning mazmuni hamda ularni hal etish bo‘yicha ilmiy mulohazalar va yondashuvlarimizni tadqiqot ishimizning keyingi bobida keltiramiz.

### **2.3. Soliq siyosati strategiyasi va uning taktik yo‘nalishlarining samaradorligini baholash**

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan beri nisbatan qisqa tarixiy davr mobaynida jiddiy sinovlardan o‘tdi, shakllanish va rivojlanishning bir qator bosqichlarini bosib o‘tdi, jamiyatning barcha sohalarida ko‘plab o‘zgarishlar va keng ko‘lamli o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi sharoitida soliq siyosati keskin o‘zgarishlarga duch keldi va shu bilan soliq tizimining o‘ziga ham, iqtisodiy jarayonlariga va umuman iqtisodiyotga ham katta ta’sir ko‘rsatdi.

O‘zbekiston soliq siyosatining evolyutsion rivojlanishining uch bosqichining retrospektiv tahlili eng og‘ir iqtisodiy sharoitda va amalda noldan boshlab soliq siyosati chora-tadbirlarini amalga oshirish mamlakatning to‘laqonli va adekvat soliq tizimini shakllantirish va rivojlantirishga sabab bo‘lganligini ko‘rsatadi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy vositalaridan biri bu soliq siyosati bo‘lib, u mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi har bir aniq davrda obyektiv ravishda paydo bo‘lgan voqelikni hisobga olgan holda soliq sohasini takomillashtirishga qaratilgan davlat hukumat organlari va turli ekspert jamoalarini o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning muvofiqlashtirilgan va o‘zaro

bog‘liq jarayoni natijasini o‘zida namoyon etadi. Shu munosabat bilan soliq siyosatining samaradorligini, shartlarini baholash hamda soliq munosabatlarining murakkab va qarama-qarshi xususiyati tufayli ilmiy jamoatchilikda yagona uslubiy yondashuvning yo‘qligi masalalari dolzarb bo‘lib bormoqda.

Davlat soliq siyosatining samaradorligi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va ularning soliq siyosati bilan o‘zaro ta’sirini tahlil qilishda maxsus ishlab chiqilgan matematik, mantiqiy va statistik vositalarga tayanadigan iqtisodiy-matematik usullarni qo‘llash orqali baholanadi. Maqsadga yo‘naltirilgan ushbu yondashuv soliq siyosati samaradorligini baholash mezoni sifatida belgilangan maqsadlar va amaldagi natijalar o‘rtasidagi tafovutlarni minimallashtirishga qaratilgan. Ushbu baholashda soliq siyosatining turli darajalardagi ta’siri, jumladan, makroiqtisodiy jarayonlar (makrodaraja), sohaga xos ta’sirlar (mezo-daraja), alohida xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun natijalar (mikrodaraja) va asosiy parametrlarga erishish hisobga olinadi. soliq tizimi doirasida (ixtisoslashtirilgan yondashuv). Ammo shuni ta’kidlash kerakki, bu baholashlar ba’zan maqsadlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin, chunki soliq siyosati bir nuqtayi nazardan samarali va boshqa nuqtayi nazardan samarasiz deb hisoblanishi mumkin.

Xorijiy tajribani o‘rganish natijalari, soliq siyosati samaradorligini baholash bo‘yicha **ko‘pkomponentli mualliflik yondashuvini shakllantirishga imkon berdi**, xususan:

- umuman iqtisodiyotga soliq yukining darajasi (alohida soliq to‘lovchilarning tarmoqlari va guruhlari bo‘yicha);
- davlat faoliyatini ta’minalash uchun davlat budgetining daromad qismida soliq tushumlari prognoz ko‘rsatkichlarini kafolatlangan holda ta’minalash;
- soliq risklarini kamaytirish;
- resurs yondashuvidan foydalanish hamda maqsadli yondashuv (olingan natjalarning rejulashtirilgan natjalarga nisbati) orqali amalga oshirilayotgan soliq siyosatining sifati, belgilangan maqsadlarga erishish;

- yig‘ilgan soliqlarni boshqarish va minimal soliq xarajatlari bilan soliq tushumlarini maksimal darajada oshirishni ta’minlash uchun xarajatlar darjasini (tranzaksiya xarajatlari - mehnat, vaqt va boshqalar);
- investitsion jozibadorlik va ishbilarmonlik faolligining o‘zgarishi (shu jumladan iqtisodiyotda iste’mol va jamg‘arish jarayonlariga ta’siri);
- innovatsiyalarni joriy etish jarayonlarini rag‘batlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, ITTKI, "yashil iqtisodiyot" va boshqalar;
- jamiyatda ijtimoiy tabaqalanishni tartibga solishning samarali mexanizmlarining mavjudligi va aholi farovonligining o‘sishi sifati (shaxsiy daromad, yashash minimumining yetarliligi, shaxsiy daromadlarga soliq solishning adolatliligi va boshqalar.);

Ilmiy-uslubiy va amaliy yondashuvlarni umumlashtirish mantiqiy mazmunining xususiyatlari asosida samaradorlik ko‘rsatkichlarini muallif tomonidan guruhlashni shakllantirishga imkon berdi (2.5-jadvalga qarang).

### 2.5-jadval.

#### Soliq siyosati samaradorligini baholashning asosiy tarkibiy qismlari<sup>85</sup>


Nomi	Ko‘rsatkichning tavsifi
<b>Fiskal tarkibiy qismi</b>	<p>Soliqlarning umumiyligi miqdorining YAIM (YAHM)dagi ulushi - <b>soliq yuki darajasidir</b>.</p> <p>Soliq tushumlarining o‘sishi, bevosita va bilvosita soliqlar nisbati.</p> <p>Soliq yig‘ish darjasasi.</p> <p>Soliq qarzi.</p> <p>Soliqlarning elastiklik koeffitsiyenti.</p> <p>Soliqlarni hisoblash va to‘lashning qulayligi darjasasi (<i>soliq xizmatlari, AKT, biznes jarayonlarini avtomatlashtirish</i>).</p> <p>Majburiyatlarni ixtiyoriy ravishda bajarish (<i>soliq madaniyati</i>) darjasasi.</p> <p>Soliq to‘lovchilarga davlat subsidiyalarini berish darjasasi (imtiyozlar va preferensiyalar).</p> <p>Tadbirkorlik subyektlarining omon qolish darjasasi.</p>
<b>Ijtimoiy-iqtisodiy tarkibiy qism</b>	<p>Makroiqtisodiy va ijtimoiy parametrlar dinamikasi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- investitsiyalar va kapital qo‘ymalar hajmi;</li> <li>- YaIMga nisbatan budjet taqchilligi darjasasi;</li> <li>- inflyatsiya darjasasi;</li> <li>- ishsizlik darjasasi;</li> <li>- ishbilarmonlik va tadbirkorlik faoliyatini oshirish;</li> <li>- aholi farovonligi va daromadlarining o‘sishi (shu jumladan barcha soliqlar to‘langanidan keyin) va boshqalar.</li> </ul>

<sup>85</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Bu yerda shuni alohida ta'kidlashimiz lozimki, har qaysi mamlakatning soliq siyosatining samaradorligini baholash, bir tomonidan, xalqaro miqyosida tasdiqlangan yoki tavsiya etilgan ko'rsatkichlar (mezonlar)ga asoslansa, o'z navbatida milliy iqtisodiyotning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda xususiy ko'rsatkichlar (mezonlar)ga asoslanib baholanadi. Biz quyida respublikamiz soliq siyosatining strategiyasida belgilab olingan taktik yo'naliishlar samaradorligini baholash uslubiyoti va unga asoslangan holda baholashni amalga oshiramiz, bunda o'zimizning ayrim mualliflik uslubiy yondashuvlarimizni ham keltirib o'tamiz.

*Bunday ko'rsatkichlardan biri bu “Soliqlar umumiy miqdorining YAIM (YAHM)dagi ulushi - soliq yuki darajasi”dir.*

Mustaqillikdan beri soliq siyosati chora-tadbirlarini amalga oshirish jarayonida davlat budgetiga to'lovlarning haqiqiy tushumlari bo'yicha YAIMga soliq yuki ko'rsatkichlarining dinamikasi soliq stavkalarini uslubiy pasaytirish, bir qator soliqlarni bekor qilish, imtiyozlarni berish, maxsus soliqni joriy etish va soliq ma'muriyatining biznes jarayonlarini takomillashtirish hisobiga 3 baravar, ya'ni 70,5% dan 23,4% gacha kamaydi.



**2.20-rasm. 1993-2022-yillarda soliq yukining pasayishi va YAIM o'sishi dinamikasi<sup>86</sup>**


<sup>86</sup> Moliya vazirligi va Xalqaro valyuta fondi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Soliq yukini kamaytirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarning amalga oshirilishi YAIMning 11,6 barobarga 6,9 mlrd.doll.dan 79,8 mlrd.doll.gacha o‘sishiga hamda ushbu ko‘rsatkichning sifat jihatidan yaxshilanishiga xizmat qildi. XVF ma’lumotlariga ko‘ra, 1992-2021-yillarda O‘zbekiston nominal YAIM qiymati 4,7 barobar oshgan, bu asosiy 16 ta hamkor davlatning xuddi shu ko‘rsatkichiga nisbatan 12-o‘ringa to‘g‘ri keladi. Shunday qilib, ushbu ko‘rsatkichning o‘sishi bo‘yicha Xitoy birinchi o‘rinda – 42,3 barobar, Ozarbayjon – 9,9 barobar va Qozog‘iston – 8,6 barobar (1-ilovaga qarang).

Shu bilan birga, davlat budgetining soliq tushumlari 1991-yilda 18,2 mlrd.so‘mdan 2022-yil oxiriga kelib kutilgan 209 030,1 mlrd.so‘mgacha oshdi.

*Keyingi muhim ko‘rsatkichlardan biri bu – “Soliq tushumlarining o‘sishi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita soliqlarning nisbati” ko‘rsatkichidir.*

Soliq siyosatining vositalaridan biri bo‘lgan budgetning soliq tushumlari tarkibi ikkilamchi multiplikativ ta’sirlarning namoyon bo‘lish lagni hisobga olgan holda makroiqtisodiy talabni tartibga solish uchun o‘rnatilgan stabilizatorlardan foydalanishga asoslangan. O‘zbekiston budgeti daromadlari tarkibida 2022-yilga kelib to‘g‘ridan-to‘g‘ri soliqlarning ulushi qariyb 30,8 foizni, bilvosita soliqlar – 35,2 foizni, resurs soliqlari – 11,5 foizni va boshqa soliqlar – 22,4 foizni tashkil etdi.



## **2.21-rasm. 1993-2022-yillarda soliq daromadlari tarkibi dinamikasi<sup>87</sup>.**

Soliqlarning ulushini tuzatish davlatga tovarlar (ishlar, xizmatlar) iste'molchilarining daromadlari yoki xarajatlari o'sishini rag'batlantirish, ya'ni bilvosita soliqlarning hissalarini tufayli makroiqtisodiy talab va inflyatsiya sur'atlarini tartibga solish imkonini beradi. Shunday qilib, ba'zi yillarda, to'g'ridan-to'g'ri soliqlar ulushi 1995-yilda 38,6%dan 2018-yilda 19,5% gacha, bilvosita soliqlar - 1991-yilda 33,5%dan 2003-yilda 57,8% gacha, resurs soliqlari - 1992-yilda 0,6%dan 2006-yilda 17,4 % gacha tebranib turgan.

*“Soliqlarni yig‘ish darajasi” ko‘rsatkichi.*

Soliq daromadlarini safarbar qilish va soliq ma'muriyatichiligi sifatini oshirish soliq siyosatining ustuvor yo'naliшlaridan biri bo'lib, davlat soliq xizmatining ustuvor yo'naliшlaridan biridir. Beqarorlik davrida bu masalaning dolzarbligi yanada oshadi. Ilmiy hamjamiyatda umume'tirof etilgan soliq yig‘ish darajasini baholashning umumlashtirilgan yondashuvi soliq ma'muriyati samaradorligining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi, chunki u bir xil soliq bazasidan budgetga soliq to'lovlarini olib qo'yishning haqiqiy va potensial darajasi o'rtaсидagi farqni ko'rsatadi. Hisobot moliya yili uchun soliq qarzi (kamomadi) o'sishini hisobga olish asosida soliq yig‘ish darajasini hisoblash quyidagi metodika bo'yicha amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

$$U_{sn} = S_{fnp} / (S_{fnp} + P_{nz} + P_{pn}), \text{bu yerda:}$$

*S<sub>fnp</sub> – haqiqiy soliq tushumlari miqdori, mlrd.so 'm;*

*P<sub>nz</sub> – soliq qarzi (kamomadi) oshishi, mlrd.so 'm;*

*P<sub>pn</sub> – soliqlarning ortiqcha miqdorining oshishi, mlrd.so 'm.*

Hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda soliqlarning yig‘ilish darajasi ancha yuqori darajada saqlanib qolmoqda, uning o'rtacha qiymati 2016-

---

<sup>87</sup> Moliya vazirligi va Xalqaro valyuta fondi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2022-yillarda 99,8% ni tashkil etadi va 2017-yilda minimal qiymat 90,8 %dan 2022 yilda maksimal 101,7% gacha tebranib turgan.

**2.6-jadval.**  
**2016-2022-yillarda soliqlarning yig‘ilish darajasining dinamikasi<sup>88</sup>**  
**(mlrd so‘mda)**


<b>t/r</b>	<b>Ko‘rsatkichlar</b>	<b>2016 y.</b>	<b>2017 y.</b>	<b>2018 y.</b>	<b>2019 y.</b>	<b>2020 y.</b>	<b>2021 y.</b>
<b>1.</b>	Davlat budgetiga haqiqatda tushgan	32 015,5	37 750,9	54 202,8	83 356,3	103 566,4	127970,4
<b>2.</b>	Soliq qarzi oshishi miqdori	162,1	3298,7	-1141,1	-1572,2	739,0	1218,0
<b>3.</b>	Soliqlarning ortiqcha miqdorining oshishi	69,9	527,4	1 030,0	1 337,6	3 308,4	-3 377,8
<b>4.</b>	<b>Soliqlarni yig‘ish darajasi %da</b>	<b>99,3</b>	<b>90,8</b>	<b>100,2</b>	<b>100,3</b>	<b>96,2</b>	<b>101,7</b>

Soliqlarni yig‘ishningyuqori darajasini saqlab qolishning ijobjiy tendensiyasi, soliq qarzi darajasini pasaytirishga qaratilgan soliq siyosati, shu jumladan Prezidentning 09.09.2022-yildagi “Ta’sirchan soliq mexanizmini qo‘llash natijasida hosil bo‘lgan soliq qarzini hisobdan chiqarish to‘g‘risida”gi PF-218-sonli Farmoni doirasidagi chora-tadbirlari majmui amalga oshirilganligi, shuningdek soliq sohasini isloh qilish jarayonida biznes uchun qulay shart-sharoitlari yaratilganligi natijasi hisoblanadi.

“Soliq qarzi” ko‘rsatkichi. Davlat budgeti daromad qismining daromadini shakllantirish masalalari eng dolzarb bo‘lib qolmoqda. Budgetni shakllantirishning asosiy manbai soliq tushumlari hisoblanadi. Shu munosabat bilan soliq to‘lovchilarining soliq va yig‘imlarni to‘lash bo‘yicha majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq bajarmaganligi ularning soliq qarzi shakllanishiga olib keladi. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida hisoblab chiqarilgan (hisoblangan) va belgilangan muddatlarda to‘lanmagan soliqlarning, shu jumladan, ular bo‘yicha

<sup>88</sup> DSQ ma’lumotlari asosida muallifning hisob-kitoblari.

bo‘nak va joriy to‘lovlarning summalari, shuningdek, belgilangan muddatda to‘lanmagan moliyaviy sanksiyalar va penyalar soliq qarzi sifatida e’tirof etiladi.



**2.22-rasm. 2017-2022-yillarda soliq qarzlari va haqiqiy soliq tushumlarining o'sish dinamikasi (o'tgan yilga nisbatan, foizlarda)<sup>89</sup>**

2017-2022-yillarda soliq qarzi va haqiqiy soliq tushumlari o’sishining umumiyo ko‘rsatkichlari dinamikasining qiyosiy tahlili 2016-yilda boshlangan soliq tizimini isloh qilish bo‘yicha soliq siyosati choralarini amalga oshirishi bilan soliq tushumlari o’sishi ko‘rsatkichlarining sezilarli darajada ko‘payganligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, tahlil qilingan davrda soliq qarzlarini to‘lash bo‘yicha soliq siyosati choralari natijalarini qoniqarli deb hisoblash mumkin.

Biroq, yillik ko‘rsatkichlarning kuzatilgan yuqori o‘zgaruvchanligi tartibga solish va soliq qarzi kamayishi masalalarida tizimli yondashuvlar yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

“Soliqlarning elastiklik koeffitsiyenti” ko‘rsatkichi. Soliq siyosati samaradorligini baholashning muhim tahliliy ko‘rsatkichlaridan biri bu “soliqlarning elastiklik koeffitsiyenti” bo‘lib, u iqtisodiy ko‘rsatkich (YAIM)ning bir bandga o‘zgarganda soliq tushumlari qanday o‘zgarganligini ko‘rsatadi, bu

<sup>89</sup> DSQ ma’lumotlari asosida muallifning hisob-kitoblari.

erkli ( $U$  – haqiqatda to‘langan soliqlar) va omilli ( $X$  – YAIM) qiymatlari oshishi tezligini nisbatini quyidagi formulaga muvofiq aniqlash lozim deb hisoblaymiz:

$$E = ((Y_1 - Y_0) / Y_0) / ((X_1 - X_0) / X_0), \text{ bu yerda}$$


$E$  – elastiklik koeffitsiyenti,

$U$  – haqiqatda to‘langan soliqlar, mldr.s ‘mda,

$X$  – YAIM, mldr.s ‘mda.

Agar olingan elastiklik koeffitsiyentining moduli 1 dan katta bo‘lsa ( $|E| > 1$ ), bu funksiya elastik ekanligini ko‘rsatadi, ya’ni soliq tushumlari YAIM o‘sishiga qaraganda tezroq o‘sib borayotganidan dalolat beradi.

Ta’kidlash joizki, yangi soliq siyosati boshlanishi bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan boshlangan keng ko‘lamlı islohotlar doirasida, bu soliq siyosatining sifati va samaradorligini baholash uchun bir qator yangi va ilgari foydalanilmagan vositalarni amaliyotga joriy etish uchun turtki bo‘ldi. Elastiklik koeffitsiyenti dinamikasining retrospektiv tahlili 2016-yilda boshlangan yangi soliq siyosati boshlanishi bilan uning qiymatining sezilarli o‘zgarishini ko‘rsatadi.



**2.23-rasm. 2017-2022-yillarda soliqlarning elastiklik koeffitsiyenti dinamikasi<sup>90</sup>.**

Shunday qilib, islohotlarning dastlabki bosqichida elastiklik koeffitsiyentining

<sup>90</sup> Muallif tomonidan Moliya vazirligi va DSQ ma’lumotlari asosida tuzilgan.

qiymati 1 (0,76) dan kam edi, bu soliq tizimining passiv rolini anglatadi, buning natijasida soliq tushumlari YAIM o'sishidan past sur'atlarda o'sdi. 2018-yildan boshlab koeffitsiyentning o'rtacha qiymati doimiy ravishda 1 dan oshdi, bu soliq siyosatining faol rolini ko'rsatadi, buning natijasida soliq tushumlari YAIM o'sishiga qaraganda yuqori sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, 2022-yil oxiriga ko'ra soliqlarning elastiklik koeffitsiyentining qiymati ham birdan ortiq bo'ladi va 1,05 ni tashkil qiladi.

*"Soliq majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajarish darajasi(soliq madaniyati darajasi)" ko'rsatkichi.* Rivojlanishning hozirgi bosqichida soliq to'lovchilarning xatti-harakatlarida, soliq majburiyatlarini bajarish shaklida biznes javobgarligida ifodalangan davlat, soliq organlari, jamiyatning o'zaro munosabatlarida ijtimoiy javobgarlikning ajralmas qismi bo'lgan soliq madaniyatini oshirish zarurati tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ilmiy adabiyotlarda umummilliy madaniyatning bir qismi bilan bog'liq bo'lgan "soliq madaniyati" atamasining juda keng talqini mavjud bo'lib, u soliq munosabatlari ishtirokchilarining faoliyati, bilim darajasi va soliq qonunchiligiga vijdonan riosa qilish qobiliyatini nazarda tutadi. Zamonaviy texnologiyalar soliq to'lovchilarga qulay raqamli xizmatlarni rivojlantirishda yangi imkoniyatlar ochdi, bu soliq munosabatlari ishtirokchilarining o'zaro aloqalarini sezilarli darajada soddalashtirish, xarajatlarni kamaytirish, hisobotdagi xatolarni kamaytirish, shuningdek, soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga soyalardan chiqish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.06.2018 yildagi "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3802-son qarori tasdiqlanib, mazkur qaror bilan Davlat soliq xizmati organlarining soliq ma'muriyatçiligi tizimini takomillashtirishning eng muhim yo'nalishlari belgilab olindi:

Soliq to'lovchilarning o'z soliq majburiyatlarini (**U<sub>d</sub>**) ixtiyoriy bajarish


darajasi ko'rsatkichini baholash uchun muallif quyidagi uslubiy yondashuvni qo'llashni lozim deb hisoblaydi:

$$U_d = 100 - (I_p / S_{fnp} * 100), \text{ bu yerda:}$$

$S_{fnp}$  – haqiqiy soliq tushumlari, mld. so'mda;



birinchidan, davlat soliq xizmati organlarini soliq to'lovchilarning biznes-hamkori va maslahatchisi sifatidagi yangi imidjini yaratish orqali xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan idoraga aylantirish, har bir xodim tomonidan "Soliq xizmati — insofli soliq to'lovchilarning ishonchli hamkori" degan maqsadli vazifani so'zsiz bajarish;



## 2.24-rasm. DSXO soliq ma'muriyatiligi tizimini takomillashtirishning eng muhim yo'nalishlari<sup>91</sup>

$I_{nz}$  – inkasso topshiriqnomasi bo'yicha soliq tushumlari, mld. so'mda. (Ko'rsatkichni hisoblash inkasso topshiriqnomalarini yaratilgandan so'ng taqdim etiladi).

"Soliq to'lovchilarni davlat tomonidan subsidiyalash darajasi (imtiyozlar va preferensiyalar)" ko'rsatkichi.

Soliq imtiyozlari soliq siyosatining keng qo'llaniladigan vositasi bo'lib, ular iqtisodiyotdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni rag'batlantirishni tartibga solishga qaratilgan. Soliq imtiyozlari soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan berilgan imtiyozlar, shu

<sup>91</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

jumladan soliq to‘lamaslik yoki ularni kamroq miqdorda to‘lash imkoniyati sifatida tan olinadi.

2.7-jadval

**2016-2022-yillarda soliq to‘lovchilarni davlat tomonidan subsidiyalash (imtiyozlar berish) darajasining dinamikasi<sup>92</sup>**

t/r	Ko‘rsatkichlar	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y. *- baholash
1.	Soliq yuki ( <i>YaIMga nisbatan % da</i> )	16,1	15,6	18,6	21,2	22,1	22,4	23,4
2.	Soliq to‘lovchilarni davlat tomonidan subsidiyalash darajasi ( <i>YaIMga nisbatan % da</i> )	1,8	2,7	3,5	5,1	4,1	4,6	5,7
3.	Davlat budgetiga nisbatan soliq to‘lovchilarni davlat tomonidan subsidiyalash darajasi ( <i>Davlat budgetiga nisbatan % da</i> )	11,5	17,1	19,0	23,9	18,4	20,7	24,4
4.	Davlat soliq qo‘mitasi bo‘yicha soliq to‘lovchilarning davlat tomonidan subsidiyalash darajasi ( <i>Davlat soliq qo‘mitasi bo‘yicha % da</i> )	14,7	22,6	27,7	32,2	23,7	26,6	33,9

Tahlillar 2016-2022-yillarda taqdim etilgan soliq imtiyozlari va yengilliklari ulushining barqaror ravishda oshib borishi dinamikasini aks ettirmoqda (jumladan, so‘nggi yillarda YAIMga nisbatan imtiyozlar ulushi 3,2 baravarga, davlat budgeti daromadlariga nisbatan 2,1 baravarga, shuningdek, soliq qo‘mitasi tomonidan ma’muriyatçiligi yuritiladigan tushumlarga nisbati 2,3 baravarga oshgan).

Soliq imtiyozlaridan doimiy ravishda foydalanish, ularni kamaytirishga urinishlarga qaramay, birinchi navbatda, ikkita asosiy omil bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Birinchidan, soliq imtiyozlari milliy iqtisodiyotdagi, ayniqsa, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan va o‘sishga mo‘ljallangan tarmoqlardagi iqtisodiy nomutanosiblik oqibatlarini yumshatish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Ikkinchidan, bu hodisa soliq solinadigan bazani kengaytirish va maqsadli soliq

<sup>92</sup> Davlat statistika qo‘mitasi, Moliya vazirligi va DSQ ma’lumotlari asosida muallifning hisob-kitoblari.

stavkalarini joriy etish natijasida kelib chiqadigan soliq tushumlarining sezilarli o'sishi bilan uzviy bog'liqdir.

Shu bilan birga, shuni hisobga olish kerakki, soliq imtiyozlari pirovardida iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki ular ayrim hollarda mohiyatan diskriminatsion xususiyatga ega, raqobat muhitini yomonlashtiradi va ishbilarmonlik muhitida salbiy kayfiyatni keltirib chiqaradi.


*"Tadbirkorlik subyektlarining omon qolish darjasи" ko'rsatkichi.*

Ma'lumki, tadbirkorlik bozor iqtisodiyotining eng muhim elementi bo'lib, u ko'plab yangi ish o'rinalarini yaratadi, ular ko'pincha iqtisodiy o'sish sur'atlarini, yalpi milliy mahsulotning tarkibi va sifatini belgilaydi. O'sish sur'ati va biznesning o'zgaruvchan biznes sharoitlariga moslashish tezligi jamiyatning iqtisodiy salomatligining barometri hisoblanadi. Biroq, ushbu masalaga bag'ishlangan ko'plab tadqiqot adabiyotlari va akademik doiralardagi tortishuvlarga qaramay, ko'plab muammolar hal qilinmagan. Biznesning "omon qolish" darajasini oshirish uchun hayot siklining dastlabki bosqichlarining tahdidlarini bartaraf etish masalalari ko'p jihatdan, shu jumladan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralariga bog'liq.

Shu munosabat bilan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar sifatini o'lhash masalalarining dolzarbligi biznesning "omon qolish" darajasini baholash misolida ortib bormoqda. Taqdim etilgan soliq hisoboti ma'lumotlari statistikasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, 2016-2022-yillar davomida faol subyektlarning umumiy soni 2,6 barobar – 156,3 ming birlikdan 402,9 ming birlikka oshgan. Shu bilan birga, faoliyat tashkil etilgan birinchi yilda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2,8 barobar – 24,9 ming birlikdan 69,4 ming birlikka, bir yildan ortiq muddatga 2,2 barobar – 34,4 ming birlikdan 75,4 ming birlikka, 3 yil va undan ortiq faoliyat ko'rsatayotgan faol korxonalar soni 2,7 barobar – 96,9 ming birlikdan 258,2 ming birlikgacha oshgan.

2016-2022-yillarda faoliyat tashkil etilgan birinchi yildagi korxonalarining o'rtacha omon qolish darjasи 20,6% ni tashkil qiladi. Shu bilan birga,

taqqoslangan davrda bu ko'rsatkich 1,3 foiz punktga 15,9% dan 17,2% gacha o'sdi va 2019-yilda maksimal qiymati 26,8% ni tashkil etdi (3.5-rasmga qarang.)



**2.25-rasm. 2016-2022-yillarda korxonalarining omon qolish darajasi dinamikasi<sup>93</sup>. (%da)**

Faollik muddati 3 yil va undan ortiq bo'lgan korxonalar uchun ko'rsatkichning o'rtacha qiymati 55,9% ni tashkil qiladi, bu 2020-yilda (COVID-19) minimal qiymat – 43 %dan 2022-yilda maksimal qiymat – 64,1 %gacha tebranadi. Mamlakatlar kesimida taqqoslaganda, 2019-yilda bu ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston 30 mamlakatdan 23 o'rinda bo'lib, bu ko'rsatkich bo'yicha Italiya (51,5%) va Ruminiya (51,5%) davlatlardan orqada qolib, Estoniya (48%) va Germaniya (47,1%) davlatlarni ilgarilab ketgan (2-ilovaga qarang).

***Umumiy xulosa qilib aytganda*** har qanday soliq siyosatining qo'llanilishi va uning natijalariga qarab uning samaradorligini izohlovchi ko'rsatkichlar orqali tahlil qilish soliq siyosatining strategiyasi, konsepsiya va taktikalarining qanchalik puxta ishlanganligi va uning amalga oshirilganligini bildiradi. Soliq siyosatining samaradorligini tavsiflovchi yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarni, o'z navbatida, ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga soliq yukining pasaytirilishiga muvofiq budjet daromadlarining ko'payishi (yoki kamayishi), ishlab chiqarish hajmlarining oshishi (yoki kamayishi), investitsiyalarning samarasi, aholining real

<sup>93</sup> Muallif tomonidan DSQ ma'lumotlari asosida tuzilgan.

pul daromadlarining oshishi (kamayishi), iste'molning ortishi (qisqarishi), narxlar darajasi va shu kabi ko'rsatkichlar kirib, bu kabi ko'rsatkichlar amalga oshirilgan (oshirilayotgan) soliq siyosatining samaradorligini tavsiflovchi umumiylar xulosalarni beradi. Ikkinci guruhga kiruvchi ko'rsatkichlar esa bevosita soliq siyosatining ichki mexanizmlarining samaradorligini tavsiflaydigan ko'rsatkichlar sifatida baholash mumkin.

Bizning fikrimizcha, davlatning, shu jumladan, bizning respublikamizning soliq siyosatini shakllantirish va baholash ikki tomonlama maqsadga xizmat qiladi. U nafaqat keyingi bosqichlarni aniq belgilashga yordam beradi, balki milliy darajadagi iqtisodiy siyosatning samaradorligini baholash uchun mezon vazifasini ham bajaradi. Binobarin, davlat soliq siyosati o'zining strategik maqsadlarini qay darajada samarali amalga oshirayotganini aniqlash uchun vaqtiga vaqtiga bilan ilmiy tahlillar olib borish zarur. Shu nuqtayi nazardan, biz taklif qilayotgan ko'rsatkichlar va mezonlarni qo'llashni o'z ichiga olgan metodologiyadan foydalanish katta ilmiy ahamiyatga ega.

## **2-bob bo'yicha xulosa**

O'zbekiston soliq tizimida soliq siyosatining evolyutsiyasi, uni amalga oshirish bosqichlari, strategik maqsadlarini o'rganish, joriy holati va samaradorligini baholash bo'yicha olib borilgan ilmiy tahlillar asosida quyidagi ilmiy xulosalarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Har qanday iqtisodiy tizimda davlatning strategik vazifalari soliq siyosati doirasida uning fiskal maqsadlariga mos ravishda ishlab chiqiladi. Ushbu strategik maqsadlar qisqa, o'rta va uzoq muddatli muddatlarga mo'ljallangan aniq maqsadlarni o'z ichiga oladi. Albatta, Sobiq ittifoqdagi soliq siyosatining strategik maqsadlari mustaqillikka erishgan O'zbekiston soliq tizimida ma'lum bir qismlari saqlanib qolangan bo'lsada, O'zbekistonning o'zining milliy soliq siyosati strategik maqsadlari belgilab olindi va u ma'lum bir ilmiy-amaliy va uslubiy jihatdan evolyutsion rivojlanish yo'lini bosib o'tmoqda.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan soliq islohotining eng muhim natijasi iqtisodiyotga soliq yukining sezilarli darajada pasayishi bo‘ldi, bu biznes va investitsiya faoliyatini faollashtirish va shu bilan barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning muhim omillaridan biri bo‘ldi. Iqtisodiy islohotlarning izchil amalga oshirilishi O‘zbekistonga birinchi bosqichda MDHning boshqa mamlakatlariga nisbatan iqtisodiy sharoitlarning yomonlashishiga yo‘l qo‘ymaslik imkonini berdi. Soliq siyosatining birinchi strategik bosqichning dolzarb muammolarini muvaffaqiyatli bajarish, ishlab chiqarishni barqarorlashtirish hamda o‘sishini ta’minlash, inflyatsiya darajasini jilovlash 90-yillarning ikkinchi yarmida soliq siyosatining quyidagi tegishli bozor tamoyillariga o‘tishga imkon berdi:

- imtiyozlar berish va stavkalarni pasaytirish orqali soliq yukini kamaytirish uchun asos yaratish;
- bozor iqtisodiyoti tamoyillariga javob bermaydigan soliqlarni bekor qilish;
- soliq munosabatlarini tartibga solish, soliq huquqbazarliklarini aniqlash, bartaraf etish va oldini olish va sh.k. Soliq yukining pasayishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlariga ta’sir ko‘rsatdi.

Umuman olganda, 2010-2017-yillardagi soliq islohotining eng muhim natijasi iqtisodiyotga soliq yukining pasayishi va soliq to‘lovchilar bilan o‘zaro munosabatlarning aloqasiz shakllarining rivojlanishi bo‘lib, bu iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlarini saqlab qolish va tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishining asosiy omillaridan biri bo‘ldi.

2016-yildan boshlab Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida iqtisodiy o‘sishning yangi omillarini faollashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarga asoslandi. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi doirasida soliq yukini kamaytirish va soliq solish tizimini soddallashtirish, soliq ma’murchiligini takomillashtirish va tegishli rag‘batlantirish choralarini kengaytirish kursi nazarda tutildi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasida tizimli muammolarni samarali hal etish maqsadida soliq sohasida jiddiy islohotlar amalga oshirildi. Ushbu

islohotlar soliq yukini kamaytirish, soliq tizimini soddalashtirish va soliq ma'muriyatçiliginin takomillashtirish kabi aniq maqsadlarga erishish uchun puxta ishlab chiqilgan. Bu vazifalar 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi bilan hamohang bo'lib, keng jamoatchilik bilan maslahatlashish va tavsiyalarni o'z ichiga olgan keng qamrovli jarayonni ta'kidladi. Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon banki kabi nufuzli xalqaro tashkilotlarning fikrlari hamda global ekspertlarning fikrlari atroflicha ko'rib chiqildi.

Ushbu islohot kun tartibida O'zbekiston soliq tizimining asosi bo'lgan Soliq kodeksini qayta ko'rib chiqish muhim o'rinni tutadi. Strategik yo'naltirilgan yangilangan Soliq kodeksi makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, davlat budgetini mustahkamlash, soliq qonunchiligini tartibga solish, soliqqa oid masalalarni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy baza doirasidagi nomuvofiqliklarni bartaraf etish, mehnatsevar soliq to'lovchilarning huquq va qonuniy manfaatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu qonunchilikni qayta ko'rib chiqish soliqlar majmuasini birlashtirish va uyg'unlashtirish, soliq hisobotlarini taqdim etish tartib-qoidalarini soddalashtirish va soliq qonunchiligiga rioya qilish bilan bog'liq operatsion xarajatlarni minimallashtirishga qaratilgan hamkorlikdagi sa'y-harakatlar orqali optimallashtirishni nazarda tutadi. Soliq islohotlari doirasida soliq me'yorlarining huquqiy asosini yaratish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash, yashirin iqtisodiyotni jilovlash orqali ularga teng raqobat sharoitini yaratish, investitsiya jozibadorligini oshirish va soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishni yangi bosqichga chiqarishga qaratilgan soliqqa oid temalar bog'liq 2017-2022-yilning 1-dekabr holatiga 121 ta Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 240 ta Farmon va 519 ta qarorlari va Vazirlar Mahkamasining 845 ta qarorlar qabul qilindi.

Fikrimizcha, soliq tizimini soddalashtirishni jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'pincha bunday qadamning oqibatlarini bilmaslikka asoslanadi va soliq to'lovchilar o'rtasida ma'lumotlarning yetishmasligi hukumatni populistik va samarasiz soliq islohotlarini amalga oshirishga undashi mumkin. Shu munosabat

bilan ushbu masalalarni batafsil muhokama qilishga harakat qilish, shuningdek, soliq qonunchiligi sohasida yuzaga keladigan muammolar darajasini kamaytirishga yordam beradigan siyosiy, ijtimoiy, akademik munozaralarda soliq savodxonligini oshirish zarur.

O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosati strategiyasi bir qancha e’tiborga molik yutuqlarga erishdi. Ushbu strategiya doirasida amalga oshirilgan islohotlar mamlakatdaadolatli, shaffof, barqaror va xalqaro talablarga javob beradigan soliq tizimini yaratishga qaratilgan. Bu islohotlar soliq to‘lovchilar uchun qulaylik va afzallikkarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan mustahkam iqtisodiy va huquqiy asoslarga asoslanadi.

O‘zbekistonda soliq strategiyasi va taktikalarini ishlab chiqish hamda mexanizmlarining tahlili bo‘yicha amalga oshirgan ilmiy-nazariy hamda amaliytahlillarga asoslanib shunday xulosa qilish mumkinki, respublikamizda bu boradagi oxirgi besh yilda belgilab olingan strategik maqsadlar ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan hamda xorijiy ekspertlarning ijobjiy xulosalarini tanqidiy ko‘rib chiqqan holda amalga oshirilmoqdaki, bu o‘z navbatida soliq ma’murchiligi nuqtayi nazaridan ham davlat budgetining fiskal maqsadlari nuqtayi nazaridan ham ijobjiy natijalarga erishishga imkon bermoqda. Har qaysi mamlakatning soliq siyosatining samaradorligini baholash, bir tomon dan, xalqaro miqyosida tasdiqlangan yoki tavsiya etilgan ko‘rsatkichlar (mezonlar)ga asoslansa, o‘z navbatida milliy iqtisodiyotning xususiyatlardan kelib chiqqan holda xususiy ko‘rsatkichlar (mezonlar)ga asoslanib baholanadi.


Soliq siyosati strategiyasi, konsepsiysi, taktikasini puxta ishlab chiqish va ularni keyinchalik amalga oshirish soliq siyosatini amalga oshirish va uning samaradorligini aniq belgilangan ko‘rsatkichlar orqali baholashga bog‘liqdir. Soliq siyosati sohasidagi ushbu samaradorlik ko‘rsatkichlarini ikki xil guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruhga soliq yukining pasaytirilishiga muvofiq budget daromadlarining ko‘payishi (yoki kamayishi), ishlab chiqarish hajmlarining oshishi (yoki kamayishi), investitsiyalarning samarasi, aholining real pul daromadlarining oshishi (kamayishi), iste’molning ortishi (qisqarishi), narxlar darajasi va shu kabi

ko‘rsatkichlar kirib, bu kabi ko‘rsatkichlar amalga oshirilgan (oshirilayotgan) soliq siyosatining samaradorligini tavsiflovchi umumiylar xulosalarini beradi. Ikkinchi guruhga kiruvchi ko‘rsatkichlar esa bevosita soliq siyosatining ichki mexanizmlarining samaradorligini tavsiflaydigan ko‘rsatkichlar sifatida baholash mumkin. Bizning fikrimizcha, nafaqat barcha mamlakatlarda, jumladan, respublikamiz soliq tizimida davlatning soliq siyosatining ishlab chiqilishi va uni amalga oshirish jarayonlarini baholash uning keyingi bosqichlarini to‘g‘ri belgilab olishga imkon berish bilan birgalikda, umumiylar tarzda milliy iqtisodiyot darajasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning samarasini baholashga ham xizmat qiladi. Bu esa davlatning soliq siyosatining strategik maqsadlarga erishayotganligi yoki erishmayotganligi baholashni muntazam ravishda ilmiy jihatdan tahlil etgan holda baholab borishni taqozo etadi

### **III-BOB. SOLIQ SIYOSATI STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH VA AMALGA OSHIRISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

#### **3.1. Soliq siyosatini takomillashtirishning asosiy muammolari va nomutanosibliklari**

Soliq tizimini zamonaviy baholashda ikkita asosiy va umumiy tamoyillar bиринчи о‘ringa chiqadi: iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolat. Bu tamoyillar zamonaviy soliq siyosatining asosi bo‘lib xizmat qiladi. J.Stiglis tomonidan ta’kidlanganidek, “bu muammoning savollari ko‘p hollarda yetarlicha o‘ziga xos va tushunish uchun qiyin hisoblanadi”<sup>94</sup>. Ushbu jihat soliq siyosatini tushunish uchun asos ekanligini hisobga olsak, muhim amaliy qiziqish chuqur ilmiy o‘rganishni talab qiladi. Islohotlarni amalga oshirish ma’lum vaqtini talab qilishini hisobga olib, vaqt o‘tishi bilan davomiyligi va cho‘zilishiga qarab, qisqa, o‘rta va uzoq muddatli soliq islohotlariga ajratiladi, ularning barchasi ularni amalga oshirish algoritmi bilan birlashtirilgan (3.1-rasmga qarang).




**3.1-rasm. Soliq islohotini o’tkazishning shartli algoritmi.<sup>95</sup>**

<sup>94</sup> Стиглиц Дж. Экономика государственного сектора. М.: МГУ, ИНФРА-М, 1997. С. 471.

<sup>95</sup> Muallif tomonidan muallif tomonidan xorijiy tajribani o‘rganish asosida tuzilgan

Tushunchalar apparatini shakllantirish mantig‘iga asoslanib, “samarali soliq siyosati” atamasi bir-birini uyg‘un ravishda to‘ldiradigan ikkita jihatni o‘z ichiga oladi. (3.2-rasmga qarang.)

### «Samarali soliq siyosati» tushunchasi aspektlari



### 3.2-rasm. Samarali soliq siyosatini tushunish.<sup>96</sup>

Ortiqcha soliq yukini baholash asosida iste’molchi to‘lashga tayyor bo‘lgan narx va haqiqiy narx o‘rtasidagi farq tufayli iste’molchi tomonidan olingan iqtisodiy faoliyat ishtirokchisining sof farovonligining ko‘rsatkichi sifatida berilgan iste’mol foydasi (rentasi) konsepsiysi nazariyasi yotadi. Soliq to‘lovchilar uchun yo‘qotish bo‘lib, bu iste’molchining shaxsiy daromadining pasayishiga ta’sir qiladigan ortiqcha soliq yuki o‘lchanadigan, “Marshall uchburchagi deb ataladigan shtrixlangan AVS uchburchagi maydoniga teng rentaning bir qismi hisoblanadi”<sup>97</sup>.

Iste’molchining ortiqcha soliq yukini baholash uchun A. Karberger tomonidan taklif qilingan hisoblash formulasidan foydalanish tavsiya etiladi:

$$U = . Y e * t^2 * P_1 * Q_1., \text{ bunda:}^{98}$$

U - ortiqcha soliq yuki;

Ye – narxi bo‘yicha talabning egiluvchanligi;

$t^2$  - soliq stavkasining kvadrati;

$P_1$  - tovarlar (xizmatlar)ning dastlabki narxi;

$Q_1$  - tovarlarga (xizmatlarga) bo‘lgan talab.

<sup>96</sup> Muallif tomonidan muallif tomonidan xorijiy tajribani o‘rganish asosida tuzilgan

<sup>97</sup> [Блауг М. Экономическая мысль в ретроспективе](#) М.: Дело Лтд, 1996. - 687 с.

<sup>98</sup> Harberger A. Taxation, Resource Allocation and Welfare. In: The Role of Direct and Indirect Taxes in the Federal Reserve System. Princeton Univ. Press for NBER at Brookings Inst., 1964.

Oxirgi formula juda muhimdir, chunki bu ortiqcha soliq yuki darajasiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashga imkon beradi. Bularga quyidagilar kiradi: narxi bo'yicha talabning egiluvchanligi (Ye), shuningdek oshishi bilan ortiqcha soliq yuki tobora ortib boradigan soliq stavkasining kvadrati ( $t^2$ ).

Samarali soliq siyosatini olib borishning asosiy maqsadi "bozor nosozliklarini" yumshatish maqsadida davlat va xususiy tovarlarni ishlab chiqarish o'rtasida resurslarni optimal taqsimlashdan iboratdir. Soliq siyosatida samaradorlik va adolat o'rtasida murosaga erishish doirasida u yoki bu soliq siyosatining yuqoridagi talablarga muvofiqligi darajasini baholashning dolzarbligi oshadi.

Umume'tirof etilgan samaradorlik mezoni – "jamiyat farovonligi maksimal darajaga yetadigan iqtisodiy resurslar hamda ishlab chiqarilgan tovarlarni maqbul taqsimlash mezoni - bu Pareto maqbulligi mezoni bo'lib, u resurslarni (tovarlarni) har qanday qayta taqsimlash bir subyektning holatini yaxshilay olmaydigan, shu bilan boshqasining holatini yomonlashtirmaydigan muvozanat holatining maqbul darajasini aniqlashga imkon beradi" <sup>99</sup> Biroq, aslida hech bo'limganda bitta odamning farovonligining yomonlashishiga olib kelmaydigan har qanday ijtimoiy ahamiyatga ega o'zgarishlarni amalga oshirish deyarli mumkin emas. Shu munosabat bilan, "Kaldor–Xiksning" <sup>100</sup> samaradorlik mezoni eng maqbul ko'rindi, unga ko'ra haqiqiy "Pareto maqbulligi"ga erishish shart emas, agar u potensial bo'lsa, yetarli, ya'ni bir shaxslarning foydalari, asosan, boshqalarning yo'qotishlarini qoplashi va ijtimoiy farovonlikni oshirishi mumkin.

Shuningdek, "adolatlari soliq siyosatining eng sodda va ishonchli mezoni daromad va boylikni taqsimlashdagi tengsizlik darajasining pasayishi bo'lib, uni baholash uchun detsil koeffitsiyenti va "Jinni koyeffitsiyenti qo'llaniladi, soliqdan oldingi va keyingi daromadlar koeffitsiyentlarining umumiyligi qiymatlarini

<sup>99</sup> Экономическая теория: Учебник / Под общ. ред. акад. В.И. Видяпина, А.И. Добрынина, Г.П. Журавлевой, Л.С. Тарасевича. — М.: ИНФРА-М, 2003. — 714 с

<sup>100</sup> Смоляр М.Я. Совершенствование оценки эффективности и результативности при планировании программных расходов бюджета. Ж. Наука о человеке: гуманитарные исследования Россия, г. Омск, стр. 87-93.

taqqoslash soliq siyosatiningadolat tamoyiliga rioxaqilish tengsizligini kamaytirishga ta'sirini baholashga imkon beradi”<sup>101</sup>.

Bunda, detsil koeffitsiyenti eng boy odamlarning 10% va eng kambag‘al shaxslarning 10% daromadlarining nisbati sifatida hisoblanadi. Jinni koeffitsiyentini hisoblash uchun jami soliq to‘lovchilarni daromadlari teng ravishda o‘sib boradigan o‘nta teng guruhga bo‘lish va soliq to‘lovchilarning i-guruhi daromadlarining umumiylarining umumiy daromaddagi  $d_i$  ulushini aniqlashi kerak.

Daromad va boylik taqsimotining tengsizligi sababli soliq siyosatiningadolatlilagini amaliy baholashning obyektiv qiyinchiliklariga qaramay, detsil koeffitsiyentini hisoblash asosida (10% boy va 10% kambag‘allar daromadlarning nisbati), Jinni koeffitsiyentini (jami soliq to‘lovchilarni daromadlarning o‘sishi bo‘yicha 10 ta teng guruhlarga bo‘linishini hisobga olgan holda) quyidagi formula bo‘yicha hisoblash imkoniyati mavjud:

$$Kg = \mathbf{110 - 0.2 \sum_{i=1}^{10} d_i}, \text{ bunda:}$$


Kg - Jinni koeffitsiyenti;

$d_i$  - i-guruh daromadlarining umumiylarining umumiy daromaddagi ulushi.

Neoklassitsizmning (takliflar iqtisodiyoti nazariyasi) kuchli ta’siri ostida shakllangan soliq chegarasi nazariyasi doirasida deyarli barcha zamonaviy postulatlar olingan, Ye. V. Balaskiy soliq bazasining o‘zgarishini ko‘rsatadigan egri chiziq ham o‘zining fiskal maksimaliga ega ekanligini asosladi<sup>102</sup>. U bu egri chiziqnini Laffer egri chizig‘iga qo‘ydi. Yaxshi idrok etish uchun biz ushbu egri chiziqlarni koordinata panjarasining turli choraklariga joylashtirdik (3.3-rasmga qarang).

<sup>101</sup> Гончарова Т. М. Высшая математика. Приложения определенного интеграла: учебно- методическое пособие для студентов экономических специальностей. МГУП. 2010. – 32 с

<sup>102</sup> Балацкий Е.В. См. следующие его работы: Оценка влияния налоговых инструментов на экономический рост // Проблемы прогнозирования. 2004. № 4; О природе несостоимости российской фискальной системы // Общество и экономика. 2004. №11—12; Инвариантность фискальных точек Лаффера // МЭ и МО. 2003. № 6; Анализ влияния налоговой нагрузки на экономический рост с помощью производственно-институциональных функций // Проблемы прогнозирования. 2003. № 2.



**3.3-rasm. “Fiskal qarama-qarshiliklar zonasasi”ning shakllanishi.**<sup>103</sup>

3.3-rasmdan ko‘rinib turibdiki, fiskal optimal deb nomlangan  $R_1$  va  $R_2$  nuqtalari (1 va 2-turdagi Laffer nuqtalari) bir-biriga to‘g‘ri kelmaydi, bu fiskal qarama-qarshiliklarning shartli zonasasi mavjudligini ko‘rsatadi, bu yerda o‘rganilayotgan soliq siyosati doirasida soliqlarning rag‘batlantiruvchi va fiskal funksiyalari o‘rtasidagi ziddiyat aks etadi. Birinchisi ishlab chiqaruvchini qo‘llab – quvvatlash va rag‘batlantirishga, ikkinchisi esa budgetni ta’minalashga qaratilgan. Shunga ko‘ra, soliq yukining haqiqiy qiymatini “fiskal qarama-qarshiliklar zonasiga” kirishi shuni ko‘rsatadiki, mavjud bosim tufayli biznes ishlab chiqarishdagi turg‘unlik rejimiga o‘tadi, shu vaqtning o‘zida budget esa to‘lishda davom etadi.

Muammo shundaki, bu zona Lafferning taqiqlangan zonasiga to‘g‘ri kelmaydi, u uning chap tomonida joylashgan bo‘lib, Lafferning so‘zlariga ko‘ra normal zonaga to‘g‘ri keladi:  $R_1$  dan  $R_2$  gacha. Shunday qilib, qo‘sishimcha “soliq tuzog‘i” paydo bo‘ladi, bu soliq yukini uning yuqori chegaralaridan ancha pastroqqa o‘rnatishni talab qiladi. Ko‘rib turganimizdek, “fiskal qarama-qarshiliklar zonasasi”ning mavjudligi oddiy masshtab zonasining sezilarli darajada torayishiga olib keladi. Soliq siyosati soliq yukini uning yuqori chegarasidan ancha past darajada – “fiskal qarama-qarshiliklar zonasasi” ning chap chegarasida, ya’ni 1-turdagi Laffer nuqtasiga iloji boricha yaqinroq o‘rnatishga qaratilishi kerak.

<sup>103</sup> Muallif tomonidan nazariy yondashuvlarni o‘rganish asosida tuzilgan.

Optimal soliq yuki - bu soliqlarning fiskal va tartibga solish funksiyalarining muvozanatli kombinatsiyasini ta'minlashga, davlat va soliq to'lovchilar manfaatlarining murosaga kelishiga imkon beradigan soliq undiruvlari darajasidir. Optimal soliq yukining ( $R_{opt}$ ) hajmi 2.6-rasmdagi fiskal qarama-qarshiliklar zonalarining chap tomonida bo'lishi kerak, ya'ni  $R_{opt} \leq R_1$  yukiga mos kelishi kerak, chunki  $R_1$  nuqtasining o'ng tomonida qo'shimcha soliq tuzog'ining ta'siri paydo bo'ladi. Ushbu maqbul shart davlat soliq siyosatining asosi bo'lishi kerak. Yukni sezilarli darajada kamaytirish  $R_1$  budget uchun xavf tug'diradi, chunki egri chiziqdan pastga siljish budget tushumining yanada pasayishini ta'minlaydi va yuqoriga siljish maqbul emas, chunki bu iqtisodiyot uchun qiyinchiliklar keltirib chiqaradi.

Optimal soliq yukini aniqlash muammosi Laffer nazariyasida o'z aksini topmasada, garchi 1 va 2-turdagi Laffer nuqtalarini yetarli miqdorda aniqlash muammosi hali ham dolzarb bo'lib qolsada, zamonaviy yondashuvlar ma'lum darajada bo'shliqni to'ldirishga imkon beradi. Natijada, soliq tizimining isloh qilinishi zarurligi to'g'risida signal bo'lishi kerak bo'lgan soliq yukining maksimal chegarasiga erishish belgilarini o'z vaqtida aniqlash zaruriyati yuzaga keladi.

Zamonaviy "ilmiy xulosalar soliq yukining yuqori chegara darajasiga yaqinlashishning quyidagi belgilarini aniqlaydi:

- soliq stavkalarining o'sishi davlat budgetiga soliq tushumlarining kamayishiga olib keladi;
- investitsiyalar, ish o'rnlari soni qisqaradi va umuman mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'ati pasayadi;
- soliq to'lashdan bo'yin tovlash darajasi oshadi.

Iqtisodiy nazariya postulatiga ko'ra, shaxsning soliq yukini baholashda soliq to'lovlari miqdorini, shuningdek, deklaratsiyalar va hisob-kitoblarni topshirish, soliqlarni undirish, shuningdek boshqa bir qator belgilangan qoidalarni ta'minlash uchun institutsional xarajatlarni hisobga olish kerak"<sup>104</sup>

---

<sup>104</sup> Меркулова Т.В. Институт налога. Харьков, 2006. С. 56.

R. Krilavning so‘zlariga ko‘ra, “soliq yuki uning shaxslarning (yuridik shaxslar emas) farovonligiga ta’siri bilan tavsiflanadi, chunki soliqlarni o‘tkazish ta’siri tufayli yuridik shaxsning xarajatlari oxir-oqibat tovarlar va xizmatlar xaridorlariga o‘tkaziladi”<sup>105</sup>.

Shuning uchun jismoniy shaxslarga soliq yukini hisoblash formulasi quyidagicha bo‘ladi:

$$\mathbf{NB}_{absol} = \mathbf{N} + \mathbf{I}_T ;$$

$$\mathbf{NB}_{otnos.} = \frac{\mathbf{N} + \mathbf{I}_T}{\Delta}, \text{bu yerda,}$$

**NB<sub>absol</sub>** – soliq yukining mutlaq ko‘rsatkichi;

**NB<sub>otnos.</sub>** – soliq yukining nisbiy ko‘rsatkichi;

**N** - soliq to‘lovlari miqdori;

**I<sub>t</sub>** - tranzaksion soliq xarajatlari;

**D** - daromad.

O‘zbekiston iqtisodiyotini erkinlashtirish va ochiqligi bo‘yicha keng ko‘lamlili islohotlar boshlanishi bilan biznes geografiyasi va iqtisodiy hamkorlik yo‘nalishlari sezilarli darajada kengayishiga olib keldi.

“Zamonaviy rivojlanish sharoitida ko‘plab mamlakatlar soliq iqlimining o‘ziga xos afzalliklari va davlatning biznes va tadbirkorlik faoliyatiga sodiqligini ko‘rsatadigan ijobjiy soliq imidjini shakllantirishga harakat qilmoqdalar”<sup>106</sup>. “O‘zbekiston rahbariyati tomonidan ham davlat soliq xizmati organlarining ijobjiy imidji va yagona uslubini yaratish asoslari yo‘lga qo‘yildi”<sup>107</sup>.

Globallashuv sharoitida milliy soliq tizimlari transformatsiyasi tashqi omillarning ikki guruhi ta’siri ostida sodir bo‘ladi: global iqtisodiy omillar va xalqaro soliq muhiti omillari (3.4-rasmga qarang).

<sup>105</sup> Крилав Р. Концепции распределения налогового бремени // Пособие по налоговой политике. Вашингтон: МВФ, 1995. С. 43.

<sup>106</sup> Чугунова А. А. Повышение имиджа и престижа работы в налоговых органах как важный элемент сильной системы налогообложения. Ж. Молодой ученый. 2019. - № 42 (280). – С. 136-138. электронный ресурс – URL: <https://moluch.ru/archive/280/63108/> (дата обращения: 11.01.2023).

<sup>107</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 26 июнданги “Давлат солик хизмати органлари фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3802-сон қарори.



### 3.4-rasm. Milliy soliq tizimlariga tashqi omillar ta'siri.<sup>108</sup>

Tashqi ta'sirlarga javob beradigan soliq jarayonlaridagi global tendensiyalar milliy soliq suverenitetidan tubdan uzoqlashishni keltirib chiqardi. Bu o'zgarish butun dunyo bo'ylab rivojlanayotgan mamlakatlar soliq tizimida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu o'zgarishlarga duch kelgan davlatlar soliq siyosatini qayta ko'rib chiqishga, ularni dolzarb ehtiyojlar va doimiy rivojlanayotgan raqamli landshaftga moslashtirishga chaqiriladi. Ushbu qayta baholash bir nechta muhim jihatlarni o'z ichiga oladi:

- hamkor davlatlar soliq organlari o'rtasida muvofiqlashtirish va hamkorlikni mustahkamlash;
- soliq turlarini, stavkalarini, soliq solish bazalarini va ular bilan bog'liq elementlarni tartibga solishni o'z ichiga olgan milliy soliq tizimlarini bosqichma-bosqich moslashtirish va soliqqa tortish tamoyillarini uyg'unlashtirish;
- soliq to'lovchilar o'rtasida moliyaviy va soliq hisobotlariga standartlashtirilgan yondashuvlarni takomillashtirish;
- o'zaro bog'liq bo'lgan global muhitimizning nozik tomonlari bilan kurashish uchun soliq masalalarida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

<sup>108</sup> Muallif tomonidan xorijiy tajribani o'rghanish asosida tuzilgan.

Jahon iqtisodiy tizimidagi globallashuv jarayoni xalqaro soliq raqobati deb nomlanuvchi raqobatning alohida shaklini keltirib chiqardi. Ushbu raqobat, birinchi navbatda, qulay soliq stavkalari va soliq tizimini taklif qilish orqali xorijiy kapital, texnologik nou-xau va tajribani jalg qilishga qaratilgan. Yakuniy maqsad soliq tushumlarini oshirish, ish o‘rinlari yaratishni rag‘batlantirish, mehnat unumdarligini oshirish, ish haqini oshirish, bozor infratuzilmasini mustahkamlash va pirovardida butun aholi farovonligini oshirishdan iborat.

Mohiyatan, soliq siyosati milliy daromadning o‘sishini rag‘batlantirishga, soliq tushumlarini davlat foydasiga ko‘paytirishga va rivojlanishni rag‘batlantirish uchun soliq tizimining multiplikativ ta’siridan foydalanishga qaratilgan. Bundan tashqari, illyustratsiyaga ko‘ra, egri soliq nazariyasida A. Laffer “past soliqlar soliq bazasining doimiy o‘sishi hisobiga tushumlarning ko‘payishiga yordam beradigan mashtabli samarani namoyon bo‘lishini kutish mumkin.


Xalqaro soliq raqobati shakllari orasida quyidagilarni ajratish mumkin:

- soliq siyosatining to‘plangan o‘z tajribasiga, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning ilg‘or yutuqlariga yo‘naltirilishiga asoslangan adolatli soliq raqobati (fair tax competition);”<sup>109</sup>
- “milliy soliq idolarining tarixiy shakllangan madaniy an’analarini e’tiborsiz qoldirish, soliq solishning umume’tirof etilgan tamoyillari va normalarini, shuningdek soliq to‘lashdan bo‘yin tov lash maqsadida daromadlarni yashirishga qaratilgan harakatlarni e’tiborsiz qoldirish natijasida yuzaga kelgan adolatsiz soliq raqobati (harmful tax competition)”<sup>110</sup>. Soliqlarning ikki tomonlama tabiat tufayli soliq siyosati choralarining samaradorligini baholash muammolari davlat va soliq to‘lovchilar nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqilishi kerak, chunki ular obyektiv ravishda har xil tabiatga ega va ba’zan ularni hal qilishning tubdan farq qiladigan usullariga ega. “Bir qator tadqiqotlar natijalarini o‘rganish ushbu sohada

<sup>109</sup> Gromov V. V. Nalogovaya konkurensiya v Rossii na raznyx etapax razvitiya nalogovoy sistemy // Finansovskyj journal. 2020. T. 12. № 1. S. 41–57.

<sup>110</sup> Sbornik statey IX Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii molodых nalogovedov. Aktualnye problemy nalogovoy politiki: (Minsk – Moskva – Yekaterinburg – Irkutsk – Vladivostok, aprel 2017 g.). / Shkola ekonomiki i menedjmenta. Vladivostok: 2017. – 359 s.

baholashga to'sqinlik qiladigan muammolar guruuhlarining uchta asosiy guruhini ajratishga imkon beradi”<sup>111</sup>:



### **3.5-rasm. Soliq siyosati choralari samaradorligini baholashning asosiy muammolari<sup>112</sup>**

Muammolarning birinchi guruhi deyarli barcha mamlakatlarga xos bo'lib, o'tish davri iqtisodiyoti uchun alohida ahamiyatga ega. Soliq to'lovchilarni ro'yxatdan o'tkazish va hisobga olishning nomukammalligi bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun soliq nazorati jarayonida quyidagi bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif etiladi (3.6-rasmga qarang).

Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini kuchaytirish foydasiga balansning o'zgarishi qonuniy biznes uchun soya komponenti foydasiga sharoitlarning yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Binobarin, ushbu jarayon tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibiga, shuningdek ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi Kodeksga bir qator muvozanatli o'zgartirishlar kiritilishi bilan amalga oshirilishi kerak:

- davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish uchun aniq va oshkora mezonlarni belgilash (yuridik shaxsni tashkil etish tartibi buzilganligi munosabati bilan, diskvalifikatsiya qilish to'g'risidagi qabul qilingan qaror va yuridik shaxsni ta'sis etish huquqidan mahrum qilish munosabati bilan hujjatlarning amaldagi Qonunchilik talablariga mos kelmasligi);

<sup>111</sup> Майбуров И.А. Налоговая политика теория и практика М.: Юнити-Дана, С. 63.

<sup>112</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

## I - guruhi - Soliq to'lovchilarni ro'yxatidan o'tkazish va hisobga olish tartib-taomillari sifatini baholashning mavjud vositalarining nomukammalligi

- Davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran soliq va moliyaviy hisobotlarni taqdim etmaydigan tashkilotlar to'g'risidagi yagona axborot resursini rivojlantirish
- Ustav kapitalining shakllanishiga rioya qilmaslik holatlarini nazorat qilish mexanizmini tizimlashtirish
- Ishonchsiz ma'lumotlarni taqdim etish holatlarining oldini olish (muassis, yuridik manzil va boshqalar)
- Soxta bitimlarni amalga oshirish amaliyotini oldini olish (bir kunlik firmalar)
- Soliq to'lashdan bo'yin tov lash maqsadida asossiz soliq imtiyozlarini olish faktlari bo'yicha da'volar taqdim etishni avtomatlashtirish
- Soxta tadbirkorlik faoliyatini oldini olish natijalarini ommaviy axborot vositalarida (shuningdek, DSQ sayti va ijtimoiy tarmoqlarda) keng yoritish

### 3.6-rasm. Soliq to'lovchilarni ro'yxatga olish muammolari va ularni hal qilish yo'llari<sup>113</sup>

- davlat ro'yxatidan o'tkazish muddatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni kuchaytirish;
- tadbirkorlik sub'yektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishning yagona reyestriga o'z vaqtida o'zgartirishlar kiritilishini (manzil, muassislar va boshqalarni o'zgartirish) lozim darajada nazorat qilishni ta'minlash;
- yagona standartlarga asoslangan tadbirkorlik subyektlarining idoralararo axborot bazasini onlayn tarzda yaratish;
- ustav kapitali miqdorining sof aktivlar summasi (hisobot davri) tengligi prinsipi asosida faqat pul ekvivalentida davlat ro'yxatidan o'tkazilganda ustav kapitalini shakllantirish imkoniyatini belgilash;
- hujatlarda yuridik shaxs ma'lumotlari (manzili, kontaktlari va boshqalar) tafovuti aniqlangan taqdirda tadbirkorlik sub'yekti faoliyatini vaqtincha to'xtatish.

<sup>113</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

- ma'muriy tartibda tugatilgan yuridik shaxslarning sobiq muassislariga yangi tashkilotlar tashkil etishda 3 yilgacha ta'sischi sifatida qatnashish huquqidan mahrum etish imkoniyatini nazarda tutish.

Muammolarning ikkinchi guruhi soliq to'lovchilarga quyidagi yo'nalishlarda soliq xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha soliq organlarining ish qoidalarini takomillashtirish zarurati bilan bog'liq:

- soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish uchun soliq to'lovchilar uchun qulay sharoitlarni takomillashtirish;
- soliq xizmatining ijobiy obro'sini yaratish;
- soliq madaniyatini shakllantirish.

Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun juda ko'p ishlar qilingan, soliq to'lovchilar bilan o'zaro munosabatlarning joriy etilayotgan kontaktsiz shakllari keng qo'llanilmoqda ("hozirgi kunda O'zbekistonda 50 turdag'i interaktiv xizmatlar joriy etilgan, 41 turdag'i avtomatlashtirilgan axborot tizimlari ishga tushirilgan, 100% soliq hisobotlari elektron shaklda taqdim etilmoqda va hokazo), buning natijasida elektron soliq xizmatlari bilan qamrab olish darjasasi 95% gacha yetkazilgan"<sup>114</sup>. Shunday qilib, soliq hisobotini telekommunikatsiya kanallari orqali taqdim etish tartibini takomillashtirish "soliq to'lovchilar bilan ishlashning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu hisobotlarni ixtiyoriy ravishda topshirish (99,1%) va soliqlarni ixtiyoriy to'lash (95,8%) yuqori darajasini qo'llab-quvvatlaydi"<sup>115</sup>.

Soliq organlari bilan ishlashning eng qiyin jihatlaridan biri - bu soliq to'lovchilarning murojaatlari bilan tizimli ishlarni tashkil etishdir, bunda asosiy muammo tushayotgan so'rovlarining noto'g'ri shakllanishidir. Shu munosabat bilan soliq organlari tomonidan o'quv va konsalting audio va video materiallarini muntazam ravishda tarqatish, tematik davra suhbatlari, seminarlar, treninglarda faol ishtirok etish va ommaviy axborot vositalarida maqolalarning muntazam nashr

---

<sup>114</sup> Ўзбекистон Республикаси давлат солиқ қўмитаси раиси Ш.Д. Кудбиевнинг МДҲ мамлакатлари солик хизматлари раҳбарларининг Мувофиқлаштирувчи кенгаши доирасидаги нутки материалларидан. Минск шаҳри. 2022 йил 5-6 ноябрь

<sup>115</sup> Shu joyga qarang.

etilishini ta'minlash zarur. Hozirgi vaqtida soliq organlari soliq to'lovchilar bilan hamkorlikni kuchaytirish doirasida faoliyat turiga qarab soliq rejimini tanlash imkoniyatini beruvchi "Soliqchi-ko'makchi" (soliq to'lovchining yordamchisi) tamoyili asosida tizimli ish olib bormoqda. Soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali eksterritoriallik tamoyillariga asoslangan manzilli ishlar yo'lga qo'yildi.

Inspeksiya xodimlarining ijobiy psixologik kayfiyatini va soliq xizmatlarini ko'rsatishga tayyorligini oshirish maqsadida xodimlarni soliq to'lovchilar bilan ishslashning psixologik ko'nikmalariga o'rgatish tadbirlarini tashkil etish roli ortib bormoqda.

Xodimlarning stressga chidamliligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish soliq to'lovchilar bilan o'zaro munosabatlarda ziddiyat darajasini sezilarli darajada kamaytirishga yordam beradi. Shunday qilib, soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga qaratilgan soliq organlari ishining quyidagi asosiy tadbirlari amalga oshirildi:

- soliq organlarining moddiy-texnika bazasini takomillashtirish;
- kadrlar salohiyatini rivojlantirish (kadrlar malakasini oshirish va oshirish, shuningdek xodimlarni moddiy rag'batlantirish choralar);
- soliq to'lovchilar uchun soliqlarni avtomatlashtirilgan hisob-kitobga bosqichma-bosqich o'tkazish orqali soliq xizmatlari ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish. Masalan, 2022 yilda tajriba doirasida Xorazm viloyatida<sup>116</sup> pilot loyihani amalga oshirish yakunlari bo'yicha soliq organlari soliq hisobotini bepul hisoblab, shakllantiradigan tartib o'rnatildi:
  - mol-mulk solig'i bo'yicha - Kadastr agentligi organlarining ma'lumotlari asosida;
  - qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i va aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha elektron hisobvaraq-fakturalar va onlayn nazorat-kassa mashinalari ma'lumotlari, shuningdek soliq organlarida mavjud bo'lgan boshqa ma'lumotlar asosida.

Idoralararo muvofiqlashtirish bo‘yicha mustaqil organning yo‘qligi subyektlar o‘rtasidagi hamkorlikka ta’sir qiladi.

Norasmiy iqtisodiyot ko‘lmini baholashning yagona usuli mavjud emas.

Soliq siyosati samaradorligini monitoring qilish va baholash tizimi mukammal emas. Ijtimoiy shartnomaga doirasida konsensus yaratish bo‘yicha rivojlangan institutlarning yo‘qligi tadbirkorlik faolligiga, budget daromadlariga, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda ustuvor maqsadlarga erishishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu masalalar mustahkam ilmiy asosga ega.

Yillik budget parametrlarini tez-tez o‘zgartirish va yil davomida o‘zgartirishlar kiritish o‘rniga, yanada barqaror yondashuvni qo’llash maqsadga muvofiqdir. Bu o‘rta va uzoq muddatli davrlar uchun budget daromadlari va soliq siyosati strategiyalarini tasdiqlashni o‘z ichiga oladi. Bu strategiyalar nafaqat soliq siyosati va boshqaruvini, balki yil davomida kuchga kiradigan qonunlar, farmonlar va qarorlarni ham qamrab oladi.

Ushbu yondashuvni samarali amalga oshirish uchun:

Yangi qo‘srimchalar va yangiliklar faqat yil boshida (yoki 1-iyuldan boshlab) kiritilishi va Soliq kodeksida belgilangan muddatga rioya qilinishi va shu bilan o‘zgartirishlar uchun ma’lum bir muddat belgilanishi kerak. Soliq ma’muriyatçiligini takomillashtirishni tartibga solish uchun soliq yuki va soliq rejimlarini standartlashtirish lozim. Ma’muriy tartib-qoidalar soddalashtirilishi maqsadga muvofiq. Mahalliy budgetlarning mustaqilligini oshirish, shu jumladan

soliq tushumlarini yuqoridan pastga taqsimlashdan mahalliy budgetlarga bosqichma-bosqich o'tish kerak. Quyi darajadagi hokimiyat organlari qaror qabul qilish vakolatini oshirishi lozim.

Ayniqsa, norasmiy iqtisodiyotni cheklashda jamoatchilikning faolligini rag'batlantirish lozim. Rag'batlantirish tuzilmalarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Soliq ma'muriyatichilagini raqamlashtirishdan foydalangan holda bosqichma-bosqich optimallashtirish kerak. Soliq siyosati samaradorligini baholash va davlat mas'uliyatini oshirish mexanizmlarini kengaytirish lozim.

Mazkur strategik va taktik chora-tadbirlarni O'zbekiston soliq tizimida amalga oshirish orqali uni ilmiy va amaliy jihatdan takomillashtirishga katta hissa qo'shishi mumkin.

## XULOSA

**Tadqiqot ishi doirasida amalga oshirilgan ilmiy-nazariy tahlillardan kelib chiqib, ayrim ilmiy asoslangan xulosa va ilmiy takliflar shakllantirildi:**

1. Shuni ta'kidlash kerakki, markazlashgan pul fondlarini tashkil etish va taqsimlash davlatning ichki ishlarida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Moliyaviy masalalarning bu murakkab tarmog'i davlat iqtisodiy kun tartibining asosiy tarkibiy qismi bo'lgan soliq siyosati bilan uzviy bog'liqdir. Davlatning har qanday sohadagi harakatlari maqsadga muvofiqdir. Ushbu maqsadlarga erishish ijtimoiy va iqtisodiy rejalarни aniq muddatlar, aniq amalga oshirish chora-tadbirlari, boshqaruv organlari va operativ jarayonlar bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Bu birlashishni biz davlat siyosati deb tushunamiz.

2. Milliy daromadni taqsimlash, uni moliyalashtirish uchun majburiy badallarni (soliqlarni) belgilash, ularni undirish va bu jarayonni doimiy ravishda takomillashtirish bilan bir qatorda tartibga solish eng muhim ahamiyatga ega. Bu munosabatlarga ko'maklashish davlat tomonidan muayyan harakat yo'nalishi – soliq siyosatini taqozo etadi. Iqtisodiy masalalardan tashqari soliq siyosati ijtimoiy, psixologik, madaniy va hatto xalqaro jihatlarni ham qamrab oladi va bu uning boshqa ichki va tashqi siyosatlar bilan chuqur o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydi.

3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodni tartibga solishdagi roli kuchayib, soliq siyosati belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda hal qiluvchi vosita sifatida maydonga chiqadi. Amalda soliq siyosati davlat boshqaruvining pul-kredit siyosati va narx siyosati kabi boshqa jihatlari bilan bir qatorda mamlakat ichidagi barcha ijtimoiy-iqtisodiy jabhalarga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Turli iqtisodiy va moliyaviy siyosatlar bilan chambarchas bog'langan soliq siyosatining har tomonlama va o'zaro bog'liqligi uning ko'p qirrali hamda o'zaro bog'liq jarayonlarda ishtirok etishini ta'kidlaydi.

4. Tadqiqot ishida nazariy tahlillarga asoslanib, soliq siyosati va uning strategiyasiga oid mualliflik yondashuvi ishlab chiqildi. Muallifning ilmiy asoslangan fikriga ko'ra:

Soliq siyosatining *mohiyatini tushunishda uni tor va keng ma’noda ko‘rish mumkin. Tor doirada soliq siyosati davlat va mulk (daromad) egalari o‘rtasidagi soliq munosabatlarini tartibga solishga taalluqlidir.*

Soliq siyosati keng ma’noda esa – *milliy daromad shakllanishi, o‘sishini rag‘batlantirish hamda qayta taqsimlashga xizmat qiladigan iqtisodiyotda teng raqobat sharoitini yaratishga qaratilgan soliqlarni joriy etish va undirish mexanizmlarini qamrab olgan davlat boshqaruvinstitut shakli tushuniladi.*

Soliq siyosatining bosh(doimiy) *strategiyasi-davlat budgeti hamda soliq to‘lovchilar o‘rtasidagi o‘zaro manfaatlarning uyg‘unlashuvini va muvozanatlashuvini ta‘minlashdan iborat bo‘lsa, soliq siyosatining o‘zgaruvchan soliq strategiyasi esa budget daromadlarining bir maromda shakllanishi, teng raqobat sharoitini yaratish soliq to‘lovchilarning soliq madaniyatini oshirishga erishish hamda soliqlarning rag‘batlantirish ta’sirini yanada oshirishdan iboratdir.*

5. So‘nggi besh yil ichida mamlakatda “mutlaqo yangi soliq tizimi” yaratildi, shuningdek, yangi O‘zbekiston ruhiga mos keladigan Soliq kodeksining yangi tahriri qabul qilindi. Mamlakatda keng ko‘lamli islohotlar boshlanishi va yangi O‘zbekiston qurilishi bilan soliq sohasi ham tubdan o‘zgardi. O‘sha paytda amaldagi Soliq kodeksi yangi chaqiriqlarga javob bermasligi ma’lum bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-599-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni bilan qabul qilingan Soliq kodeksining yangi tahriri respublika hududida amalda bo‘lgan soliqqa tortish masalalarini tartibga soluvchi barcha amaldagi norma va qoidalarni takomillashtirish va tizimlashtirish orqali to‘g‘ridan -to‘g‘ri amal qiluvchi hujjat sifatida ishlab chiqilgan bo‘lib, soliq munosabatlari tizimida yagona qonunchilik bazasini yaratishga imkon berdi. Ushbu chora soliq qonunchiligi sohasidagi qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar sonini sezilarli darajada kamaytirdi.

6. Kelajakda soliq sohasidagi huquqiy hujjatlar sonining ko‘payishi dinamikasini saqlab qolish soliq tizimining barqarorligini ta‘minlashda ma’lum

to'siq bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shunday qilib, hozirgi kunga qadar soliq sohasida qabul qilingan ko'plab NHH (normativ huquqiy hujjatlar) soliq sohalarini sezilarli darajada rivojlantirishga imkon berdi va shu bilan uning samaradorligini oshirish uchun asos bo'ldi. Boshqa tomondan, qonun hujjatlari sonining sezilarli darajada o'sishi munosabati bilan soliq sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni to'liq inventarizatsiya qilish asosida birlashtirish amaliyotini joriy etishning obyektiv zarurati paydo bo'ldi.

7. Xorijiy tajribani o'rganish natijalari, soliq siyosati samaradorligini baholash bo'yicha **ko'pkomponentli mualliflik yondashuvini shakllantirishga imkon berdi**, xususan:

- umuman iqtisodiyotga soliq yukining darajasini real baholash uchun-soliqqa tortilmaydigan yoki imtiyozli oborot, obyektlarni, alohida soliq to'lovchilarning tarmoqlari va guruhlari bo'yicha yondishishning ahamiyatliligi;
- davlat faoliyatini ta'minlash uchun davlat budgetining daromad qismida soliq tushumlari prognoz ko'rsatkichlarini kafolatlangan holda ta'minlash;
- soliq risklarini kamaytirish;
- resurs yondashuvidan foydalanish (erishilgan natijaning foydalanilgan resurslarga nisbati) va maqsadli yondashuv (olingan natijalarning rejalashtirilgan natjalarga nisbati) orqali amalga oshirilayotgan soliq siyosatining sifati, belgilangan maqsadlarga erishish;
- yig'ilgan soliqlarni boshqarish va minimal soliq xarajatlari bilan soliq tushumlarini maksimal darajada oshirishni ta'minlash uchun xarajatlar darajasi (tranzaksiya xarajatlari - mehnat, vaqt va boshqalar);
- investitsion jozibadorlik va ishbilarmonlik faolligining o'zgarishi (shu jumladan iqtisodiyotda iste'mol va jamg'arish jarayonlariga ta'siri);
- innovatsiyalarni joriy etish jarayonlarini rag'batlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, ITTKI, "yashil iqtisodiyot" va boshqalar;
- jamiyatda ijtimoiy tabaqalanishni tartibga solishning samarali mexanizmlarining mavjudligi va aholi farovonligining o'sishi sifati (shaxsiy

daromad, yashash minimumining yetarliligi, shaxsiy daromadlarga soliq solishning adolatliligi va boshqalar).

8. Bizning fikrimizcha, nafaqat barcha mamlakatlarda, jumladan, respublikamiz soliq tizimida davlatning soliq siyosatining ishlab chiqilishi va uni amalga oshirish jarayonlarini baholash uning keyingi bosqichlarini to‘g‘ri belgilab olishga imkon berish bilan birgalikda, umumiylar tarzda milliy iqtisodiyot darajasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning samarasini baholashga ham xizmat qiladi. Bu esa davlatning soliq siyosatining strategik maqsadlarga erishayotganligi yoki erishmayotganligi baholashni muntazam ravishda ilmiy jihatdan tahlil etgan holda baholab borishni taqozo etadi. Bu jarayonda esa yuqorida biz tomonimizdan ayrim tavsiya etilayotgan ko‘rsatkich va mezonlarni qo‘llash uslubiyotidan foydalanish o‘zining ilmiy ahamiyatiga egadir.

9. Nazariy talqin va amaliy tahlillar asoslanib bugungi kunda Respublikamiz soliq tizimida davlat soliq siyosatini ishlab chiqishda va uni strategik maqsadlarga muvofiq tarzda amalga oshirishda ayrim muammolar aniqlandi. Ular jumlasiga:

birinchidan, soliq to‘lovchilarni ro‘yxatdan o‘tkazish va hisobga olishda ularni segmentlashning nomukammalligi;

ikkinchidan, soliq to‘lovchilarga keng yo‘nalishlarda soliq xizmatlarini ko‘rsatish (ayniqsa soliq rejimlarini tanlash, soliqlarni to‘lashdagi hisobvaraqlari, muddatlarining ko‘pligi) bo‘yicha soliq organlarining ish qoidalarining takomillashmaganligi,

uchinchidan, soliq tizimining biznes va iste’molchilarining iqtisodiy yechimlariga nisbatan barqarorligi, shaffofligi va betarafligining yetarli (qonun bilan cheklanmagan faoliyat turlari bilan shug‘ullanish mumkin bo‘lsada, bank aylanmalari mos kelmasligi degan vaj bilan e’tirozlarning ko‘pligi) bo‘lmagan darajasini o‘z ichiga olgan soliq siyosatining kamchiliklari;

to‘rtinchidan, soliq imtiyozlari va preferensiyalarni taqdim etish amaliyotida aniq mezon, mexanizmlarning yo‘qligi hamda individual imtiyozlar berishdan to‘laqonli voz kechilmaganligi;

beshinchidan, soliq siyosatidagi yangiliklarni joriy etishda ijtimoiy shartnomada doirasida konsensusga erishish uchun institutlarning rivojlanmaganligi (ayniqsa kiritilayotgan yangiliklarni oldin ma'lum bir sohada ijobjiy sinovdan o'tkazib keyin barchaga joriy etish o'rniga birinchi qadamdan hammaga nisbatan qo'llash amaliyoti to'xtamayotganligi);

oltinchidan, soliq ma'murchiligi vositasi sifatida yaratilgan yangi dasturiy mahsulotlarning murakkabligi, biznesni yangi sharoitlarga moslashtirish uchun ular bilan soliq to'lovchilar tomonidan batafsilroq o'rganish va bunga kadrlarini tayyorlash uchun yetarli vaqt yo'qligi;

yettinchidan, yashirin iqtisodiyot ko'lmini baholashning yagona usulining mavjud emasligi, soliq siyosati samaradorligini monitoring qilish va baholash tizimining nomukammalligi, shuningdek, ishbilarmonlik faolligiga, budgetning daromad qismiga va pirovardida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ijodiy vektorining ustuvor maqsadlarini amalga oshirish sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi kabi muammolarni kiritish mumkin.

*10. O'zbekistonda davlatning soliq siyosati va uning strategik va taklik yo'nalishlarini amalga oshirishdagi muammolarning yechimlari va mavjud mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida tadqiqot ishimizning ilmiy yangiliklarini o'zida aks ettiruvchi quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:* ya'ni, (1) yillik budget parametrlarini tasdiqlash va u orqali har yili ma'murchilikka kiritiladigan tez-tez o'zgarishlar o'miga, o'rta va uzoq yillarga mo'ljallangan budget daromadlari, soliq siyosati strategiyasini tasdiqlab borish, bunda, yil davomida qabul qilinadigan qonun, farmon, qarorlar bilan soliq siyosati va ma'murchiliga kiritiladigan har qanday qo'shimcha va yangiliklar yilning turli oylarida emas, faqat yilning boshidan (yoki 1-iyuldan kiritilishi) aniq o'zgarmas sanasini Soliq kodeksi bilan belgilab qo'yish, yangiliklarni dastlab ma'lum sohadan, undan keyin keng jabhada joriy etish, (2) soliq ma'muriyatçiliginin takomillashtirish strategiyasini amalga oshirishda soliq yuki va soliq rejimlarini bixillashtirish, shuningdek, ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish, (3) mahalliy budgetlar mustaqilligini yanada oshirish, jumladan soliq turlaridan

mahalliy budjetlarga ajratmalarni yuqoridan pastga belgilab berishdan bosqichma-bosqich voz kechgan holda, quyi darajada vakolatini kengaytirish, (4) soliq siyosati strategiyasini samarali realizatsiya qilishda (yashirin iqtisodiyot ko‘lamini jilovlashda) – keng jamoatchilikni jalb qilish, rag‘batlantirish institutlarini yanada kengaytirish, shuningdek “shubhali operatsiya” vaji ostidagi tadbirkorlarga bildiriladigan e’tirozlarni qonun normasi bilan aniq belgilab qo‘yish, (5) soliq ma’murchiligi strategiyasini amalga oshirishda – soliq organlari strukturasini raqamlashtirish natijalari bilan bosqichma-bosqich optimallashtirilish (qisqartirish), (6) soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatishda to‘lov muddatlari va to‘lov hisobvaraqlarini yagonalashtirish, (7) soliq siyosati samaradorligini baholab borish va keng jamoatchilikka hisobdorlik institutini kengaytirish va shu kabi soliq siyosatining strategik va taktik mazmundagi choralarni amalga oshirish O‘zbekiston soliq tizimida davlatning soliq siyosatining mazmunini ilmiy-amaliy jihatdan takomillashuviga xizmat qilishi mumkin.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

**Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar**

1.1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

1.2. Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси. Ўзбекистон Республикаси 2019 йил 30 декабрдаги ЎРҚ-599-сон Конуни билан тасдиқланган.

1.3. Ўзбекистон Республикасининг Бюджет кодекси. Ўзбекистон Республикаси 2013 йил 26 декабрдаги ЎРҚ-360-сон Конуни билан тасдиқланган.

1.4. Ўзбекистон Республикасининг 2022-йил 30-декабрдаги “Солиқ ва бюджет сиёсатининг 2023 йилга мўлжалланган асосий йўналишлари қабул қилинганилиги муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айrim қонун хужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги ЎРҚ-812-сон Конуни.

1.5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги фармони.

1.6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Яширин иқтисодиётни қисқартириш ва солиқ органлари фаолияти самарадорлигини ошириш бўйича ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида» 2020 йил 30 октябрдаги ПФ-6098-сон фармони.

1.7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 30 декабрдаги “Ўзбекистон Республикасининг “2022 йил учун Ўзбекистон Республикасининг давлат бюджети тўғрисида»ги қонуни ижросини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-73-сон қарори.

1.8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 20 июлдаги ПФ-6029-сонли “Коронавирус пандемиясининг салбий таъсирини камайтириш учун аҳоли, тадбиркорлик субъектлари, умумий овқатланиш,

савдо ва хизматлар соҳасини қўллаб-қувватлашнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони.

1.9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 майдаги ПФ-5996-сонли “Коронавирус пандемияси даврида аҳоли ва тадбиркорлик субъектларини қўллаб-қувватлаш бўйича навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони.

1.10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 27 апрелдаги ПФ-5986-сон “Коронавирус пандемияси даврида аҳоли ва тадбиркорлик субъектларини қўллаб-қувватлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони

1.11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 3 апрелдаги ПФ-5978-сон “Коронавирус пандемияси даврида аҳоли, иқтисодиёт тармоқлари ва тадбиркорлик субъектларини қўллаб-қувватлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони.

1.12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 19 мартағи ПФ-5969-сон “Коронавирус пандемияси ва глобал инқироз ҳолатларининг иқтисодиёт тармоқларига салбий таъсирини юмшатиш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони.

1.13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 29 июнданги ПФ-5468-сонли “Ўзбекистон Республикасининг солик сиёсатини такомиллаштириш концепцияси тўғрисида”ги Фармони.

1.14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 18 июлдаги ПФ-5116-сонли “Солик маъмуриятчилигини тубдан такомиллаштириш, соликлар ва бошқа мажбурий тўловларнинг йиғилувчанлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони.

1.15. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 10 июлдаги ПҚ-4389-сонли “Солик маъмуриятчилигини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори.

1.16. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 26 декабрдаги ПҚ-4086-сонли “Ўзбекистон Республикасининг 2019 йилги

асосий макроиқтисодий кўрсаткичлари прогнози ва давлат бюджети параметрлари ҳамда 2020–2021 йилларга бюджет мўлжаллари тўғрисида”ги Қарори.

1.17. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 31 майдаги ПҚ-3756-сонли “Имтиёзлар ва преференциялар бериш тартибини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори.

1.18. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 29 декабрдаги ПҚ-3454-сонли “Ўзбекистон Республикасининг 2018 йилги асосий макроиқтисодий кўрсаткичлари прогнози ва давлат бюджети параметрлари тўғрисида”ги Қарори.

1.19. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2010 йил 24 декабрдаги ПҚ-1449-сонли “Ўзбекистон Республикасининг 2011 йилги асосий макроиқтисодий кўрсаткичлари прогнози ва давлат бюджети параметрлари тўғрисида”ги Қарори.

1.20. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 7 январдаги 1-сон «Солик хавфини бошқариш, солик хавфи мавжуд солик тўловчиларни (солик агентларини) аниқлаш ва солик текширувларини ташкил этиш ва ўтказиш тўғрисида»ги Қарори.

1.21. Ўзбекистон Республикаси Давлат солик қўмитаси тўғрисидаги Низом. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 17 апрелдаги 320-сон Қарори билан тасдиқланган.

1.22. Кўчмас мулк обьектларига бўлган ҳукуқларни давлат рўйхатидан ўтказиш тартиби тўғрисидаги Низом. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 29 декабрдаги 1060-сонли Қарори билан тасдиқланган.

1.23. Ўзбекистон Республикасининг “2021 йил учун Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети тўғрисида”ги Конуни лойиҳаси ва 2021 йил учун Бюджетнома бўйича Ўзбекистон Республикаси Ҳисоб палатасининг Хулосаси.

1.24. “Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети ва давлат мақсадли

жамғармалари бюджетларининг 2020 йилдаги ижроси тўғрисида”ги ҳисобот бўйича Ўзбекистон Республикаси Ҳисоб палатасининг Хуносаси.

1.25. Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараққиётининг мустақиллик йилларидағи (1990–2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011–2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари: статистик тўплам.– Т.: O‘zbekiston, 2011.–140 б. ва Халқаро валюта Фонд маълумотлар базаси.

1.26. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 26 июнданги “Давлат солиқ хизмати органлари фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3802-сон қарори.

1.27. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 7 сентябрдаги “Солиқ мажбуриятларини бажаришда тадбиркорлик субъектларига янада қулай шарт-шароитлар яратиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6307-сон фармони.

1.28. Давлат солиқ қўмитаси Раисининг 19.06.2020 йилдаги “Давлат солиқ хизмати органлари тузилмасига ўзгартишларни тасдиқлаш тўғрисида”ги 151-сон буйруғи.

1.29. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 15 сентябрдаги ПФ-6314-сон “Тадбиркорлик субъектлари учун маъмурий ва солиқ юкини янада камайтириш, бизнеснинг қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони

1.30. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2011 йил 4 апрелдаги ПФ-4296-сон “Тадбиркорлик субъектларини текширишларни янада қисқартириш ва улар фаолиятини назорат қилишни ташкил этиш тизимини такомиллаштириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги, фармони.

1.31. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 13 сентябрдаги ПҚ-374-сон “Тадбиркорлик субъектлари фаолиятида текширувлар ўtkазиши мувофиқлаштириш тартибини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори

## **1. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar**

- 2.1. Kuznets S. Economic Growth of Nations. Total Output and Production Structure. Cambridge, 1971.,
- 2.2. А.В. Аникин Юность науки. М., Политиздат. 1971 г. История экономической мысли. М., 1998.,
- 2.3. Аронов А. В., Кашин В. А. Налоги и налогообложение: учеб. пособие. — М.: Магистр, 2007. — С. 99—100.,
- 2.4. Барулин С.В., Макрушин А.В., Тимошенко В.А. Налоговая политика России. – Саратов: Сателлит, 2004. – с.24-25.,
- 2.5. Т.Р. Валинуров. Сущность налоговой политики государства и содержание налогового механизма. Приложение к журналу «Современные научноемкие технологии» №1 2010,
- 2.6. Денисов Э. Исследования различий в темпах экономического роста. М., 1971,
- 2.7. Едронова В.Н., Мамыкина Н.Н. Сущность и элементы налоговой политики // Финансы и кредит. – 2005. – №5. – с. 38,
- 2.8. Дж.М.Кейнс Общая теория занятости, процента и денег. – М.: 1993.,
- 2.9. Т.В. Куклина. Государственная налоговая политика и ее роль в социально-экономическом развитии России. Вестник Томского государственного университета. Экономика. 2016. №2 (34).,
- 2.10.Ф.Кенэ Избранные экономические произведения. -М.Соцэкгз. 1960., Дж.С.Милл Основы политической экономии. Пер. с анг. Т.1. – М.: Мысль, 1980.,
- 2.11.Макконелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика. В 2т. пер. с анг. 11-го изд. Т.1. – М: Республика. 1992.,
- 2.12.Лукьянова Н.Г. Управление налоговой системой государства: систематизация понятийного аппарата // Финансовый мир. 2002. Вып. 1.,

- 2.13.А.Смит. Исследование о природе и причинах богатства народов.- М.: 1962., Д.Рикардо. Начала политической экономии и налогового обложения / Соч. Т.1. М.: Госполиздат, 1956.,
- 2.14.Перов А., Толкушкин А. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: “Юрайт”, 2012. С. 118.,
- 2.15.Пезенти А. Очерки политической экономии капитализма. пер. с. итал. В 2т. Т.2. – М.: Прогресс, 1976. с. др., Налоговая политика // Экономика. Словарь по обществознанию. — М.: КДУ.
- 2.16.Ю. Ю. Петрунин, М. И. Панов, Л. Б. Логунова. 1995.,
- 2.17. Самуэльсон П. Экономика Т.1. пер. с анг.- М. Республика, 1993; Курс экономической теории: учебник – 4-с доп. И прераб. Изд.-Киров «ACA», 1999, стр. 557-584.,
- 2.18.Райзберг Б. А., Лозовский Л. Ш., Стародубцева Е. Б. Налоговая политика // Современный экономический словарь. — 2-е изд., испр. М.: ИНФРА-М. 479 с. 1999.,
- 2.19.Черник Д.Г. Налоги и налогообложение. М.: ИНФРА-М, 2001. 574 с.
- 2.20. Э.Ф.Гадоев ва б. Билвосита солиқлар: қўшилган қиймат солиғи, акциз солиғи. Тошкент: «NORMA», 2011. 327 б.;
- 2.21.Ш.А.Тошматов Кўшилган қиймат солиғи. Монография. Тошкент.: «Иқтисодиёт ва ҳуқук дунёси», 2004. -160 б.; Т.С.Маликов,
- 2.22.Н.Х.Ҳайдаров Молия: умумдавлат молияси. Ўқув қўлланма. Т.: «Iqtisod-moliya», 2009. -556 б.;
- 2.23.С.С.Азимов, “Камерал солиқ текширувини ташкил этишда ташқи манба маълумотларидан самарали фойдаланиш” мавзусидаги PhD илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертацияси, 2022 йил.,
- 2.24.Б.А.Норматов, “Ўзбекистон Республикасида солиқ текширувларини ҳуқуқий тартибга солишни такомиллаштириш” мавзусидаги (PhD) диссертацияси автореферати, Тошкент-2020;

2.25.И.А.Эргашев, “Солиқ маъмуритчилиги ташкилий-хуқуқий асосларини такомиллаштириш” мавзусидаги PhD илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертацияси, Корпоратив солиқ менежментида ички солиқ назорати ва таҳлили, “Молия” илмий журнали.-2010.-№3;

2.26.Ж.Ж.Урмонов, (2018), Тадбиркорлик субъектлари фаолиятини солиқ механизми воситасида тартибга солишни такомиллаштириш масалалари. Иқтисодиёт фанлари доктори (DCs) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. 27-38 б. / Urmonov J.J. (2018) Issues of improving the regulation of business entities through the tax mechanism. Dissertation for the degree of Doctor of Economics (DcS),

2.27.Н.Б.Ашуррова Барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашда солиқка тортиш механизмини такомиллаштириш. и.ф.д. (DS) Диссертацияси. Т: 2018 йил. 247 б.;

2.28.Ж.Ж.Урмонов Тадбиркорлик субъектларини солиқка тортиш механизмини такомиллаштириш масалалари: Монография/ Т.: “Iqtisod-Moliya”, 2018 й. 240 б.;

2.29.И.М.Ниязметов “Солиқ юкини оптималлаштириш: назария, услугбият ва амалиёт” Монография.-Тошкент: “Молия”, 2016. 192 б.;

2.30.Худойкулов С.К. Солиқ тушумларини прогноз қилиш методологиясини такомиллаштириш. и.ф.д. дисс. автореферати. Т., 2019. 77 б.;

2.31.Ф.И.Исаев Солиқ таҳлили методологиясини такомиллаштириш. И.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. 2022. 242 б;

2.32.У.Х.Нормурзаев Солиқ имтиёзларининг самарадорлиги: назария, методология ва амалиёт. Иқтисодиёт фанлари доктори (Doctor of Science) диссертацияси. 2022. 247 бет.,

2.33.Абдурахманов О.К. Налоговые системы стран с переходной экономикой. Монография. – М.: «Палеотип», 2006. – 375 с.;

2.34.Тошматов Ш.А. Корхоналарни ривожлантиришда солиқлар роли: Монография – Т.: «Fan va texnologiya», 2008. – 204 б.;

2.35.Гадоев Э.Ф. Солиққа тортиш тартиб-таомилларини соддалаштириш тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришнинг муҳим омили // «Иқтисод ва молия» журнали, 2015, 1-сон. – Б.30-34.;

2.36.Ашурова Н.Б. Барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашда солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш // и.ф.д. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. –Тошкент, 2018. – 76 б.;

2.37.Альмардонов М.И. Тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришга солиқ тизимининг таъсири: Монография. – Т.2003. – 233 б.;

2.38.Жўраев А.С. Давлат бюджети даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари: Монография. – Т.: «Фан», 2004. – 243 б.;

2.39.Маликов Т.С. Солиқлар ва солиққа тортишнинг долзарб масалалари. – Т.: «Академия», 2000. – 276 б.;

2.40.Тошмуродова Б.Э. Солиқлар воситасида иқтисодиётни бошқариш механизми: Монография. – Т.: «Янги аср авлоди», 2002. – 127 б.;

2.41.Яҳёев Қ.А. Солиққа тортиш назарияси ва амалиёти. – Т.: «Фан ва технологиялар маркази», 2003. – 247 б.;

2.42.Хайдаров Н.Х. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида корхоналар инвестицион фаолиятидаги молия-солиқ муносабатларини такомиллаштириш масалалари // и.ф.д. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т. 2003. – 34 б.;

2.43.Исламкулов А.Х. Бюджетлараро мутаносибликни таъминлашда солиқлар тизимини такомиллаштириш // и.ф.д. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т. 2020. – 71 б.;

2.44.Мирзаев Ф.И. Ўзбекистонда солиқ йигилувчанлиги даражасини ошириш йўллари // и.ф.н. илмий даражаси олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т.: БМА, 2012. – 24 б.;

2.45. Пардаев А.Х., Азимов Б.Ф. Корхоналар фаолиятини солиқлар воситасида бошқариш. – Т.: «Zar qalam», 2005. – 68 б.; Кузиева Н.Р. Хорижий инвестициялар иштирокидаги корхоналар фаолиятини рағбатлантиришнинг молия-кредит механизмини такомиллаштириш йўналишлари // и.ф.д. илмий

даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент, 2008. – 293 б.;

2.46.Тошқулов А. Қишлоқ хўжалиги корхоналари иқтисодий фаолиятини солиқлар воситасида рағбатлантириш масалалари (Сурхондарё вилояти мисолида) // и.ф.д. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Т. 2021. – 80 б.;

2.47.Раджапов У.А. Ўзбекистон иқтисодиётини эркинлаштириш шароитида солиқ механизмини такомиллаштириш // и.ф.н. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т. 2006. – 24 б.

2.48.Almy, R.A. Survey of property tax systems in Europe / R. Almy // Report prepared for Department of taxes and customs, The Ministry of Finance, Republic of Slovenia, 2001. – 122 p.

2.49.Жўраев А., Сафаров Ф. Солиқ назарияси. Ўқув қўлланма. –Т.: “Iqtisod-moliya”, 2005. 48-бет.

2.50.Перов А., Толкушкин А. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: “Юрайт”, 2012. С. 118

2.51.Ф.Кенэ Избранные экономические произведения.-М.Соцэкгз. 1960;

2.52.А.Смит Исследование о природе и причинах богатства народов.- М.: 1962; Д.Рикардо Начала политической экономии и налогового обложения / Соч. Т.1. М.: Госполиздат, 1956;

2.53.Дж.М.Кейнс Общая теория занятости, процента и денег. – М.: 1993;

2.54.Дж.С.Милл Основы политической экономии. Пер. с анг. Т.1. – М.: Мысль, 1980;

2.55.А.В. Аникин Юность науки. М., Политиздат. 1971 г. История экономической мысли. М., 1998.

2.56.Менько Г. Макроэкономика. М., 1994;

2.57.Денисов Э. Исследования различий в темпах экономического роста. М., 1971;

2.58.Kuznets S. Economic Growth of Nations. Total Output and Production Structure. Cambridge, 1971;

2.59.Леонтьев В.В. Экономические эссе. М., 1991;

2.60.Макконелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика. В 2т. пер. с анг. 11-го изд. Т.1. – М: Республика. 1992;

2.61. Самуэльсон П. Экономика Т.1. пер. с анг.- М. Республика, 1993; Курс экономической теории: учебник – 4-е доп. И прераб. Изд.-Киров «АСА», 1999, стр. 557-584;

2.62.Пезенти А.Очерки политической экономии капитализма. пер. с итал. В 2т. Т.2. – М.: Прогресс, 1976. с. др.

2.63. Налоговая политика // Энциклопедия российского и международного налогообложения. — М.: Юристъ. А. В. Толкушкин. 2003.

2.64. Райзберг Б. А., Лозовский Л. Ш., Стародубцева Е. Б. Налоговая политика // Современный экономический словарь. — 2-е изд., испр. М.: ИНФРА-М. 479 с. 1999.

2.65.Налоговая политика // Энциклопедия российского и международного налогообложения. — М.: Юристъ. А. В. Толкушкин. 2003.

2.66. Налоговая политика // Экономика. Словарь по обществознанию. М.: КДУ. Ю. Ю. Петрунин, М. И. Панов, Л. Б. Логунова . 1995.

2.67.Аронов А. В., Кашин В. А. Налоги и налогообложение: учеб. пособие. — М.: Магистр, 2007. — С. 99—100.

2.68.Н.М.Дементьева. налоговая политика государства.  
[https://nsuem.ru/science/publications/science\\_notes/issue.php?ELEMENT\\_ID=1689](https://nsuem.ru/science/publications/science_notes/issue.php?ELEMENT_ID=1689), Налоги и налогообложение: учебник для студентов вузов, обучающихся по специальностям «Финансы и кредит», «Бухгалтерский учет, анализ и аудит», «Мировая экономика»/ [И.А.Майбуров и др.]; под ред. И.А.Майбурова.-М.: ЮНИТИ-ДАНА,2007.-655с.)

2.69.Н.М.Дементьева. налоговая политика государства.  
[https://nsuem.ru/science/publications/science\\_notes/issue.php?ELEMENT\\_ID=1689](https://nsuem.ru/science/publications/science_notes/issue.php?ELEMENT_ID=1689).

2.70. Алиев Басыр Хабибович. Налоговая политика и её роль в регулировании экономики государства. Вопросы структуризации экономики. №3, 2012 Материалы IV Международной НПК по СТО в Махачкале.

2.71.Т.В. Куклина. государственная налоговая политика и ее роль в социально-экономическом развитии России. Вестник Томского государственного университета. Экономика. 2016. №2 (34).

2.72.Лукьянова Н.Г. Управление налоговой системой государства: систематизация понятийного аппарата // Финансовый мир. 2002. Вып. 1.

2.73. Черник Д.Г. Налоги и налогообложение. М.: ИНФРА-М, 2001. 574 с.

2.74. Карп М.В. Налоговый менеджмент: Учебник для вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2001. – 39 с.

2.75.Барулин С.В., Макрушин А.В., Тимошенко В.А. Налоговая политика России. – Саратов: Сателлит, 2004. – с.24-25.

2.76. Едронова В.Н., Мамыкина Н.Н. Сущность и элементы налоговой политики // Финансы и кредит. – 2005. – №5. – с. 38

2.77. Т.Р. Валинуров. Сущность налоговой политики государства и содержание налогового механизма. Приложение к журналу «Современные научноемкие технологии» №1 2010.

2.78.Майбуров И.А. Теория и история налогообложения: Учебник для студентов вузов. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. С. 435.

2.79.Содномова С.К. Теория и история налогообложения: Учебное пособие. М.; Берлин: Директ-Медиа, 2019 – 179 с.

2.80. Carlos Silvani and Katherine Baer. Designing a Tax Administration Reform Strategy: Experiences and Guidelines, IMF – 1997. 36 pages.

2.81. Ростовцев Вячеслав Вячеславович. Бюджетно-налоговая политика Российской Федерации 08 00 10 - Финансы, денежное обращение и

кредит Автореферат на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Орел -2008.

2.82.Ковалев Петр Иванович. Экономические и административные формы реализации налоговой политики. Специальности: 08.00.05 - экономика и управление народным хозяйством (макроэкономика) 08.00.10 - финансы, денежное обращение и кредит. Автореферат. Диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук..Ростов-на-Дону—2006.

2.83.Юрий Владимирович. Формирование и реализация налоговой политики в России. Специальность: 08.00.10 - "Финансы, денежное обращение и кредит". Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Саратов – 2013. С.5.ЛАПИН

2.84.Юрий Владимирович. Формирование и реализация налоговой политики в России. Специальность: 08.00.10 - "Финансы, денежное обращение и кредит". Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Саратов – 2013. С.3.

2.85.Жўраев А.С., Сафаров F.A., Мейлиев О.Р. Солиқ назарияси: Ўқув қўлланма. Тошкент Молия институти, 2017. – 181 б.

2.86.Яҳёев Қ. Солиққа тортиш назарияси ва амалиёти. –Т. 2003. 28-бет

2.87. Зайналов Ж. Солиқлар ва солиққа тортиш. Самарқанд. 2002. 32 бет

2.88. Мирёқуб Хайдаров. Солиқ сиёсатини такомиллаштиришда ижтимоий ҳамкорликнинг аҳамияти. иқтисод ва молия / экономика и финанссы 2013, 8.

2.89.Юлий Юсупов. Стратегия и тактика налоговой реформы.  
<http://ced.uz/strategiya-i-taktika-nalogovoj-reformy/>.

2.90.Борисовская И.В. Методология и методы научного исследования: Электронный ресурс: Учебно-методический комплекс / И.В. Борисовская. – Белгород, 2016.

2.91.Рябова И. Непростая справедливость. Электронный ресурс. <https://econs.online/articles/coffee-break/neprostaya-spravedlivost/> (дата обращениея 13.04.2023).

2.92.Законодательный процесс в зарубежных странах: учеб. пособие / Ю.И. Лейбо [и др.]; под ред. Ю.И. Лейбо. Моск. гос. Ин-т междунар. отношений (ун-т) МИД России, каф. конст.права. — М.: МГИМО-Университет, 2012. Стр. 3-16.

2.93.Орлова А.А. Принципиальные особенности налоговой системы Федеративной республики Германия. НАЛОГИ и ФИНАНСЫ № 4/2012. С. 32 – 37.

2.94.Стиглиц Дж. Экономика государственного сектора. М.: МГУ, ИНФРА-М, 1997. С. 471.

2.95.Блауг М. Экономическая мысль в ретроспективе М.: Дело Лтд, 1996. - 687 с.

2.96.Harberger A. Taxation, Resource Allocation and Welfare. In: The Role of Direct and Indirect Taxes in the Federal Reserve System. Princeton Univ. Press for NBER at Brookings Inst., 1964.

2.97.Экономическая теория: Учебник / Под общ. ред. акад. В.И. Видяпина, А.И. Добрынина, Г.П. Журавлевой, Л.С. Тарасевича. — М.: ИНФРА-М, 2003. — 714 с

2.98. Смоляр М.Я. Совершенствование оценки эффективности и результативности при планировании программных расходов бюджета. Ж. Наука о человеке: гуманитарные исследования Россия, г. Омск, стр. 87-93.

2.99.Гончарова Т. М. Высшая математика. Приложения определенного интеграла: учебно- методическое пособие для студентов экономических специальностей. МГУП. 2010. – 32 с

2.100. Балацкий Е.В. См. следующие его работы: Оценка влияния налоговых инструментов на экономический рост // Проблемы прогнозирования. 2004. № 4; О природе несостоительности российской фискальной системы // Общество и экономика. 2004. №11—12;

Инвариантность фискальных точек Лаффера // МЭ и МО. 2003. № 6; Анализ влияния налоговой нагрузки на экономический рост с помощью производственно-институциональных функций // Проблемы прогнозирования. 2003. № 2.

2.101.Меркулова Т.В. Институт налога. Харьков, 2006. С. 56.

2.102. Крилав Р. Концепции распределения налогового бремени // Пособие по налоговой политике. Вашингтон: МВФ, 1995. С. 43.

2.103.Чугунова А. А. Повышение имиджа и престижа работы в налоговых органах как важный элемент сильной системы налогообложения. Ж. Молодой ученый. 2019. - № 42 (280). – С. 136-138. электронный ресурс – URL: <https://moluch.ru/archive/280/63108/> (дата обращения: 11.01.2023).

2.104.Громов В. В. Налоговая конкуренция в России на разных этапах развития налоговой системы // Финансовый журнал. 2020. Т. 12. № 1. С. 41–57.

2.105.Сборник статей IX Международной научно-практической конференции молодых налоговедов. Актуальные проблемы налоговой политики: (Минск – Москва – Екатеринбург – Иркутск – Владивосток, апрель 2017 г.). / Школа экономики и менеджмента. Владивосток: 2017. – 359 с.

2.106. Майбуров И.А. Налоговая политика теория и практика М.: Юнити-Дана, С. 63.

2.107.Ўзбекистон Республикаси давлат солик қўмитаси раиси Ш.Д. Кудбиевнинг МДХ мамлакатлари солик хизматлари раҳбарларининг Мувофиқлаштирувчи кенгаши доирасидаги нутқи материалларидан. Минск шаҳри. 2022 йил 5-6 ноябрь

### **3. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar.**

3.1. Ўзбекистон Республикаси Давлат Солик қўмитасининг ахборотномаси.

3.2. <http://www.Soloq.uz>-(Давлат солқи қўмитаси сайти)

3.3. <http://www.mf.uz>-(Молия вазирлиги сайти)

- 3.4. <http://www.stat.uz>-(Давлат статистика қўмитаси сайти)
  - 3.5. <https://www.sciencedirect.com>
  - 3.6. <http://www.doingbusiness.org> – (Doingbusiness – бизнес юритиш лойиҳаси).
  - 3.7. <https://www.indexmundi.com> – (IndexMundi – бир нечта манбалардан тузилган батафсил мамлакат статистикаси, диаграммалар ва хариталарни ўз ичига олган сайт).
  - 3.8. <https://taxfoundation.org> – (Солиқ фонди – Вашингтондаги таҳлил маркази).
  - 3.9. <https://www.nalog.gov.ru> – (Россия Федерациясининг Федерал солиқ хизмати).
  - 3.10. <https://davreestr.uz> – (Кўчмас мулк объектларига бўлган хукуқларнинг давлат реестри).
  - 3.11. <https://kadastr.uz> – (Ўзбекистон Республикаси Давлат Солиқ қўмитаси ҳузуридаги кадастр агентлиги сайти).
  - 3.12. <http://www.gov.uz> - (Ўзбекистон Республикаси ҳукумати расмий сайти).
  - 3.13. <http://www.lex.uz> – (Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси).
  - 3.14. <https://www.imf.org/en/Publications/fandd/issues/2018/03/akitoby>
  - 3.15. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
  - 3.16. [https://minfin.gov.ru/ru/performace/tax\\_relations/](https://minfin.gov.ru/ru/performace/tax_relations/).
  - 3.17. <https://archive.doingbusiness.org/ru/data/exploretopics/paying-taxes>
  - 3.18. Рынок электронной коммерции может вырасти в 12 раз.
- Электронный ресурс. <https://www.spot.uz> (дата обращения 26.01.2023 г.)

## **ILOVALAR**

## Murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari to'g'risida ma'lumot

t/r	Murojaatlar tarkibi	Shu jumladan murojaatlar shakllari:					
		Jami murojaatlar soni	Yozma murojaatlar	Elektron murojaatlar	2021 y	2022 y	2021 y
1	Soliq to'lovlariga oid tushuntirish berish to'g'risida	16799	23640	948	1119	14663	21281
2	Soliq to'lovlardan ozod qilish va imtiyozlar bo'yicha	4767	2101	187	63	3806	1821
3	Savdo-sotiq sohasidagi tartib buzilish holatlari yuzasidan	1152	1179	54	32	730	955
4	Bozor va savdo komplekslari faoliyati yuzasidan	27	84	4	0	17	10
5	Musodara qilish maqsadida olib qo'yilgan tovar-moddiy boyliklar to'g'risida	3	172	0	0	3	0
6	Soliq tizimiga ishga kirish hamda tizim o'quv yurtlariga qabul yuzasidan	357	228	59	23	247	121
7	Soliq tizimi xodimlarini noqonuniy ishdan bo'shatish, noqonuniy tarza jazoga tortish bo'yicha bildirilgan noroziliklar xususida	135	123	18	12	100	39
8	Soliq tizimi xodimlarining noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan	494	422	65	64	341	233
9	Xususiy firma, shirkat xo'jaliklari va boshqa idoralar, korxonalarndagi qonunbuzilish holatlari yuzasidan	82	92	15	10	57	30
10	O'tkazilgan soliq tekshiruvlardan va soliq organlarining qabul qilgan qarorlaridan noroziligi yuzasidan	1356	1937	223	248	1029	1578
11	Boshqa turli mavzular (soliq qarzdorligi, ortiqcha to'lovlarni qaytarish, ma'lumotlar taqdim etish, ijtimoiy masalalar va boshqalar to'g'risida)	12832	39210	783	1199	10890	36500
<b>Jami</b>		<b>38004</b>	<b>69188</b>	<b>2356</b>	<b>2770</b>	<b>31883</b>	<b>62568</b>
						<b>3765</b>	<b>3850</b>

### 3.3-ilova

## O‘zbekiston Respublikasida 1991-2022-yillar davrida soliq sohasiga taaluqli qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risidagi MA’LUMOT

<b>Yillar</b>	<b>O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari</b>	<b>Prezident Farmonlari</b>	<b>Prezident qarorlari</b>	<b>Vazirlar Mahkamasi qarorlari soni</b>	<b>Jami</b>
1991-y.	4	0	0	2	<b>6</b>
1992-y.	3	2	0	10	<b>15</b>
1993-y.	6	2	0	12	<b>20</b>
1994-y.	2	5	0	15	<b>22</b>
1995-y.	2	1	0	12	<b>15</b>
1996-y.	5	5	0	20	<b>30</b>
1997-y.	8	6	0	20	<b>34</b>
1998-y.	9	5	0	23	<b>37</b>
1999-y.	6	4	0	17	<b>27</b>
2000-y.	6	3	0	24	<b>33</b>
2001-y.	8	4	0	11	<b>23</b>
2002-y.	9	5	0	22	<b>36</b>
2003-y.	10	6	0	31	<b>47</b>
2004-y.	7	1	0	24	<b>32</b>
2005-y.	7	6	6	13	<b>32</b>
2006-y.	6	8	16	22	<b>52</b>
2007-y.	9	5	18	7	<b>39</b>
2008-y.	1	3	20	12	<b>36</b>
2009-y.	4	3	24	18	<b>49</b>
2010-y.	5	4	4	14	<b>27</b>
2011-y.	7	4	9	15	<b>35</b>
2012-y.	7	6	9	27	<b>49</b>
2013-y.	3	5	17	26	<b>51</b>
2014-y.	7	5	15	20	<b>47</b>
2015-y.	5	3	7	22	<b>37</b>
2016-y.	10	7	17	20	<b>54</b>
2017-y.	6	38	107	83	<b>234</b>
2018-y.	10	40	97	125	<b>272</b>
2019-y.	24	43	76	140	<b>283</b>
2020-y.	21	39	59	164	<b>283</b>
2021-y.	33	42	95	166	<b>336</b>
2022-y.	21	38	85	167	<b>311</b>
<b>Jami</b>	<b>271</b>	<b>348</b>	<b>681</b>	<b>1304</b>	<b>2604</b>

Manba: muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy bazasini o‘rganish asosida tuzilgan.